

QODIROVA SURAYYO ADILOVNA

INTERYER VA JIHOZLASH



Darslik

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI**

QODIROVA SURAYYO ADILOVNA

INTERYER VA JIHOZLASH

(Darslik)

Toshkent - 2020

Muallif: - S.A.Qodirova, TAQI “Arxitekturaviy loyihalash”
kafedrası dotsenti, arx.nom.
“Interyer va jihozlash” darslik. TAQI-2020, 188 bet.

“Interyer va jihozlash” darsligi oliy arxitektura maktabida uchinchi bosqich (kurs)ning oltinchi bo‘limi (semestri)da o‘quv rejasiga muvofiq o‘tiladigan nazariy kursni o‘z ichiga oladi. Darslikning mazmuni 5340100 – “Arxitektura” mutaxassisligi bo‘yicha tuzilgan kompleks o‘quv dasturining bo‘limi hisoblangan “Interyer va jihozlash” kursining dasturiga to‘liq mos keladi.

Ta’limning maqsadi–talabalarni interyerni arxitekturaviy loyihalashga to‘g‘ri ijodiy yondashishga o‘rgatishdir. Interyerni loyihalash uning umumiy masalalari bilan uzviy bog‘langan holda turar-joy, jamoat va sanoat ob‘yektlarining hajmiy-rejaviy yechimlarini topish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu darslikdagi material talabalarning bilim doirasini malakali saviyalar, uslublar va intuitsiya bilan yanada boyitish uchun xizmat qiladi. Ushbu bilimlar zamonaviy turar-joy, jamoat va sanoat binolarining ichki muhitini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab masalalarni yechish imkonini beradi.

Taqrizchilar - T.A.Xidoyatov,TAQI “Arxitekturaviy loyihalash”
kafedrası prof., arx.dok.

-A.M.Umarov Aziz, MChJ “Aziz Projekt” loyiha bosh
arxitektor, arx. Nom.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 4 maydagi 285-sonli buyrug‘i bilan nashrga ruxsat etilgan (285-284-sonli Guvohnoma).

KIRISH

O‘zbekistondagi siyosiy va ma’naviy rivojlanish, jamiyatni demokratlashtirish islohotlari, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyot mamlakatimizdagi arxitektura sohasida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarini jadal rivojlantirdi. Bu esa o‘z kasbiga mehr qo‘ygan, chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, kasbiy faoliyatini ilmiy asosda rivojlantira oladigan va nazariy bilimlarini bevosita amaliyotga tadbqiq eta oladigan yosh arxitektorlarni tayyorlashni talab etadi. Ushbu dastur arxitektura yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan bakalavrlar uchun mo‘ljallangan hamda bino va inshootlar interyerlarini loyihalash va tashkil etishni nazariy jihatdan tushuntirib berishga va interyerlarni loyihalashga kompleks yondashuvni shakllantirishga qaratilgan. Arxitektor-bakalavrlarni yetuk mutaxassis qilib tarbiyalashda “Interyer va jihozlash” fanining ahamiyati katta. Zero tashqi arxitekturaviy muhit bilan ichki arxitekturaviy muhitni uyg‘unlashtirish uchun, avvalom bor, ana shu ichki muhit – interyerni loyihalashni va zamonaviy jihozlashni bilish kerak. Talabalarni milliy me’morchilikning an’anaviy usullariga hurmat ruhida tarbiyalash ta’lim sohasining ajralmas qismidir. Asosiy e’tibor ijtimoiy funksiyasi turlicha bo‘lgan xonalarni loyihalashga, turar joy va jamoat binolarining ichki fazolarida har tomonlama qulaylikni yaratishga qaratilmog‘i kerak. Fanni o‘qitishdan **maqsad** - talabalarda loyiha-tadqiqot tashkilotlarida bino va inshootlar interyerlarini loyihalashning zamonaviy va ilmiy asoslangan texnologik tartib usullari, interyerlarni funksional–rejaviy, arxitekturaviy–badiiy, konstruktiv va iqtisodiy jihatdan kompleks loyihalash uslubiyatlari, shu bilan birga amaliyotga tadbqiq qilish, nazorat olib borish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Fanning **asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

- talabalarga interyer va jihozlarni loyihalashning asosiy tushunchalarini milliy va xorijiy tajribalar misolida yetkazish;
- O‘zbekistonning tabiiy-iqlim sharoitlari, milliy odatlar va an’analarni turar joy va jamoat binolari loyihasi va qurilishida interyer va jihozini qo‘llash

(ishlatish)ni tushuntirish;

- interyer va jihozlarni jamiyatning ijtimoiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda loyihalashni o'rgatish;
- xonalarning o'zaro texnologik aloqalarini e'tiborga olgan xolda loyihalashni o'rgatish;
- interyer va jihozlar loyihasida fazoviy-kompozitsion masalalarni yechish va konstruktiv yechimlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatish;
- insonlarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda interyer va jihozlarning yorug'lik va rang yechimlarini topa olishni o'rgatish;
- interyer va jihozlarda qurilish materiallarini xonalarga mos ravishda tanlay bilishni o'rgatish;
- me'yoriy hujjatlar (QMQ, ShNK) dan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.



INTERYER VA JIHOZLASH HAQIDA TUSHUNCHA.

INTERYERNING SHAKLLANISH JARAYONLARI. INTERYERNING SHAKLLANISH TARIXIY BOSQICHLARI

Interyer va jihozlash fanining maqsadi talabalarga turar joy, jamoat, sanoat binolarining zamonaviy interyerlari va jihozlarini loyihalash asoslarini o'rgatish, ularga interyerlarning ijtimoiy voqelik bilan bog'liqligini ko'rsatib berish va ushbu aspektda olib borilayotgan amaliy ijtimoiy izlanishlarning mazmun-mohiyati va metodlarini tushuntirib berishdan iborat. Interyerlarning arxitekturaviy rejaviy yechimlari asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan kursning yo'nalishi zamonaviy turar oylar, jamoat va sanoat binolarini arxitekturaviy loyihalash sohalarining ijtimoiy dasturini ishlab chiqish va O'rta Osiyo uchun xos bo'lgan konkret sharoitlarda regional zamonaviy turar joy binolarini yaratish bo'yicha bo'lajak me'morlarning kelgusi faoliyati nimalardan iborat ekanligini tushuntirib berishni o'z ichiga oladi.

Interyer fransuzcha ***interyerius*** so'zidan olingan bo'lib, ichki yoki ichkari degan ma'noni anglatadi. Arxitektura maqulroq va qulayroq bo'lgan hayotiy muhitni yaratishga xizmat qiladi va shu bilan bir qatorda u insonlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Texnikaviy taraqqiyot hamda turmushda va madaniyat sohasida ro'y berayotgan tezkor o'zgarishlar insonlar jamiyat hayotida yangidan yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'lmoqda. Bularning hammasi moddiy muhit sifatida arxitekturaga qo'yiladigan talablarning sonini ham oshiryapti. Moddiy muhit yaratishda bino va inshootlarning ichki fazoviy kengligini tashkil etish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Interyer tashkil etilgan kenglik sifatida insonning jismoniy va ruhiy rivojlanishida, bolalarni tarbiyalash uchun eng yaxshi qulayliklar yaratishda, odamlarning ijtimoiy hayotini tashkil etishda o'z aksini topadi. Interyer inshootning strukturasi, funksional va hajmiy fazoviy kompozitsiyasidan kelib chiqqan holda quriladi. Turar joylarning interyeri ulardagi kvartiralarning rejaviy strukturasi va o'lchamlariga bog'liq bo'ladi. Arxitektura va inson faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik odamlarning bino ichidagi shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi ehtiyojlarini inobatga oluvchi

ijtimoiy turmush jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu o‘zaro bog‘liqlik shaharsozlik sharoitlarni, moddiy texnik imkoniyatlarni, iqtisodni, ideologiyani va estetikani o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, interyerni loyihalashning maqsadi insonning xotirjam yashashi uchun qulay sharoitlarga ega bo‘lgan va aniq funksiyalarni bajaradigan ichki fazoviy kenglikni loyihalashdir.




Xonalarning interyerini o‘rganishda inson hayoti va faoliyati o‘tadigan muhitning tashkil etilishi va uning rivojlanishini xarakterli jihatlarini tushunib olish arxitektorlar uchun g‘oyat foydalidir.

Ilk davrlarda insonlar o‘z hayotini tabiiy kengliklarda kechira boshlaganlar. Insonlar hayoti davomida tabiiy iqlim va tabiat ularga o‘z ta’sir kuchini o‘tkazishni sezganlar. Ular yirtqich xayvonlardan va tabiiy iqlim sharoitlarining noxush holatlaridan himoya qilish uchun o‘zi uchun tashqi muhitdan izolyatsiyalangan kenglikni yaratishdan iborat bo‘lgan.

Inson jamiyatining boshlang‘ich davrlarida asosan tabiiy to‘lalar va tog‘ cho‘qqilaridagi g‘orlardan boshpana sifatida foydalangan. Chunki ularga ko‘proq sondagi odamlardan tashkil topgan jamoa joylashishi mumkin bo‘lgan.

Bunday joylar ma'lum bir darajada xavfsiz va qulay bo'lgan. Keyinchalik oilaviy struktura shakllanishining boshlanishi bilan oddiy yashash yacheykalari paydo bo'la boshladi. Inson shinamlik va qulayliklarga ega bo'lgan madaniy muhit yarata boshladi. Ichki fazoviy kengligidagi devorlarni yirtqich xayvonlar va ov jarayonini tashkil etuvchi rasmlar bilan boyitish orqali estetik komfort berishga intilishdi. Xonalarning ichki bezagi haqida so'zlashdan oldin me'morchilik haqida fikrlashsak ham to'g'ri, ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Inson endi paydo bo'lganida tog' etaklaridagi g'orlarda yashab, kun kechirgan. G'orlarda yashash tarzi oldiniga tabiiy holda bo'lgan. Keyinchalik insonlar uni o'z xohishi bilan sun'iy lashtirganlar. Interyer haqidagi ilk tushunchalar ana o'sha davrdan boshlangan. G'orlarda yashagan odamlar toshlarga har xil hayvonlar rasmlarini chizishgan. Bunga Farg'ona vodiysida topilgan topilmalar misol bo'la oladi.



Toshga o'yib solingan rasm. «Yer haydash manzarasi».Ilk temir davri.

Jamiyat strukturasini o'zgargan sari inson yashab turgan muhiti ham shakllana bordi.

Qadimgi Misr arxitekturasini eramizdan 3000 yil avval boshlangan. U bir necha etaplarga bo'linib, juda ko'p vaqt oralig'ini o'z ichiga oladi. Quldorlik rivojlangan Nil daryosi bo'yida din rivojlana borishi bilan maqbara va xramlar

qurilishi asosiy o'ringa ega bo'ldi. Masalan, Joser piramidasi, Gizadagi piramidalar, Xefron xrami, Luksordagi Amon xramlari shular jumlasidandir. Bu davrda ochiq fazolar va hajmiy ob'yektlar o'rtasidagi munosabatlar biroz murakkablashadi, ya'ni tashqi va ichki fazolar o'rtasida oraliq fazoviy strukturalar paydo bo'ladi. Xefron ibodatxonasida ma'lum tomonga yo'naltirilgan harakat davomida fazoviy hissiyotlar almashinib boradi ko'ndalang joylashgan birinchi zal simmetriya markaziga nisbatan qisqargan ikkinchi zalga ulanib ketadi. Bu zal yana tor yo'lak orqali ko'ndalang joylashgan katta hovliga olib chiqadi. Yopiq va qorong'i zaldagi birdaniga quyosh charaqlab turgan keng hovliga chiqish inson hissiyotiga kuchli ta'sir etadi. Deyr el Baxridagi ibodatxonalarda arxitekturaviy vositalar orqali Firavnning buyuklik g'oyasi ifodalangan. Ichki interyerga asosiy badiiy urg'u berildi. Haykallar va panduslar asosiy o'q chizig'ining ahamiyatini yanada kuchaytirdi, relief va haykallar bilan bezatilgan, devorlarga sayqal berilgan.

Qadimgi Yunoniston va Rim quldorlik davlatlari bo'lgani uchun ularning mafkurasida din, ya'ni inson ko'rinishdagi xudolarga, afsonaviy qahramonlarga va imperator shaxsiga sig'inish ustun turar edi. Bu davrda arxitektura yanayam rivojlandi. Bu davrning asosiy binosi ibodatxona hisoblangan. Ibodatxonaning funksional markazi "sella" xonasi bo'lib, unda ilohiy haykal qad ko'taradi. Ichki ustunlar galareyasi sellaning interyerini 3 qismga, ya'ni uchta "nef"ga ajratdi. Tantanavor ravoqlar, haykallar, ustunlar galereyasi harakat yo'nalishini yanada bo'rttirib ko'rsatgan. Zinalar bilan ko'tarilgan "podium" ustiga joylashtirilgan ibodatxonalar shahar markazida qurilgan. Masalan, Panteonni olsak, uning ichki fazosi bir muncha kengaytirilgan, ya'ni katta silindr shaklidagi zal va yarim sfera shaklidagi gumbaz barcha xudolar haykallarini va ko'p sonli odamlar guruhini bir vaqtning o'zida mujassam eta olgan. Gumbaz osmon ramzi sifatida talqin etilgan. Diametri va balandligi 43,5 metr. Rim arxitekturasida tomoshabop binolar ommaviylashadi. Ularga Rimdagi Kolizey, Afinadagi Dionis teatri, Efesdagi teatr va boshqalar. Antik davr arxitekturasida ko'p burchak, aylana, silindr, yarim sfera kabi yangi shakllar qo'llanildi. Devor yuzalarini order tizimi bilan bezash uslubi

paydo bo'ldi. Orderlar ham konstruktiv element, ham dekorativ element sifatida qo'llanila boshlandi.

Yevropada o'rta asr davri ming yildan ortiqroq davom etdi.(5 - 17 asrlar)Feodal tuzum yer egalarini hukmron sinf sifatida belgilagan edi.Cherkov ruhoniylari birinchi o'rinda turardi.Cherkov faqat Oллоhga ibodat qiladigan joy emas, balki hukmron va jamiyat hayotining boshqa tomonlarini, masalan, qirolga toj kiydirish, tantanali ibodat marosimlari, diniy qo'shiqlar aytish,rohiblikni qabul qilish kabi faoliyatlarini amalga oshiradigan jamoat binosiga aylandi.



Xristian dini 2 ko'rinishdagi e'tiqodga bo'linadi: pravoslav va katolik. Bu ibodatxonalar shakllanishida o'z ifodasini topgan. Pravoslav e'tiqodi Vizantiya imperiyasi va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan.11 - 12 asrlarda Rossiyada cherkovlarni 3ta nefli binolardan foydalanilgan. O'rtadagi nef kengroq va balandroq bo'lgan. Gorizontalgacha nisbatan vertikal yo'nalishda ko'proq rivojlantirilgan. O'rtada krest va gumbazga ko'proq urg'u berilgan.Kievdag Sofiya sobori ichidagi devorlar toj bo'yicha diniy mazmunni ifodalaydigan syujetli tasvirlar bilan bezatildi.Toshdan ishlangan to'suvchi konstruksiyaning massivligi interyerga og'ir vaznlilik ta'surotini beradi. Bino va inshootlar interyerlarining rivojlanish tarixida Yevropada boshlangan yangi zamon (XV-XIX asrlar) arxitekturasini ancha sezilarli va o'chmas iz qoldirdi. Bu davr jamiyatning ijtimoiy hayotida kapitalistik iqtisodiy munosabatlarning namoyon

bo'lishi bilan xarakterlanadi. Shungacha bo'lgan besh asr davomida badiiy stilli izlanishlarning umumiy asosini antik arxitektura tajribasi va uning orderli sistemasi tashkil etdi. Bunday holat XV-XIX asrlar arxitekturasi uchun "o'tmishdagi antik arxitektura" deb nomlangan umumiy atama (termin) bilan ifodalanadi. Ar'xitektura tarixida bu davr bir nechta bosqichlar bilan bog'langan, bu bosqichlarda o'ziga xos fazoviy xarakteristikalarining ishlab chiqilishi bilan ular bir-biridan farqlangan va bu xarakteristikalar renessans, barokko, klassitsizm va eklektizm stillarida asta-sekinlik bilan bir-birlarini almashtirgan holda namoyon bo'lgan. Arxitekturada antiklikning qayta tug'ilishini obrazli go'zalik (ko'rkamlik)ka erishishning umumiy badiiy prinsipi sifatida tushunish mumkin.

Boy yashash uyi qayta tug'ilish davridagi inshootlarning yetakchi tipiga aylandi. Xususiy uy yashash va ko'plab ijtimoiy funksiyalarni bajarish bilan bilan uy egasining ijtimoiy xarakteristikasini belgilaydigan mulkka aylana bordi. Uyda qabul qilish xonalari, devonxona, ballar o'tkazilishi va artistlarning chiqishlari uchun zallar, kartinali va haykaltaroshlik (skulpturaviy) galereyalar va shunga o'xshash xonalar joylashtirildi. Yashash uyining ya'ni turar-joy binosi funksional mazmun-mohiyatining murakkablashishi unga mos keluvchi fazoviy strukturalar va uning badiiy yechimini qidirib topish uchun turtki bo'ldi. XVII asrdagi barakko badiiy prinsiplarining ta'siri o'ziga xos tarzda palasso strukturasining shakllanishida o'z aksini topdi. Funksional jihatdan mustaqil hajmiy-fazoviy guruhlar bo'yicha xonalarining kardinal chegaralanishi ro'y berdi, bunda xonalar tantanali, xizmat ko'rsatuvchi, yashash xonalariga guruhlandi.

Kompozitsion – fazoviy yadro tantanali xonalar guruhini tashkil etdi, ular bosh o'qqa nisbatan simmetrik tarzda joylashtirildi. Turli fazoviy shakldagi zvenolardan tashkil topgan bu guruh xonalarining zanjiri tomoshabinning harakatlanishi davomida ochilib berdi.




Binoning interyerida alohida xonalarning “davomiy” chiziqlardagi oval, ellips, devorlarning egri chiziqli burchaklari va plafonlar hamda boshqa faol plastik shakllari (formalari) muhim rol o‘ynadi. Shakli (formasi)ning dinamikligi (o‘zgaruvchanligi), zinapoya yo‘lak (marsh)larining turlicha uyg‘unlashuvi, harakat yo‘nalishining almashinuvi va og‘maligi (gorizontal tekislikka nisbatan og‘ish burchagi)ning kattaligi bilan ajralib turuvchi “tanta’novar” zinapoyalar harakatlanish ramzi sifatida alohida muhim ahamiyat kasb etdi. Zinapoyalar mavzusiga oid savol va masalalar barakko stilida arxitekturaviy nuqtai-nazardan juda yaxshi yechilgan va hattoki u badiiy haykaltaroshlik darajasigacha yetkazilgan

XIX asrning oxirlarida Yevropa qit’asi mamlakatlarida yangi arxitekturaga o‘tishda keskin burilish sodir bo‘ldi. Vaqt o‘tishi bilan ratsionalistik an’analar yangi konstruktiv sistemalar, samarali qurilish materiallari va qurilishda ishlab chiqarishning va uni tashkil etishining yangi metodlarining ixtiro qilinishiga olib keldi. Arxitekturaviy asarlarning shakl hosil qiluvchi asosi estetik talqinlarni olib tashlashga emas, balki funksiya, material va shaklning organik bog‘lanishi haqidagi g‘oyalarni oldinga so‘rish bilan yuzaga chiqdi. Bunda insonning to‘laqonli hayotiy faoliyat yuritishi uchun funksiya tushunchasi optimal psixologik iqlim sharoitiga yanada kengroq kiritila boshlandi.

Arxitektura rivojlanishning bu davri, ayniqsa, yangi yo‘nalish-modern stilining kiritilishi bilan alohida xarakterlanadi. Bu stil yangi arxitekturaviy yo‘nalish sifatida birinchi bo‘lib, avvalgi an‘analar bilan bo‘lgan aloqalarni o‘zdi va “zamonaviy” arxitekturaning vujudga kelishiga zamin tayyorladi. Bu yo‘nalishda inshootlarning yangi tiplari (ko‘rgazmalar, savdo-sotiq binolari va boshqalar)ni yaratishda funksional-texnologik tashkil etish jarayonlari hal etuvchi ta’sir ko‘rsatdi. Universal do‘konlar, banklar, vokzallarning zallari keng va yorug‘ qilina boshlandi, vokzallardagi perronlar va yo‘lovchilarning o‘tish jolari, vagonlarga chiqish oldidan to‘radigan joylari oyna bilan qoplanadigan metaldan ishlangan svodlar bilan to‘siladi. Elementlarning o‘zaro bo‘ysinishini talqin etadigan chiziqli-perarxik prinsipi o‘rniga fazoviy arxitekturaviy tashkil etishning asosi sifatida kompozitsiyada elementlarning teng bo‘lish mumkinligi haqidagi xonalarni mantiqiy-funksional guruhlanishi to‘g‘risidagi ta’surotlar kirib keldi. Yangi materiallar: - metall, oyna, keramika va interyerni pardozlash bo‘yicha boshqa materiallardan foydalanish doirasi prinsipial kengaydi.

Modern stilida dekor (pardozlash, bezash)ning ikki turi mavjud. Birinchisi- “funksiyaviy”-konstruktiv va utilitar elementlar bilan:




Puxta tuzilgan rejaviy strukturali bino namunasi.
Rotterdamdagi birja rejasi.

deraza va eshiklar oraliqlarini ramalashtirish, zinapoyalarni to‘shish, potoloklarning fermalari va konstruksiyalarining tayanchlari bilan ifodalanadi. Ularning shakllari badiiy-plastik va rangli yechimlarning variatsiyasi uchun asos sifatida


qo‘llanildi. Dekor (pardozlash, bezashning) ikkinchi turi-bu tasviriy, grafik va rang-tasvirdan iborat bo‘lib, ular yordamida devor, potolok, detallarning tashqi sirt yuzalari bezatiladi. Ornament odatda tekislikka tasvirlanib, uning fakturasi rivojlantiriladi yoki tashqi pardoz sifatida namoyon bo‘ladi, hamma hollarda (vaziyatlarda) modern dekori ustunlikka ega bo‘lgan ravishda ornamentlidir va u

arxitekturaviy muhitning yagona stilistik bus-butunligini tasvirlashga yo'naltirilgan.

To'suvchi konstruksiyalar tekisligining kompozitsiyasida bitta yoki har xil materiallar (shtukatura, yog'och, tosh, metal, oyna va h.k.) fakturasining kontrastli taqqoslanishi faol qo'llanildi. Rangli uyg'unlashtirish ham boyitildi.



Mebellar va eshiklarning birgalikdagi stilistikasiga misol.




Djester uyining loyihasi (F.Rayt).

chuzilishidagi o'zgarishlar o'tgan asrning boshlarida quyilgan stilning yangiligi sifatida e'tirof etildi.

“Erkin reja” xonalar shakllarida bo'lgan avvalgi bir xillilikni bartaraf etdi, ichki kengliklarni “oquvchan” biriktirish ularning plastik sifatlarini kengaytirish imkoniyatini ochib berdi.

Rivojlanishning keyingi bosqichida (30-yillar) iqtisodiy tashkil etish masalalari (muammolari) yechilishi ichki kengliklarning yagona hajmga konsentratsiya qilinishga (birlashtirishga) olib keldi. Kolonnalar bilan bog'lanmagan holda ya'ni ancha erkin tarzda peregorodkalarining qo'yilishi, ular joylashish tekisligining




A

Б

Madaniyat markazi.

A-reja, B -interer



Keyingi boqichlarda shakliga ko'ra bitta hajmli bo'lgan strukturalarning rivojlanishi ro'y berdi, bunday rivojlanish ayniqsa jamoat binolarida yaqqol namoyon bo'ldi. Zamonaviy arxitekturada yangi qurilish va pardozlash materiallarining keng assortimentda jadal sur'atlar bilan ishlab chiqarilishi interyerlarning pardozlash priyomlari va metodlarining sezilarli darajada kengayishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda yashash uylarida interyerlarning pardozlanishi va bezatilishi ko'p jihatdan ularni barpo etuvchilarning didlari va g'oyalariga bog'liq bo'lib, bunda ularni shakllantirishning yetarlicha mantiqiy (logik) asoslanganligi va ularning xuddi shu tarzda asoslangan ko'plab variantlari ko'zatildi.

Blis-so'rov savollari

1. Interyer va jihozlash fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat ?
2. Qadimgi Misr arxitekturasi eramizdan necha yil avval boshlangan?
3. Qadimgi Yunoniston va Rim quldorlik davlatlari arxitekturasida qanday g'oyalar ifodalangan?
4. Modern stilidagi dekorning qanday turlari mavjud?

INTERYERDA USLUBLAR SHAKLLANISHI. KLASSIK USLUBIDAGI INTERYERNING O‘ZIGA XOS TOMONLARI. HOZIRGI ZAMON INTERYER USLUBLARINING SHAKLLANISHI

Klassitsizm (lot. klassius — namunaviy) — antik davrda o‘z rivojining yuqori chuqqisiga erishgan qad. Yunon va Rim san’ati merosida shaqllanib, unga taqlid qilish natijasida yuzaga kelgan adabiyot va san’atdagi uslub, yunalish. K. tarafdorlari 17—19-asrlarda Fransiyada, keyinroq Yevropaning boshqa mamlakatlarida Uyg‘onish davri an’alarini davom ettirgan holda (inson aql zakovatiga ishonish, antik davr yaratgan ideal mutanosiblikni va nisbatlarni tan olish va e’zozlash), uz zamonasining ijtimoiy hamda estetik talablariga javob tariqasida vujudga kelgan. Antik davr mifologiyasi (rivoyatlari), tavrot voqealariga murojaat qilib, ulardan olingan syujetlar orqali uz davrlarining etnik — axloqiy va siyosiy muammolarini kutarishta harakat qildilar. Klassitsizm ham umumlashma asar yaratish asosiy masala hisoblanadi, asarlar birmuncha vazmin, ritm va nafis musiqaviylikka intilish asosida yaratildi. Odatda, klassitsizm rivoji tarixi 2 bosqichga ajratiladi. 17-asr Fransiyada shakllangan klassitsizm uzida absolyutizm g‘oyalarini ifodalagan bulsa, 18-asrga kelib klassitsizm yangi dunyoviy ideallar, ma’rifatparvarlik g‘oyalari va oddiy xalq orzu-istaqlari va intilishlariga asoslangan ideallarga tayangan holda rivojlandi. Klassitsizmga xos belgilar dastlab Italiya nafis san’atida (16-asrning 2-yarmi) paydo bulgan (A. Palladio, J. Vinola, S. Serlio, J. Bellori nazariy va amaliy faoliyatida, shuningdek, Bolonya akademik maktabi rasmiy hujjatlari va h.k.), 17-asr ga kelib Fransiyada barokko tamoyillariga qarshi kurashda klassitsizm ildamlab, yaxlit uslubiy tizimga, 18-asrga kelib umumevropa uslubiga aylandi.

Me’morchilikda klassitsizm uslubida qurilgan me’moriy kompozitsiyalarda me’morchilik orderlari tizimi muhim rol uynadi. Klassitsizm me’morlari kupincha order va ularning nisbatlari hamda shaqllarini antik davrdagiga xos kurinishda ifodalashga harakat qildilar. Klassitsizm me’morchiligida shaqllar jiddiy va sipo, fazoviy kenglik yechimining aniqligi hamda me’morlikda ishlatilgan unsur (kolonna, pilyastr, friz, karniz va boshqalar)larning aniq, ritmga

buysunganligi, rang va shaql ritmining aniqligi bilan harakterlanadi. Klassitsizm uslubida qurilgan bino interyerlari (xona, dalon, zal va boshqalar) ham uz badiiy yechimi bilan ajralib turadi. Xonalarda qullanilgan rang , shaql va chiziqlar "aql bilan tartibga keltirilganligi" o'ziga xosdir. Sipo, jiddiy ishlangan bezaklar qam undagi jiddiylik va vazminlikka xalaqit bermaydi. Klassitsizm me'morlari antik davr merosidan, uning me'morlik unsur va ohanglaridan keng foydalanish bilan birga ularning umumiy arxitektonika qonunlari mohiyatini bilishga ham harakat qiladilar.

Klassitsizm me'morligining asosiy uslubi bulgan order tizimi antik davr me'morchiligi order tizimiga yaqin va shu bilan birga yangi davr ruhi bilan sug'orilganligi ko'zga tashlanib turadi. Bu xususiyat nisbat va shaqlarning uzgarmagani holda birmuncha nafislashgani, bosiqliigi hamda texnologiyasi (tosh, beton, temir va boshqalar), ustun va tusin yaratishda ishlatilishi hamda K. binolarining interyerlari ham uziga xosdir. Ularda ishlatilgan shakl, ranglar mayin, fazoviy kenglik bo'linishlari aniq. Mahobatli moybo'yoq rassomligi ham Klassitsizm interyerlarida keng ishlatilgan. Unda rassomlar istiqbolning illyuzion imkoniyatlaridan unumli foydalanganlar. Bu rasmlar bino umumiy g'oyaviy-estetik mazmuniga hamohang bulib, klassitsizm me'morligiga xos ulug'vorlik va salobatlilik tomonlarini yanada burttirishga xizmat qildi. Shaharsozlik Uyg'onish davri va barokkoga xos xususiyatlarga tayangan holda rivojlanib shakllandi. "Ideal shahar" yuriqnomasi ishlandi (Versal), 18-asrning 2-yarmida planlashtirishning yangi uslubi shakllandi. Shahar qurilishida binolarni tabiat bilan uygunlashtirishni ta'minlash, keng ochiq maydonlar tashkil etish, ularni kucha va daryo (anhor) yoqalari buylab qushib ishlash boshlandi. Shaqlarning maqsadga muvofiqligi, ixcham bezaklarning nozikligi, tabiat bilan uygunligi 18—19-asr boshlarida "palladiochilar" ijodida uz aksini topdi (shahar va shahardan tashqaridagi saroy-uylar va villalar).

18-asrning 30—50-yillarida Rus klassitsizmi Garbiy Yevropa klassitsizmining asosiy xususiyatlarini saqlab qoldi, unda ma'rifatparvarlik g'oyalari, norozilik mavzulari, kamchiliklarni hajv qilish keng o'rin egalladi.




Barokko (ital. baroo — ajib, g'alati) — XVI asr oxiri — XVII asr o'rtalarida Yevropa va Amerika san'atidagi asosiy uslublardan biri. Yevropada millat va milliy davlatlar jadal shakllanayotgan davrda Uyg'onish davri badiiy madaniyati va sub'yektiv his-tuygularni ifodalovchi manerizm urniga vujudga keldi. Aristokratiya va cherkov bilan bog'liq bulgan barokko san'ati ularning shon-shuhratini oshirishga hamda targib etishga qaratilgan edi. Barokko san'atiga antifeodal chiqishlar, milliy ozodlik harakatlari o'z ta'sirini ko'rsatib, unga demokratik isyonkorlik ruhini kiritdi. Dabdabaga moyil bo'lgan barokko dunyoning yaxlitligi, cheksizligi, murakkab va rang-barangligi, doimiy o'zgaruvchanligi haqidagi yangi tasavvurlarni, insonni o'rab turgan muhit va boshqalarga bo'lgan qiziqishlarni aks ettiradi; unga keskinlik, obrazlarning harakatchanligi, his-tuyg'ular kurashining shafqatsizligi, tantana va ulug'vorlikka intilish, mavjud borliq bilan hayoliy orzuni uyg'unlashtirish, san'atlar uyg'unligiga intilishlar xos.

Barokko uslubida qurilgan me'moriy majmualar fazoviy yechimi, mayda me'moriy bezaklarga mulligi va yagona g'oyaga buysunishi bilan ajralib turadi.

Me'morlar shahar kucha va maydonlariga, u yerdagi mavjud qurilishlarga ulug'vorlik berish uchun turli optik va boshqa qonunlarga murojaat qiladilar, teskari perspektiva qonunlaridan foydalanadilar. Tasviriy san'atda diniy, mifologik va majoziy mavzulardagi bezak mujassamotlar, tantanavor dabdabali portretlar keng o'rin egallaydi.

Barokko Italiyada shakllanib rivojlandi. Me'mor va haykaltarosh L. Bernini, me'mor F. Borromini, G. Gvarini, rang-tasvirchi demokratik realizm yulboshchisi Karavaj, akademizm yulboshchisi aka-uka Karrochilar, devoriy rang-tasvir ustalari J. B. Tepolo va boshqa shu san'at rivojiga katta hissa qushdi. Flandriyada P. P. Rubens, A. van Deyk, Ya. Yordane, F. Snayders ijodida barokko tulaqonli va hayot haqiqatiga yaqin holda rivojlansa, Ispaniya, Portugaliya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida mahalliy hayot va an'analar ta'sirida uziga xos yo'nalishni shakllanishini ta'minladi. Fransiyada klassitsizm bilan uyg'unlikda o'ziga xos jimjimadorlik kasb etdi. mustahkamlanib borishi bilan rivojlandi. Peterbur, Moskva shaharlari, shahardan tashqarida yaratilgan shoh va zodagonlarning uy va saroylarida shu davr ruhi o'z ifodasini topdi: Petr II saroyi (Petergof), Sarskoe Selo (Pushkino shahri), Peterburgdagi qator saroy, monastir va soborlar (Qishki saroy, Smolnii monastiri Rossiyada 18-asr 1-yarmida Petr 1 islohotlari va dvoryan monarxiyasining i va boshqalar) shular jumlasidan. Me'morlardan V. Rastrelli, D. Uxtomskiy, S. Chevakinский va boshqalarning hissasi katta. Tasviriy san'atda dunyoviy mavzular, davlat arboblarning tantanavor, kutarinki ruhdagi dabdabali portretlarida uz ifodasini topdi. K. Rastrelli haykaltaroshlik asarlari, I. Nikitin, A. B. Antropov rang-tasvirlari shular jumlasidandir.

Barokko Italiyada rivojlanib Yevropaga keng yoyildi. Keyinroq esa yevropaliklar bosib olgan qit'a va mintaqalarga ham bu san'at ta'siri kirib bordi. Amerika, Osiy, Avstraliyada barokko usulida yaratilgan asarlarning mavjudligi shundan. O'rta Osiyoda rus istilosidan keyin qurilgan me'morchilik majmualarida, jumladan saroy, sobor va monastirlar binolarida shu san'atning ta'siri va belgilari mavjud.



Muqaddas Pyotr sobori. Rim (1547–1564-yillar).

Italiyada barokko san'ati XVII asr o'rtalariga kelib, Italiyadagi ijtimoiy qarama-qarshiliklar feodal-katolik kuchlarining g'alabasi bilan tugadi. Davlat bo'linib ketgan, iqtisodiy jihatdan tang ahvolda edi. Italiya, Fransiya ("Fransiya" haqida referat) va Ispaniya kabi kuchli mamlakatlar hujumiga bardosh bera olmadi. Uzoq kurashlardan so'ng Ispaniya g'olib chiqdi. Shu paytdan boshlab (1559-y.), Italiya taqdiri Ispaniya bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. XVIII asrda Italiya san'atining umumiy xarakteri tarixiy rivojining xususiyatlari bilan monand. Italiyada barokko san'ati paydo bo'lib, taraqqiy eta boshladi. Barokko Italiya san'atidagi yetakchi yo'nalish bo'lsa ham, XVIII asrda boshqa oqimlar ham mavjud edi. Undan tashqari, realistik oqim ham taraqqiyparvar va demokratik g'oyalarni, xalq fikrini yorituvchi san'at yo'nalishi sifatida Italiyaning barcha yirik shaharlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. XVII asr Italiya monumental arxitekturasini katolik cherkov va aristokratlarning hamma ehtiyojlariga mos tushadi. Shu paytda asosan ibodatxona va saroylar qurilishi rivojlangan Rimdagi faoliyati davrida Annibale Karrachi tomonidan yaratilgan kartinalar asosan diniy syujetlarga bag'ishlangan. Shakllarning sovuq ishlanishi hissiy tuyg'ularga o'rin qoldirmaydi. Annibalening tasviriy uslubi figuralarni aniq egiluvchar chiziqlar orqali tasvirlashdan iboratdir. „Iso qabri oldidagi tinchlik keltiruvchi ayollar" asari shu xildagi asarlarning eng o'ziga xosidir. Karrachi

manzarani „klassik" uslubda tasvirlovchi san'atkor bo'lib qoladi. Mikelanjelo Merizi da Karavadjo (1574-1610) nomi bilan bog'liq bu oqimning asoschisi yoshligidanoq maishiy janr ustasi sifatida taniladi. Uning „Ud chaluvchi" asari ijodining dastlabki yillaridagi xarakterli ishlaridandir.

Rokoko.

XVIII asr boshlarida Fransiyada klassika bilan bir qatorda rokoko rivojlana bordi (fransuzchadan «rokayl» rakovina ma'nosini beradi). Ushbu uslub ayniqsa o'zini interyerlarda namoyon qildi. Interyerni bezashda bino konstruksiyalari maskirovka qilinadi, ya'ni yashirinadi. Kuchli ornament o'ymakorligi, asimmetrik o'simlik shakllari, rakovina, girlyandalar. Har xil bronza, tosh, oyna, rang, tasvirlardan foydalanilgan, tilla ranglar ishlatilgan.

Bunj otel de Sibiz (1730-y) chiroyli bezatilgan bo'lib, interyerdagi devorlar geometrik ritmi teskari qo'yilgan, eshik va derazalar chetida kichik haykaltaroshlik namunalari ishlatilgan. Rokoko uslubining umri uzoqqa bormadi. XVIII asr o'rtalariga kelib, yana klassitsizm o'z aksini topdi. Endi qadimgi Gresiya me'morligidan foydalanildi. Tarhlar deyarli kvadrat shaklda bo'lib, marmardan foydalanilgan.





Interyer loyihalarini chizishda eng muhim narsa, uning kompozitsion yechimini to'g'ri topishdan iborat bo'lib, turar joy bino interyerlari uchun o'ziga xos kompozitsion yechim, jamoat binolari interyerlari uchun esa o'ziga xos kompozitsion yechim topish talab etiladi. Masalan: turar joy bino interyerlari misolida ko'rib chiqaylik. O'zimiz yashab turgan uyimizda har xil xonalar bor. Mehmonxona, ish xonasi, yotoqxona, oshxona, bolalar xonasi va h.k. Mehmonxona hammamiz uchun eng muhim xona sanaladi. Mehmon kutish bizga avlodlarimizdan me'ros bo'lib kelayotgan azaliy urf-odatlarimizdan bo'lib, mehmonlarni yaxshilab kuzatishga harakat qilamiz. Shuning uchun ko'p e'tiborni unga qaratamiz. Mehmonxona uchun nafis kompozitsion yechim topilishi kerak. Shift va devorlardagi kompozitsiyalarda o'zaro uyg'unlikni topish kerak. Ya'ni ulardagi kompozitsiyalar bir-biriga bog'langan holda, bir maqsadga qaratilgan yoki bir mavzuni yoritib bera oladigan bo'lishi kerak. Bunda dizayner interyerni yaxlit tasavvur qilishi kerak. Bundan tashqari interyerda ishlatilgan materiallar, ularning ranglari muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday interyerni loyihalayotgan paytda e'tibor beriladigan jihatlar bor.

Modern.

Modern soʻzi fransuz tilida zamonaviy degan maʼnoni beradi. Modern oddiyligi, nozik chiziqlari, rang-barangliklari, yorqin ranglari bilan boshqalardan farq qiladi. Unda orderlardan butunlay voz kechiladi, simmetriyaga esa umuman yaqin kelinmaydi. Materillar beton, poʻlat, keramikadan iborat boʻlib bunga esa Germaniyada yashagan, asli kelib chiqishi belgiyalik Van de Velde sababchi boʻlgan. Ispaniyalik arxitektor A.Gaudi (1852–1926) esa hatto yuk koʻtarib turuvchi ustunlardan interyer bezagida foydalangan. Modern stilida asosan shahar va shahar tashqarisidagi turar joy binolari qurilgan. Amerika, Yevropa davlatlari Modern yoʻnalishida koʻp asarlar yaratdilar. Germaniyani Bauxauz nomli badiiy ishlab chiqarish bilim yurtida funksionalizm yoʻnalishi paydo boʻldi. Bunda sanʼat va texnikadagi asosiy eʼtibor jismning vazifasiga qaratilgan. Bu yoʻnalishda nemis arxitektori Mis Ven der Roe (1886–1969) fransuz arxitektori va nazariyachisi Le Korbyuze (1887–1965) ijod qilgan.

Blis-soʻrov savollari

1. Interyerda uslublar shakllanishi deganda nimani tushunasiz?
2. Klassik uslubidagi interyerning uziga xos tomonlari nimalardan iborat?
3. Hozirgi zamon interyer uslublari shakllanishi qay tarzda amalga oshirilgan?
4. Zamonaviy interyer uslublaridan qaysilarini bilasiz?

MARKAZIY OSIYO HUDUDIDA INTERYERLI MUHITNI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI. XALQ TURAR-JOYLARINING BEZAKLARI VA FUNKSIONAL ELEMENTLARI. TOM VA SHIFT BEZAKLARI

Markaziy Osiyoda islom dini o‘rnatilgunga qadar ham xona dekorativ bezagiga aloxida e‘tibor berilgan. Dekorativ bezak ko‘proq monumental tasviriy saxnalar ostida devorning izora qismida ishlangan. Ilk o‘rta asrlarda yog‘och va ganch o‘ymakorligi dekorativ bezakda keng qo‘llanilgan. Panjikent, Varaxsha saroylarida yog‘och, ganch yuzaga qaxramonliklarni ifodolovchi saxnalar romb, doira, to‘rtburchaklar ichiga olingan. Ular nafaqat bir saxna epizodini chegaralovchi xoshiya vazifasini bajargan, shuningdek, bir xil mavzudagi o‘simliksimon naqshli yuzani boyitish uchun, o‘sha naqsh yuzasida ora-orada yoki uning markazida joylashtirilgan xolda xam kelgan.

O‘rta asrlarda gulganchdan murakkab naqshlar ishlangan. Bunga Termizdagi shohlar saroyi devor va ustunlarining saqlanib qolgan qismlari guvohlik beradi. Unda geometrik va o‘simliksimon kompozitsiyalar joylashgan o‘rniga qarab, bir necha qator naqsh va bezaksiz keng chiziq kabi hoshiyalar bilan turli tuzilishdagi ramkalarga olingan. Bu tadbir devor yuzasidagi naqshli pannoning kompozitsiya jihatidan tugatilishini ta‘minlagan va turli mavzudagi naqshin yuzalarni yaratish imkoniyatini beradi. XII-XIII-asrlarda, xususan ma‘muriy, diniy obidalar interyerida g‘ishtin bezak keng qo‘llanilgan. G‘ishtlarning turli kompozitsiyada, juft-juft, oraliq‘ida tik holda, archasimon, ya‘ni bir qator o‘ng tomonga, ikkinchi qator chapga qiya yo‘nalishda qalanishi, obida interyerida mayin bezakka ega badiiy kompozitsiyani tashkil qiladi.


Markaziy Osiyo me‘morchiligi dekorativ bezagida XIV-asrdan boshlab ganch, yog‘och o‘ymakorligi, rangli bezak bilan bir qatorda mozaika, mayolika keng qo‘llaniladi. Mozaika, mayolika, marmar yuzalar madrasa, saroy, xonaqoh, masjid, maqbara interyeri bezagida ko‘proq ishlatiladi. Marmar toshli yuzalar devorning izora qismini pardozlashda va interyerda dekorativ ustunchalar hamda

sharafalar ishlashda qo'llanilgan. Buxorodagi XVI-asrga oid Baland masjidi badiiy bezagini o'rgangan olim I.F.Borodina, masjid interyeri devorida ishlangan naqshlarning joylanishini, an'anaga aylangan sxemaga binoan bezatilgan, ya'ni devorning pastki qismi izora, undan yuqorida tokcha yoki dekorativ bo'linma va devor bilan shiftni bog'lovchi keng yog'och egallagan, deb ta'kidlaydi. Naqshlar xona devoriga quyidagi tartibda joylashtirilgan: 1 xona interyerida yaxlit yuzani egallagan bo'lib, 2 to'rtburchak yoki ravoq ichiga olingan yuzaga ishlangan; 3 kirish ravoqlari, ravoq qanoslari va mehroblar ichiga olingan holda, 4 izora sifatida ishlangan holda uchraydi.




Xona devori baland bo'lgan taqdirda tokchaga monand baland bo'linma yuzaga kelgan. Bunday bo'linma uchga taqsimlangan, ya'ni uning pastki qismi to'rtburchak tuzilishidagi tokchaga ajratilgan, bo'linmaning yuqori qismi esa baland sharafa qatorlari bilan tugatilgan. Pastki tokcha devori yuzasiga yon tomonlarga kengaytirilgan butoq yoki guldasta tasviri ishlangan. Baland bo'linma devori rangli chiziq bilan ikkiga taqsimlangan. Pastki baland qismida uzun guldasta tasviri, yuqori qismidagi yuza rangli chiziqlar yordamida 7-8 yuzachalarga taqsimlanib, har biriga bittadan guldasta gul tuvagi bilan yoki butoq tasviri ishlangan. Bunday tartibdagi naqsh taqsimotini V.L. Manakova o'rgangan XIX asrga oid Buxoro turar joyining yozgi xona devorida ko'ramiz. Turli hajmdagi tokchalarga taqsimlangan devor kompozitsiyasini badiiylashtirish uchun devorning 23 joyida simmetrik tuzilishda tekis bo'linma yoki katta tokcha qoldirilgan va ularga guldastalar tasviri ishlangan. Bu tadbir bilan devor yuzasidagi mayda tokchalar naqshli katta yuzalar yordamida kompozitsiya jihatidan umumlashtirilgan. Xalq turar joy me'morchiligida nafaqat devor yuzasidagi naqshlarni, balki xona umumiy ko'rinishi naqshu nigorini

kompozitsiya va badiiy jihatidan umumiyashtirishga katta e'tibor berilgan. Tokchaband va naqshu nigorlangan to'rdagi devor o'zining boy badiiy bezagi bilan xonaning ikki yon tomonidagi devorlarini bir kompozitsiyaga bog'lashga erishilgan. Umuman, devor yuzasi naqshlarining hoshiya bilan turli hajmda tomonlari teng to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak, romb, uchburchak, doira kabi qismlarga bo'linishi va ulardagi naqshlarning bir yuiridan farq qilinishi, egilgan gullarga qarab ariqcha yoki yo'lak bilan chamanlarga ajratilgan gulzorni eslatadi. Xonaning har bir devorida naqshlar yaxlit yaxlit bir biridan farqli, lekin umumiy kompozitsiyaga bo'ysungan yuzani tashkil qiladi.



231-расм. Бухоро. Деворий нақш (С.Е Качурина, М.Н.Полетаева ўлчови ва чизмаси).




232-расм. Бухоро. Деворий нақш (С.Е Качурина, Н. Кузьменко ўлчови ва чизмаси).

Xona interyeri kompozitsiyasida rang barang naqshu nigorli devorlar, nafis bezakli shift va polga to'shalgan serbezak gilamlar birgalikda xona interyeri kompozitsiyasini badiiy jihatdan mutanosibligini va hamohangligini ta'minlagan. Xalq amaliy badiiy san'ati va me'morchiligida gul hamda o'simliksimon naqshlar bilan bir qatorda mevalar ham o'z aksini topgan. Anor bilan lola tasviri qadimiy Panjikent devoriy suratlarida, anorgul va anor naqshi XIX-XX asr uy joy me'morchiligida ko'p ishlangan. Anor ichidagi donachalari (mevasi) hosildorlik, anor bilan lola tabiatning uyg'onishi, bahor ramzini bildirgan. Markaziy Osiyo xalq amaliy san'ati buyumlarida, devoriy naqshlarda doira, girih, uchburchak, romb kabi naqshlar keng qo'llanilgan. Ularda ham ramziy ma'nolar bo'lgan. Jumladan, doira, girih, uchburchak singari shakllar ko'pincha xonadonni, kishini har xil ins jinslardan asrovchi ramziy belgi vazifasini o'tagan.

Markaziy Osiyoda islom dini o'rnatilgandan so'ng ham tirik mavjudotlar tasvirlari obidalarda ishlanganligi guvohi bo'lamiz. Jumladan, Samarqandda Sherdor madrassasi (1636 y.), Buxoroda Nodir Devonbegi madrassasi (1622 y.), Termizda shohlar saroyi (XII asr), Samarqandning Xo'ja Ahror majmuasidagi madrasada sher tasviri bo'lganligi sababli uni Sherdori Berun (XVII asr) deb atashgan. Olimlarimiz mazkur davrlarga oid tasvirlarda ham janrli sahnalarga bag'ishlangan mavzular bo'lganligini ta'kidlaydilar.

Jumladan, G.A.Pugachenkova, L.I. Rempel Samarqandda Amir Temur, Hirotda Shohruh, Isfaxonda Abu Said saroylarida shoh saroy amaldorlari portretlari, saroy hayoti, ko'ngilxushlik, harbiy yurishlar kabi sahnalar uslub jihatidan Markaziy Osiyoning XV – XVII asrga oid miniatyuralari maktablariga xos uslublarda ishlangan deb ta'kidlaydilar. Tasvirlarning aksariyati bir, ikki yoki uch personajlardan tashkil topgan. Me'moriy obidalar peshtoqlarida, xalq amaliy san'ati buyumlarida, xona devorlarida, badiiy matolarda sher va quyosh, bir mavjudotning ikkinchisiga hamla qilish sahnasi, daraxt, tog' echkisi, qo'chqor, parrandalar, yirtqich xayvonlar surati ishlangan. Ranglar ham o'ziga xos ramziy ma'noni bajargan. Jumladan, ko'k rang moviy osmonni bildirganligidan, moviy rangdagi gumbazlar osmonga o'xshatilgan. Qizil rang ham obidalar devorlarida keng qo'llanilgan. O'rta Osiyoda qizil rang g'alaba ramzi hisoblangan. Oq rang yorug'lik va yaxshilik, ezgulik ramzi bo'lgan. Interyerning salobati, badiiy bezak darajasi qanday turdagi imoratda bo'lishidan qat'iy nazar, qurdirayotgan yoki mutasaddi shaxsning ma'naviy dunyoqarashi, jamiyatdagi mavqei va iqtisodiy sharoitiga bog'liq bo'lgan. Shu jihatdan turli turdagi imoratlar interyerlarini asosan uch: oddiy, o'rta va murakkab turlarga bo'lish mumkin. Markaziy Osiyo turar joylari interyeri bilan tanishar ekanmiz, ularda asrlar davomida hayot kechirish uchun zarur sharoit yaratishga harakat qilinganligining guvohi bo'lamiz. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan dalillar xonalar tuzilishida qulaylik, bezagida badiiylik, xona kompozitsiyasida bahavolik, tantanavorlik, mutanosiblik bag'ishlagan ijobiy an'analarning asrlar davomida silliqanib, uzoq o'tmishdan bizning davrimizga qadar yetib kelganligidan dalolat beradi.



168-расм. Самарканд. Турар жой меҳмонхонасига тоқчабанд деворнинг марказий қисми (муаллиф чизмаси).

Blis-so‘rov savollari

1. Markaziy osiyoda islom dini o‘rnatilgunga qadar xam xonalar qanday bezatilgan?
2. XIV-asrdan boshlab Markaziy Osiyo me‘morchiligi dekorativ bezagida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
3. Markaziy Osiyo me‘morchiligi interyerida supalar, tahmonlar, ustunlar va panjaralar qanday qo‘llanilgan?
4. Hozirgi zamon milliy uslub haqida nimalarni bilasiz?

**INTERYER MUHITINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY
FAKTORLARI. INTERYERNI LOYIHALASHNING NAZARIY
ASOSLARI. FUNKSIONAL JIHATDAN MAQSADGA MUVOFIQLIK.
INTERYER YARATISHNING IJTIMOIIY JIHA TLARI. INTERYER
MUHITIDA ESTETIK TALABLAR**

Ichki fazoviy kenglikni tashkil etish masalalari va interyerning shakllanishini tugallagan arxitekturaviy kompozitsiya sifatida qator talablardan ajratish mumkin emas, chunki shu talablarning bajarilishi evazigagina bu kenglik vujudga keltiriladi. Katta mablag‘ va ko‘p hajmli inson mehnatini talab qiladigan qurilish sohasi hamisha ma‘lum maqsadlarni oldindan ko‘zda tutadi. Oila hayoti kechadigan turar joy, yosh avlod shakllanadigan dargoh maktab, xordiq chiqarish va madaniyat maskani bo‘lgan teatr va klub va nihoyat mehnat qilish joyi bo‘lgan sanoat binolari har safar alohida kenglikning yaratilishini talab etadi. Bu kenglik binoning bajaradigan vazifasiga bog‘liq holda, uning ichida sodir bo‘ladigan jarayonlarga muvofiq ravishda hosil qilinadi.

Arxitekturada qulaylik va go‘zallik bir-biridan ajralmaydigan tushunchalar qatoriga kiradi, shuning uchun ham ichki kenglikni yaratish qo‘yilgan topshiriqning jiddiy o‘rganilishini, u yoki bu jarayonlarning o‘tkazilishiga bog‘liq ravishda alohida bajariladigan barcha talablarni o‘rganishni, alohida xonalarni o‘zaro bog‘langanligi va harakatlanish grafiklarni hamda optimal rejim kriteriyalarini puxta va chuqur o‘rganishni talab yetadi. Faqat qo‘yilgan savolni kompleks tarzda yechish natijasidagina optimal fazoviy strukturani topish mumkin.

Xonalarning o‘zaro bog‘liqligi, jihozlar va ularni joydlashtirishga doir savollar, zarur bo‘lgan kenglikning o‘lchamlari va shakli(formasi), yoritish va aqustika-bularning hammasi ilmiy asoslangan talablar bo‘lib, ular jamoat va turar-joy binolarining har bir turi uchun alohida ko‘yiladi. Quyosh nurlaridan ximoya kiluvchi panjaralar, akustik potoloklar, yuqoridan yorug‘likni o‘tkazishga mo‘ljallangan fonarlar, amfiteatrli zallarning chizilishi(sirtqi chiziqlari) kabi

interyerning ko'p sonli zamonaviy arxitekturaviy shakllari takomillashgan plastik va fazoviy bo'lib, ular tasodifan paydo bo'lmaydi, balki u yoki bu jarayon o'tkazilishining funksional talablariga javob tariqasida yuzaga keladi.

Zamonaviy ilmiy bilimlar orqali aniqlanadigan xonaning funksional jihatdan maqsadga muvofiqligi unga birinchilar qatorida qo'yiladigan eng muhim va albatta bajarilishi lozim bo'lgan talablardan biridir. Zarur bo'lgan fazoviy kenglikni va xonalarning parametrlarini aniqlash. Buning uchun binolarda amalga oshiriladigan jarayonlarning alohida stadiyalari har tomonlama tahlil qilinadi, jihozlar tanlanadi va ularni kenglikka joylashtirish masalalari yechiladi. Jarayonning o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan optimal sharoitlarni yaratish. Buning uchun mikroiklimga tegishli talablar, yorug'lik hamda akustik komfortga qo'yiladigan talablarning bajarilishi, psixologik moslashish talablari va ularni amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganish zarurdir. Alohida xonalar va xonalar guruhlarini o'rtasidagi funksional o'zaro bog'liqlik sxemasini yechish. Buning uchun kenglikdagi hamma bog'lanishlar va harakatlanish grafiklari o'rganiladi, odamlar oqimi va zarur bo'lgan kommunikatsiyalar aniqlanadi.

Xonalar sistemasini joylashtirishning maqsadga muvofiqlik talablariga va estetik talablarga javob bera oladigan variantlarini aniqlash. Binolar kompozitsiyasini tanlash va uni ishlab chiqish uchun asos bo'lgan xona parametrlari va xonalar orasidagi bog'liqliklar sxemasi aynan bitta jarayonni uning mohiyatini o'zgartirmagan holda turli fazoviy kombinatsiyalarda tashkil etish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy ilmiy bilimlar orqali aniqlanadigan xonaning funksional jihatdan maqsadga muvofiqligi unga birinchilar qatorida qo'yiladigan eng muhim va albatta bajarilishi lozim bo'lgan talablardan biridir.



Zamonaviy ilmiy bilimlar orqali aniqlanadigan xonaning funksional jihatdan maqsadga muvofiqligi unga birinchilar qatorida qo'yiladigan eng muhim va albatta bajarilishi lozim bo'lgan talablardan biridir. Ichki fazoviy kenglikka qo'yiladigan bu murakkab va ko'p sonli talablarni umumiy holda loyihalash jarayonida ketma ket yechiladigan alohida savol va masalalar qatori sifatida tasavvur qilish mumkin. Arxitekturada ichki fazoviy kenglikni yaratish u yoki bu jarayonning o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lgan hamma alohida talablarning jiddiy o'rganilishi, harakatlanish grafiklari va alohida xonalarning o'zaro aloqadorliklarini o'rganish, maqbul mezonlarni o'rganishni taqozo etiladi. Faqatgina kompleks savollar yechimini topgandagina maqbul fazoviy struktura yaratilishi mumkin.

Qat'iy funksional yechimli interyerning misoli sifatida kutubxona interyerini keltirish mumkin. Elektronika instituti kutubxonasining o'quv zali juda ratsional yechimdagi interyerga ega. Derazalarning bo'lmaganligi tufayli gorizontaal yo'nalgan quyosh nurlari xonalarning ichiga tushmaydi. Bu bilan ko'zni qamashtiruvchi quyosh yorug'ligi va kitoblarning yonish ehtimoli bartaraf etilgan. Devorlar perimetri bo'ylab va o'quv zalining o'rtasida ochiq stellajlarning joylashganligi kitobxonlarning bimalol kitob olishlari uchun qulaydir.

Bu yerda tabiiy yoritish sistemasi markaziy fonar shaklida yechilgan bo'lib, u interyerning yeng yorqin xarakteristikasi hisoblanadi. Zalning o'rtasida kitob o'qish, dars qilish uchun stollar joylashtirilgan. Quyosh nurlaridan himoyalovchi panjaralar, akustik shiftlar, yuqori quvvatli fonarlar, amfiteatrli zallar kabi interyerdagi zamonaviy arxitekturaviy shakllarning ko'pchiligi plastik va fazoviy xarakteristikaga ega va ular estetik ta'surotlarning ifodasi sifatida to'satdan paydo bo'lmaydi, balki u yoki bu jarayonning o'tkazilishiga qo'yiladigan funksional talablarga javob tariqasida hosil qilindi. Shunday qilib, zamonaviy tasavvurlar mavqei bilan aniqlanadigan funksional maqsadga muvofiqlik unga qo'yiladigan bajarilishi lozim bo'lgan eng muhim talablardan birinchisidir.



Turar joy va jamoat binolarining ichki kengligiga qo'yiladigan talablar obektning bajaradigan vazifasiga, ya'ni uning nimaga mo'ljallanganligi bilan aniqlanadi va bu talablar doimiy yoki o'zgarmas deb hisoblanilmaydi. Bu talablar butun tarix davomida ob'yektlarning ijtimoiy mohiyatining o'zgarishiga bog'liq ravishda o'zgaradi va yangi talablar bilan to'ldirila bordi.

Ob'yektning nimaga mo'ljallanganligi yoki ob'yektning bajaradigan vazifalari orqali aniqlanadigan turar joy va jamoat binolarining ichki kengligiga qo'yiladigan talablar hamma vaqt ham doimiy bo'lavermaydi. Ular ob'yektning ijtimoiy mohiyatiga bog'liq ravishda vaqt o'tishi bilan o'zgaradi va yangi talablar bilan to'ldiriladi. U yoki bu jarayonlarning bajarilishini ta'minlash va ma'lum komfortni yaratishga qodir bo'lgan ichki kenglik jamiyat rivojining iqtisodiy va moddiy texnik darajasiga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir. Ijtimoiy talablar ichki kenglikning muhim tashkil etuvchilarini aniqlab beradi. Ichki kenglikka qo'yiladigan amaliy talablar ob'yektning ijtimoiy jihatlari bilan ham uzviy bog'langandir. Shuning uchun ham antik uy va o'rta asrlar saroyi, xorijdagi zamonaviy turar joy uylari va bizdagi jamoaviy turar joy uylari bir biridan keskin farq qiladi. Demak, xalq turmush darajasining ma'naviy va moddiy jihatdan o'sib borishiga muvofiq ravishda turar joy uylari ham takomillashib boraveradi. Shunday qilib, turar joyga qo'yiladigan amaliy talablar bir vaqtning o'zida unda istiqomat qiluvchilarning ijtimoiy mohiyati va turmush tarzini aks ettirib beradi. XIX asr oxirlari XX asr boshlarida ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, fan, texnika va jamiyat hayotidagi umumiy taraqqiyot, xalqaro hamda ichki ijtimoiy aloqalarning yanada ortishi binolarning yangi tiplarini yaratishni talab etadi, shuningdek, yangi xil va murakkab hayotiy talab va ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy muhitni yaratish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Mayda rastali savdo qatorlari o'rniga turli bo'limlarni birlashtirgan, keng fazoviy kenglikka ega do'konlar, yirik savdo firmalari vujudga keldi. Xalqaro ko'rgazmalarining yirik zallari, temir yo'l vokzallari, yopiq bozorlar kabi yirik iqtisodiy talablarga javob beradigan inshootlar barpo yetildi. Yagona fazoviy kenglik va erkin reja(plan) prinsiplari XX asrning ilg'or arxitektorlari tomonidan ishlab chiqildi va ular bu prinsiplarni o'zlarining loyihalarda amalga oshirishga urinishdi. Qat'iy chegaralangan alohida xonalar va joylar o'rniga yagona uzluksiz fazoviy kenglikni yaratish arxitekturaning etakchi prinsiplaridan biri hisoblanadi. Bu prinsipga ko'ra kenglikning izolyatsiya qilinishi faqat zarur bo'lgan hollardagina amalga oshiriladi. Faqat shu prinsipga asoslangan yagona fazoviy

kenglik orqaligina gorizontal yo‘nalishda bo‘lgani kabi vertikal yo‘nalishda ham xonalardan xonalarga erkin o‘tishni taminlash mumkin. Tabiatga, maydonga, shaxarga keng ochiq hollarda fazoviy kenglik, tashqi muhitdan ajratilgan, yoriq xonalardan farqli o‘laroq jamoat binolari arxitekturasinig eng umumiy xarakteristikasi hisoblanadi. Turar-joy va jamoat binolariniig interyerining ijtimoiy asoslari o‘zining savollar doirasiga iqtisodiy masalalarni ham kiritadi. Keng ma’noda iqtisodiy muammo jamiyatning imkoniyatlari va ehtiyojlari bilan xarakterlanadi, bunda asosiy maqsad inson hayotining farovon bo‘lishi uchun barcha qulayliklarni yaratish, bosh maqsad esa inson haqida qayg‘urishdir.



Iqlimiy va tabiiy sharoitlar, landshaft shuningdek shaharsozlik konsepsiyasi ham ichki kenglikning shakllanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi, ba’zan esa ular hamma talablar ichida hal qiluvchi talabga aylanadi. Qurilish joyining mavjud sharoitlari interyer shakllanishining aniqlovchi asoslaridan biri sifatida ko‘rib chiqilishi lozim. Iqlim qator vaziyatlarda interyerning shakllanishida hal qiluvchi faktor bo‘ladi, ayniqsa chekka Shimol yoki Janubda u katta ahamiyat kasb etadi, chunki bu hududdagi optimal sharoitlarni ta’minlaydigan sun’iy mikroiqlim yaratilishi orqali yaratiladigan qulay sharoitlardan keskin farq qiladi. Chekka Shimol rayonlarida doimiy muzlik bo‘lib, Norilsk, Yakutskda va boshqa

joylarda harorat 60⁰S gacha yetadi, shamol tezligi 5m/sek. va undan yuqori bo'ladi, shuning uchun yashash komplekslarning maksimal kompaktli bo'lishi, jamoat binolarining yashash joylariga yaqinlashtirilishi, ularni bir hajmda birlashtirish orqali bitta yopilma ostida tashkil etish yoki hech bo'lmaganda galareyalar bo'yicha jamoat binolariga yoyilib borishini ta'minlash talab etiladi. Bu galareyalar odamlarning 50 - 60 ⁰S sovuqda ko'chaga chiqmasliklarini ta'minlaydi. Uzoq qish oylarida qor ostida yashirinib yotgan bir zumlik shimol o'simliklari insonga janubdagi tabiatdek ijobiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Bu masala interyerda sun'iy landshaftni yaratish, tabiat burchaklarini hosil qilish bilan o'z yechimiga ega bo'ladi. Janub sharoitlaridagi qurilish ham o'z talablaridan holi emas, bu talablar ichida to'g'ridan to'g'ri tushadigan quyosh nurlaridan va radiatsiyadan himoyalaniş eng muhimlaridir, shuningdek haroratni pasaytirish maqsadida shamollatishning zarurligi ham juda dolzarbdır. Interyerni shakllantiradigan yetarli darajada yorug' va yorqin bo'lishini hamda ko'rkamlikni ta'minlaydigan jalyuzalar va maxsus quyoshdan himoyalaydigan panjaralar mavjud. Janubda ichki kenglikni tashkil etishning an'anaviy yechimlardan biri o'z atrofida alohida xonalarni tashkil etuvchi hovli bo'lib, u shamollatish va quyoshdan yaxshi himoyalanişga yaxshi sharoit yaratadi. Hozirgi zamon arxitektorlari bu muammolarning yechimini topmoqdalar. Masalan, ichki kenglikka to'g'ri tushadigan quyosh nurlaridan va yuqori haroratdan to'liq himoyalash mumkin. Shamollatish uchun maxsus qurilmalar, yoritish uchun esa nurlarni qaytaruvchi maxsus moslamalar qo'llanilmoqda. Binolar interyerida tabiiy elementlardan foydalanish interyerni ko'rkamlashtirish, go'zallashtirishning eng kuchli vositalaridan biridir. Moviy osmonning, toshqin daryo sohillari, yashil o'tloqlar, adirlar va salobatli tog'lar, o'simliklar va gullarga burkangan tog' yon bag'irlari, deraza oldida gullab turgan daraxt va shu kabi jonli aloqalarning ichkariga kirib borishi tabiatning bunday yaqinlashuvi insonga ma'lum ijobiy emotsiyani tuhfa etadi, kayfiyatini va ruhiyatini ko'taradi. Xonalarning tabiat va shahar peyzajiga ochiq turgan ko'rinishi interyerning organik qismiga aylanmoqda.

Tabiatni bino ichiga olib kirishning kompozitsion vositasi bo'lgan ichki hovli ichki va tashqi kenglikni birlashtiradi. Bunda hovli proporsiyasi hamda uning yashil o'simliklar bilan to'ldirilganligi muhim ahamiyatga ega.



Ichki kenglikka va uning interyeriga qo'yiladigan estetik va man'aviy talablar ham amaliy talablardan uzilmagan holda u bilan birgalikda vujudga keladi va rivojlanib boradi. G'orlardagi turli tuman tasvirlar, o'rta asr saroyidagi ajoyib bezaklar insonning hamisha o'zini qurshab olgan go'zallik haqida qayg'urganligini va uni e'zozlaganligini ko'rsatadi.

Badiiy tushunchalar qurilish sohasida turar joylarning tipiklashuvi, uning tashqi muhitdan ajralib qolishi, massivli devorlarning og'irligi, industrial uy qurilishining monotonligi va bir xilligi kabi ziddiyatlarni bartaraf etish bilan uyg'unlikka intilib, rivojlana boshladi.

Badiiy vositalar ichida san'atning dekorativ-amaliy turlari eng kuchli ta'sir ko'rsatishga qodirdir. Fazoviy kenglikning emotsional to'ldirilganligiga erishish uchun tasviriy vositalarning qo'llanilishi zarur bo'ladi. Monumental rangtasvirdan panno, tasvirlar sifatida foydalanishda takt, me'yorni ushlashga

rioya qilish, alohida asarlarning eng yaxshi joylashish variantlarini tanlash talab etiladi. Interyerning bezatilishida arxitektura, rangtasvir, skulptura grafikaning o‘zaro aloqadorligi garmoniyaning qonuniyatlariga asoslanadi, interyerning bezatilishi esa uning nimaga mo‘ljallanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Qadimgi keramika eng ommabop bo‘lib qolaveradi. Bu – dekorativ taqsimchalar, panno, hajmli skulpturalar va releflarning hamda vazalar, kosa-tovoqlar, gul tuvaklar, kashno, utvarlarning dekorativ bezak sifatida interyer fazoviy kengligiga qo‘yilishidir. Zamonaviy interyerlarda yog‘ochdan ishlangan buyumlar keng qo‘llanilmoqda – bunday buyumlarga pardevorlar, devorlar, panno, mebel, plafonlar kiradi. Yog‘ochning qayta ishlanish imkoniyatlari turlichadir: kuydirish, o‘yish, silliqlash, loklash, turli lak-bo‘yoqli tarkiblar bilan bo‘yash. Interyerdagi alohida shinamlikni mato yaratadi. Uni gobelenlar, pardalar, shtorlar, gilamli yo‘lakchalar, mebel qoplamalari ko‘rinishida interyerga kiritish mumkin.



Keng oynali oraliqlarni yopish uchun va umuman butunlay bir tomonni qoplaydigan pardalar keng qo'llanilmoqda. Tomosha zalini bezaydigan sahnadagi parda markaziy rolni bajaradi. Alohida tasviriy asarlar interyerli muhitda yanada keng qo'llanilmoqda. Ularning tabaqalarini tanlashda fazoviy kenglik bilan mos o'lchamlarini e'tiborga olish juda zarurdir. Yashash muhitida – mehmonxonalar, kvartiralar, yotoqxonalar, dam olish uylarida – estamplar, litografiyalar, ofortlar hamda orinal akvarelli rasmlarning qo'llanilishi juda o'rindir. Yashash burchagiga guldastalardan yasalgan ishlanmalar betakror husn bag'ishlaydi.

Blis-so'rov savollari

1. Ichki fazoviy kenglik deganda nimani tushunasiz?
2. Arxitekturada qulaylik va go'zallik tamoyiliga rioya qilish qanday amalga oshiriladi?
3. Xonaning funksional jihati nima?
4. Binolar kompozitsiyasini tanlash jarayonida nimalarga e'tibor qaratish kerak?

JIHOZLARNING INTERYERDAGI MUHITNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY FAKTORLARI. INTERYERDA JIHOZLARNI LOYIHALASH (MEBEL, MUHANDISLIK KOMMUNIKATSIYALAR, SANTEXNIKA JIHOZLARI VA TEKSTIL MATERIALLARI)

Binolar interyeriga, ayniqsa, sanoat binolari interyeriga devor, orayopma, zinalar va hk. kabi arxitektura va qurilish elementlari bilan bir qatorda statsionar uskunalar – apparatlar, sig‘imlar, mexanizm va kranlar, texnologik quvurlar, energetika va ishlab chiqarish xonalarida zarur bo‘lgan boshqa texnik uskunalarning kiritilishi zamonaviy me‘morchilik amaliyotida odatiy hol sifatida qabul qilinmoqda. Ta’kidlash lozimki, ishlab chiqarish uskunalari, texnologik va sanitariya-texnik quvurlarni joylashtirishda binoning muhandislik uskunalari bo‘yicha texnolog va mutaxassislarining qarorlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lsada, baribir, muayyan darajada tuzatishlar kiritish, hattoki, binoning ichki hajmida texnologik sxemalar va uskunalar hamda kommunikatsiya tizimlarini joylashtirish tartibini o‘zgartirish mumkin bo‘ladi. Ushbu tadbirlarning mohiyati shundan iboratki, ichki hajmida texnologik uskunalarni joylashtirish va ichki kommunikatsiyalarni o‘tkazish jarayonida avvaldan belgilangan umumiy kompozitsion g‘oyaga mos yechimlardan foydalanish uchun kengroq imkoniyatlar yaratiladi. Me‘morchilik amaliyotidagi tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu masalaning optimal (yoki muvaffaqiyatli) yechimi ko‘p hollarda texnik, ayrim hollarda esa, ruhiy (ma’naviy) prinsipial tusga ega (texnologlar estetik talablarga rioya qilishni xohlamagan vaziyatlarda) muammolarni hal qilishga bog‘liq bo‘lar ekan. Lekin, ijobiy natijalarga erishilganida bino interyerining badiiy jihatlari sezilarli darajada yaxshilanishi kuzatiladi.



Uskunalar ham funksional, ham kompozitsion jihatdan ichki hajmning asosiy elementi hisoblanadi. Buni, birinchi navbatda, sanoat, transport korxonalari va boshqa ishlab chiqarish binolaridagi texnologik jarayonlar bilan bogʻliqlikda koʻrish mumkin. Shu sababdan, interyerning umumiy koʻrinishi uskunalarni umumiy prinsiplar va qonunlarga muvofiq meʼmoriy kompozitsiyasini shakllantirishga bogʻliq boʻladi. Meʼmorchilik amaliyotida uskunalarni texnologik jarayon ketma-ketligini buzmasdan turib joylashtirishga, imkon qadar tashkiliy muntazamlik va tartibga rioya qilinishiga katta ahamiyat beriladi. Bunda uskunalaridan tashkil topgan guruhlar, ayniqsa, qatorli, chiziqli yoki markazga intilgan kompozitsiyalarni tashkil qiluvchi bir xil yoki bir turdagi uskunalaridan iborat guruhlarining, odatda (ayrim hollarda esa - qisman) vizual jihatdan muayyan tartibga boʻysunishini kuzatish mumkin.

Uskunalarni qatorli tarzda joylashtirishda, odatda, bir turdagi uskunalar (dastgoh, mashina, apparat, sigʻim va shu kabilar) bir xil oraliqda joylashtiriladi. Qadimdan qoʻllanilib kelinayotgan bu usul shakllarni fazoda metrik tartibda joylashtirishga asoslangan boʻlib, jahon meʼmorchiligining juda koʻplab yorqin namunalari aynan shu usulni qoʻllagan holda yaratilgan. Bu yerda, taʼkidlash lozimki, uskunalarining joylashtirilishi rejaviy tuzilma va binodagi qurilish konstruksiyalar qadamiga muvofiq boʻlganida interyerning kompozitsion jihatdan yaxlit boʻlishiga erishish mumkin.

Uskunalar chiziq bo‘ylab, ya’ni mexanizmlar, dastgohlar, mashinalar va ish joylari bitta o‘q (odatda, gorizontal, masalan: konveyer o‘qi) bo‘ylab joylashuvdagi muntazamlikka alohida texnologik liniyalar va ish joylarining orasidagi masofa bir xil bo‘lishi yordamida erishiladi. Ishlab chiqarish liniyalarining asosiy kompozitsion o‘qlar bo‘ylab yoki ularga parallel tarzda joylashtirilishi arxitektura nuqtai nazarida eng optimal va maqsadga muvofiq yechim hisoblanadi.

Uskunalarining markazga intilgan joylashuvini tashkil qilishda bir turdagi (qo‘shimcha) uskunalar guruhi va ish joylari, odatda, asosiy uskuna (masalan: sinov uskunolari, karusel turidagi dastgohlar va boshqalar) atrofida jamlanadi. Bunda qo‘shimcha uskunalar asosiy uskunaning yonida, atrofida, shuningdek ustida yoki ostida joylashtirilishi mumkin.

Xona arxitekturasiga nafaqat uskunalarining ichki hajmdagi joylashuvi, balki ularning tashqi ko‘rinishi, shakli, proporsiyalari, rangi va shu kabi jihatlari ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Uskunalar shaklini uyg‘unlashtirish funksional-texnologik masalalarni hal qilish bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lgan badiiy shakllantirish jarayonida dizayner tomonidan bajariladi. Texnik estetika, dizayn, ergonomika yo‘nalishlaridagi tadqiqotlar predmeti hisoblangan ishlab chiqarish, muhandislik va maishiy uskunalar, asboblari, maxsus uniforma va mehnat qurollarini badiiy loyihalash interyerlar yaratish jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida qabul qilinishi zarur.



Muhandislik kommunikatsiyalari tarkibiga kiruvchi isitish, ventilyatsiya, suv ta'minoti, kanalizatsiya, elektr energiyasi va gaz ta'minoti kabi tizimlarning tarmoqlari va umumqurilish muhandislik jihozlari, shuningdek turli vazifalar uchun mo'ljallangan ko'p sonli texnologik quvurlar interyerning umumiy ko'rinishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Kommunikatsiyalarning asosiy vazifasi – odam mehnat qilishi, dam olishi va yashashi uchun optimal sanitariya-gigienik sharoitlarni yaratish, shuningdek binolar ichidagi bo'shliqlarda texnologik jarayonlar yuritilishini ta'minlashdan iborat. Binolarni umumqurilish uskunalari bilan, ayrim holatlarda esa, turli vazifalar uchun mo'ljallangan quvurlar bilan jihozlash amaliyotida ular texnologik va ekspluatatsion talablarga bog'liq ravishda ham ochiq, ham yopiq tarzda joylashtirilishi mumkin. Kommunikatsiyalarni ochiq joylashtirilishi quyidagi holatlarda interyer yechimi ijobiy hal etilishini ta'minlaydi:

- xonalarda o'tkazilayotgan kommunikatsiyalar interyerning umumiy me'moriy yechimining uzviy elementi bo'lsa;k

- turli vazifalar uchun mo'ljallangan quvurlar guruhlashtirilib, interyerning asosiy o'lchamlaridan tashqarida birlashtirilgan holda o'tkazilgan bo'lsa;

- kommunikatsiyalar binoning hajmiy-rejali tuzilmasini hisobga olgan holda vizual qabul qilishning muayyan tartibida: quvurlar trassalari xonalarning asosiy

kompozitsion o'qlari bo'ylab yoki ularga parallel qilib yotqizilgan, quvurlarning parallel tarmoqlari o'rtasidagi masofa teng qilib joylashtirilgan va hk.;

-kommunikatsiyalar joylashuvi variantining tanlanishi bino turidan, ishlab chiqarish sharoitlari va uning konstruktiv yechimiga bog'liq bo'ladi.

Ochiq kommunikatsiyalar trassalari qaerda joylashishidan qat'iy nazar, ularning interyerdagi ijobiy yechimi muayyan vizual tartibda qabul qilinadigan liniyalar jamlanmasining, hajmiy-rejali tuzilma yechimini hisobga olgan holda, ichki bo'shliqni tashkil qilish bo'yicha umumiy g'oyaga muvofiq tarzda joylashuviga bog'liqdir. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, yaxshi tashkil etilgan ochiq kommunikatsiyalar yordamida interyer arxitekturasini boyitish, interyerda o'ziga xos ifodalilikni namoyon qilib berishi mumkin ekan. Jahon arxitekturasida interyerning badiiy jihatlari ichki bo'shliqda ochiq tarzda joylashtirilgan quvurlar bilan belgilanuvchi bir qator namunalarni keltirish mumkin.

Kommunikatsiyalarning yopiq tarzda joylashtirish, odatda, havo tozaligi va muhitning harorat-namlik parametrlari barqaror bo'lishiga yuqori talablar qo'yiladigan xonalarda qo'llaniladi. Bunday xonalarda kommunikatsiyalarning ochiq joylashtirilishi maqsadga muvofiq emas, sababi, quvurlarning yuzalarida changlarni tozalash uchun noqulay bo'lgan uchastkalar mavjud bo'lib, havo tozaligiga nisbatan yuqori talablar qo'yiladigan xonalarda bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Kommunikatsiyalar yopiq tarzda gorizontal joylashtirish uchun, odatda, quyidagilar: shu maqsadlar uchun maxsus ko'zda tutilgan texnik qavatlar, qurilish konstruksiyalari ichida bo'shliqlar, pol va qavatlararo orayopmalarda kanallar, maxsus kommunikatsion tonnellar, shuningdek vertikal joylashtirish uchun kommunikatsion shaxtalar yoki bino karkasida ichi bo'shliq bo'lgan tayanch ustunlari loyihalashtiriladi.

Interyerni kommunikatsiyalardan vizual va amalda xalos etish g'oyasini amalga oshirish zamonaviy me'morchilik amaliyotida shakllar tuzilishidagi bir-biriga zid bo'lgan qarashlarga asoslangan ikki yo'nalishning rivojlanishiga bog'liq.

Birinchi tendensiya muhandislik tarmoqlari qurilish konstruksiyalari bilan birga yopiq tarzda o'tkazilishi orqali namoyon bo'ladi. Bu kabi yechim qo'llanilganida qurilish konstruksiyalari kommunikatsiya qurilmalari vazifasini bajaradilar va bu tizim binoning tarkibiy qismiga aylanib qoladi. Bunda uskunalarning elementlari me'moriy sifatlarga ega bo'lib qoladilar.

Ichki hajmning me'moriy tashkil qilinishi nuqtai nazarida bu kabi yechimlar ma'lum afzalliklarga ega bo'ladilar, sababi, ular qo'llanilganida interyerni katta o'lchamli kommunikatsiyalardan, masalan, quvur o'tkazgichlar, shaxtalar va shu kabilardan halos qilish imkoniyati yaratiladi. Lekin, kommunikatsiyalarni binoning konstruktiv elementlari bilan birlashtirilishi havo o'tkazgichlar kesimini kattalashtirishni, kommunikatsiyalarni boshqa zonalarga ko'chirishni va, umuman, ichki hajm tuzilmasini o'zgartirishni talab qiluvchi ishlab chiqarish texnologiyasini tubdan o'zgartirish imkoniyatlarini sezilarli ravishda kamaytirishi mumkinligini nazarda tutish lozim. Shu sababdan, bu kabi yechimlarni qo'llash ma'lum darajada cheklangan bo'lib, ular, asosan, ishlab chiqarish jarayonlari nisbatan barqaror kechadigan, ekspluatatsiya jarayonida kommunikatsiyalar va muhandislik tarmoqlari o'zgartirilishi talab qilinmaydigan binolarda tatbiq etiladi.

Ikkinchi tendensiya kommunikatsiyalarni binoning ichki hajmidan tashqariga olib chiqilishida namoyon bo'ladi. Bu tendensiyaning rivojlanishini nafaqat interyerni kommunikatsiyalardan xalos etish, balki, zamonaviy me'morchilikda "xay-tek" texnologiyalarining estetik imkoniyatlarini o'zlashtirishga bo'lgan intilish bilan izohlash mumkin. Muhandislik tarmoqlarini almashtirish yoki o'zgartirishda bino va uning xonalari konstruksiyalari o'zgartirilmagani sababli kommunikatsiyalarni tashqarida joylashtirilishi ichki hajmdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu usulni qo'llanilishi, ya'ni kommunikatsiyalarni bino tashqarisida joylashtirish, kommunikatsiyalar va bino konstruksiyalarini birlashtirish usulidan farqli o'laroq, texnologiyalari doimiy rivojlanayotgan va modernizatsiya qilinayotgan zamonaviy ishlab chiqarish talablariga ko'proq javob beradi va mos keladi.

Misol tariqasida Parijdagi Pompidu nomli San'at muzeyini keltirish mumkin. Binoning odatiy tashqi yuzasini deyarli butunlay almashtirgan kommunikatsiyalar o'zining yorqin bo'yoqlari, shakli va plastikasi bilan tomoshabinga emotsional ta'sir o'tkazadi. Odatda bino ichida joylashtirilib, ko'zga ko'rinmaydigan kommunikatsiyalar va muhandislik tarmoqlari bu binoning tashqi qiyofasi uchun asosiy elementlar bo'lib xizmat qiladilar.


Blis-so'rov savollari

1. Interyer va jihozlarni loyihalashda shakl va funksiya ahamiyati?
2. Muhandislik kommunikatsiyalarni interyerda qanday joylashtirish mumkin?
3. Interyerda jihozlarni loyihalashning qanday usullarini bilasiz?
4. Mebel, muhandislik kommunikatsiyalari, santexnika jihozlari va tekstil materiallaridan interyerda qanday foydalanish mumkin?

INTERYERNING RANG YECHIMI. INTERYERDA RANGNING INSONGA PSIXOFIZIOLOGIK VA ESTETIK TA'SIRI

Interyerni bezatishda u yoki bu rangdan foydalanishda ularning insonga ko'rsatadigan ta'sirlarini hisobga olish lozim buladi. Ma'lumki, iliq ranglarning ta'siri insonga faollik bag'ishlaydi, sovuq ranglar esa – tinchlantiradi. Rang orqali interyerning alohida elementlarning mazmuniy ahamiyati yuzaga chiqariladi yoki aksincha yo'qoladi. Yengil och tonli ranglar orqali neytral vaziyat yaratiladi. Bu vaziyatning ahamiyati shundaki elementlarni alohida ajratib ko'rsatishda u narsa fon bo'lib xizmat qiladi, sovuq ranglar esa – tinchlantiradi. Rang orqali interyerning alohida elementlarning mazmuniy ahamiyati yuzaga chiqariladi yoki aksincha yo'qoladi. Yengil och tonli ranglar orqali neytral vaziyat yaratiladi. Bu vaziyatning ahamiyati shundaki elementlarni alohida ajratib ko'rsatishda u narsa fon bo'lib xizmat qiladi. Masalan, maxsus jihozlarni, ko'rsatish belgilari, konstruktiv elementlarning alohida ranglarda bo'lganligini ajratib ko'rsatilishini misol tariqasida keltirish mumkin. Rangli garmoniya insonda hosil bo'ladigan bo'lsa, interyerdagi mavjudlikning tabiiylikdan mustasno hammasi inson tomonidan yaratiladi va unda ishtirok etadigan elementlarning hammasi o'zining rangli tasnifiga ega bulgan savol yuzaga keladi. Demak, garmonik rangli muhit yaratishning majburiy masalasi paydo buladi Masalan, maxsus jihozlarni, ko'rsatish belgilari, konstruktiv elementlarning alohida ranglarda bo'lganligini ajratib ko'rsatilishini misol tariqasida keltirish mumkin. Rangli garmoniya insonda hosil bo'ladigan bo'lsa, interyerdagi mavjudlikning tabiiylikdan mustasno hammasi inson tomonidan yaratiladi va unda ishtirok etadigan elementlarning hammasi o'zining rangli tasnifiga ega bulgan savol yuzaga keladi.

Demak, garmonik rangli muhit yaratishning majburiy masalasi paydo buladi. Rangli garmoniya kontrastli va jismni uyg'unlashuviga bo'linadi.



Intererda murakkab kontrastli ranglar jilosiga misol. Oitedagi bank intereri. Yaponiya, arxitektor Isozaki.

Ko‘p obrazli rangli garmoniya ikki guruhga ajratiladi. Ulardan birinchisi - ranglarning qarama-qarshi qo‘yilishiga asoslangan bo‘lsa, ikkinchisi esa ranglarni bir-biriga yaqinlashtirish. Birinchi guruh kontrastli uyg‘unlashadi, ikkinchisi esa nyuansli uyg‘unlashuvga ega. Qo‘yida bunday ranglarning jmoat binolarining interyerida garmonik uyg‘unlashuviga misollar keltirilgan (112,113 rasmlar). Nyuansli sxemani murakkablashtirish va kengaytirish mumkin.

Besh – oltita ranglardan tashkil topgan tizimlarni ham tuzish mumkin. Rangli garmoniya tuzishda top bo‘yicha ranglarning tanlanishi chegaralanmaydi. Avvalom bor ranglarning och va to‘q rangli tavsiflari orasidagi nisbatni aniqlash zarur. Ikkinchi tomondan ranglar bilan bo‘yaladigan sirlarning yuzasini topish kerak. Rangshunoslik kurslarida rangli dissonans tushunchasi o‘rganiladi, unda yuqorida ta’kidlangan qonuniyatlardan sezilarli darajada og‘adigan uyg‘unliklar

to'g'risidagi tushunchalar beriladi. Murakkab rangli kompozitsiyalarda ular uyg'unashuvini kontrastlik asosida belgilash mumkin va tasvirlarning emotsional ta'sir o'tkazuvchanligini oshirish vositasi sifatida ifoda etiladi.



Sirk foyesidagi ishlatilgan beton va yog'ochning tabiiy ranggi bilan uyg'unlashgan ranglar jilosig misol.

Rang – interyer qiyofasini shakllantirishda uning obrazli tavsiflarni yakunlashda eng muhim elementlardan biri bulib hisoblanadi, juda ham yorqin yoki mos kelmagan rang dissonansni hosil qilishi mumkin, yagonalik va butunlikning buzilishiga olib keladi. Rangning bo'lmasligi beparvolik, atrofga bo'lgan befarqlikni vujudga keltiradi. Odatdagi kulrang tonning tabiiy materiallar bilan uyg'unlashuvi mayin rangli gammani yaratadi va interyerda yetakchi bo'lgan daraxt, tabiiy tosh yoki jihozning rangi uchun fon bo'lib ifoda etiladi. Boshqa tomondan, quyuq yorqin tonlar yordamida katta ta'sir o'tkazish kuchiga ega bo'lgan rangli munosabatlarni yaratish mumkin.

Oliy Majlis saroyidagi majlislar zali amfiteatrining qizil rangi oltin rangli daraxt bilan uyg'unlikda ajoyib tantanavorlikni yaratishda hal qiluvchi rol ni o'ynaydi. Teatr foyelaridagi oq marmar ham ancha tantanavor bo'lgan muhitni yaratadi, silliq yuzali oq marmar bilan qoplangan yuzalarda yonib turgan qandillarning olov rangi akslanib jilolanadi. Rang va material ma'lum yoritilgan muhitda obrazli tasniflarining betakror boyligini yaratadi. Bunday ko'p qirrali talablarni o'zida aks ettirgan interyer kompozitsiyasi interyerining umumiy mazmunidan alohida ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi. Interyerining rangli kompozitsiyasi binoning ichki fozoviy bushlig'ida ro'y beradigan jarayonlar hamda uning funksional vazifalariga muvofiq kelgan taqdiridagina tomoshabinlar tomonidan qabul qilinadi.



Blis-so'rov savollari


1. Interyerining rang yechimi qanday topiladi?
2. Interyerda rangning insonga psixofiziologik ta'sirini gapirib bering?
3. Interyerda rangning insonga estetik ta'siri qanday belgilanadi?
4. Murakkab rangli kompozitsiyalarda ular uyg'unashuvini qanday amalga oshirish mumkin?

INTERYERDA YORUG‘LIK MASALALARI. MUHITNING TABIIY VA SUN‘IY YORITILISHI

Inson tomonidan atrofidagi interyerli muhitning qabul qilinishida yorug‘lik katta ahamiyat kasb etadi. Jamoat binolarining interyerlaridagi katta oraliqli zallarning yoritilganlik darajasining ta‘minlaganligi uning spesifikatsini belgilab beradi.

Yorug‘likning inson tomonidan qabul qilinish nuqtai-nazaridan mulohaza yuritilganda, yorug‘lik sirli, tinchlantiruvchi va nihoyat o‘yg‘atuvchan va sergaklashtiruvchan bo‘lishi mumkin. Yorug‘likning sifat tavsiflari quyidagicha bo‘lishi mumkin: to‘g‘ri tarqalgan nurlar, tarqalgan tarzda taraladigan yorug‘lik va yorug‘likning sinish, qaytish xossalari shu bilan birgalikda yon tomondan, yuqoridan tushadigan yorug‘lik. Yoritishning bunday tizimlaridan har biri o‘zining o‘rniga va qo‘llanish sohasiga ega

To‘g‘ri tarqaladigan quyosh yorug‘ligi ko‘zlarni qamashtiradi, insonning ishlashiga halaqit beradi va shu bilan birgalikda bunday yorug‘lik insonga ko‘tarinki va quvonchli kayfiyat bag‘ishlaydi. Yorug‘likning tasviriy o‘yinini va soyalar hosil qilish uchun mehnat jarayoniga halaqit bermaydigan joylarda to‘g‘ri tarqaladigan yorug‘likni tushish maqsadida ish va o‘quv xonalariga maxsus quyoshdan himoyalalanuvchi moslamalar o‘rnatiladi. Qaytadigan tabiiy yorug‘lik maxsus qaytaruvchi tekislar va yorug‘lik moslamalari yordamida hosil qilinishi mumkin. Bunday bir yo‘nalishda va bir me‘yorda taraladigan yorug‘lik o‘quv va ish xonalari uchun zarur bo‘lgan tabiiy yorug‘lik deb hisoblaniladi. Bu yorug‘lik yoritilganlik darajasini ahamiyatli tarzda oshirishi mumkin.




Xonani tug'ridan tushgan yorug'lik bilan yoritishga misol.

Tarqoq tarzda taraladigan yorug'lik – bu osmondagi jismlardan qaytgan nurlar bo'lib, bunday yorug'lik yumshoq, mayin va bir maromli va xiraroq bo'ladi. Bunday yorug'lik shakllarni yorqin **tasvirlashga qodir emas shu tufayli kuchli** plastika bilan maqsadga muvofiq ravishda uyg'unlashadi. Shu bilan bir qatorda tarqoq taraladigan yorug'lik ishlash uchun ancha ma'qul bo'ladi, chunki u ko'zlarni toliqtirmaydi. Bunday yorug'lik oraliqlarni shisha bloklar bilan to'ldirish, yaltiramaydigan shisha yordamida ham hosil qilinishi mumkin.


Sun'iy yorug'lik tabiiy yorug'likdan farqli o'laroq maxsus yorug'lik manbalarining yaratilishini talab etadi. O'rnatiladigan yoritish moslamalaridan taraladigan yorug'lik nurlari shift devorlar sirtlarini yoritadi va bu sirtlardan qaytadi – bularning hammasi sun'iy yorug'lik jihozlarining tuplami deb ataladi va bu tuplam jamoat binolarining zamonaviy interyerli muhitida o'zining keng qo'llanilishini topdi. Shift va devorlardan hamda konstruksiyalarning alohida elementlaridan qaytgan yorug'lik alohida tasviriylar sifatiga ega bo'ladi. Qaytgan nurlar mayin va bir maromda taralishi bilan birgalikda yorug' joydan qorong'iroq zonaga yetarli darajada faol o'tadi, insonga yengil his qiluvchanlik, faollikni bahshida etadi. To'g'ri taraladigan yorqin yorug'likning zurayishini pasaytiradi, shakllarga qandaydir rang bergandek bo'ladi va h.k. Qaytgan nurlar tomosha zollaridagi fazoviy bushlikni tasavur kilib bulmas darajada kengaytiradi,

joylardagi yorug‘lik osti nurlari xonani shinamlashtiradi va uning uyg‘otuvchanlik hususiyatini oshiradi.



Tarkatilgan yoruglikka misol. (shishablok)

Loyiha-qurilish amaliyotida to‘g‘ri taraladigan va qaytgan yorug‘lik nurlarining uyg‘unligidan tez-tez foydalaniladi, ularning hususiyati hisobiga boy va rang-barang, turli-tuman kombinatsiyalar hosil qilinadi. Qaytgan yorug‘lik va o‘rnatilgan moslamalardan fazoviy bushlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri taraladigan yorug‘lik bilan bir qatorda turli shakllardagi yoritish moslamalari – lyuminessentli yoritgichlardan tortib to shakllari bo‘yicha murakkab bo‘lgan va kutilmagan shakllardagi turli-tuman qandillar ham keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Shakllar tasodifan ro‘y bermaydi, balki bu turli-tumanlik takrorlanmaslik nuqtai-nazaridan ongli ravishda olib borilgan ijodiy izlanishlar va tinimsiz intiluvchanlikning natijasi-samarasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Agar ko‘p sonli binolarda yoritgichlar shakli bo‘yicha chegaralangan holatda ratsional bo‘lsa, hashamatli binolarda zamonaviy “qandillar” hech ham kutilmagan shaklda abstrakt haykal xarakter kasb etmoqda.



Almatadigi madaniy markaz foyesida
urnatilgan kandilgamisol.

Qabul qilingan yoritish tizimlari arxitekturaviy g'oyaning shakllanishida ishtirok etgan holda eng keng badiiy masalalarni yechib beradi. Ulardan biri – bu yorug'lik aksenti va yechimini hosil qilish orqali bir vaqtning o'zida interyerda bosh bo'lgan ham funksional ham badiiy masalalarni ajratgan holda yechib beradi. Inshootlar interyerlarining ko'rkamligini ta'minlashda pastdan yorug'lik berish ancha muhim rol o'ynaydi. Pastdan yorug'lik berish yordamida ob'yektlarning ichki fazoviy bushlig'idagi tayanch ustunlar hamda alohida konstruktiv elementlarning kuchi va kuchlanish holati, shakllarining

plastik ko'rkamligini his qilinishini hosil qilish mumkin. Jamoat binolarining interyerlarida shiftlar yengilligi va havoilyligining betakror effekti nuqtali yoritgichlar ning qo'llanishi bilan yuzaga keltiriladi. Katta maydonga ega bo'lgan ko'p oraliqli binolarda yoritish tizimining bunday tipi insonning yorug'likni qabul qilish nuqtai-nazaridan juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki uning boshi ustida bosim o'tkazadigan yukning tasavvur qilinishini bartaraf etadi. Bu borada Rimdagi katta sport arenasi xarakterli ahamiyat kasb etadi. Sport arenasi perimetri bo'yicha tashkil etilgan yorug'lik halqasi yuk ko'taruvchi tayanchlarning ma'lum yengilligini va shu vaqtning o'zida konstruksiyalarning kuchlanganlik holatini anglatgan holda ularning ritmini yuzaga keltiradi. Aylana ko'rinishidagi yuqoridan taraladigan yorug'lik inshoot tom qobig'ini bir maromda yoritib, bu qobiqni ko'rish orqali qabul qilish nuqtai-nazaridan ancha yengillatadi. Nuqtali chiroqlar yordamida yulduzli osmon tasviri (illyuziyasi) hosil qilinadi va shunday yo'l bilan shift inson ko'z o'ngidan foriq qilinadi. Interyerning

kutilmagan aspektlari shakllantiriladi, yangi emotsional “quyuq” muhit namoyon qilinadi.



Blis-so‘rov savollari

1. Interyerda yorug‘lik masalalari qanday yechiladi?
2. Muhitning tabiiy yoritilishi qanday amalga oshiriladi?
3. Interyerning sun‘iy yoritilishi deganda nimani tushunasiz?
4. Suniy yoritgichlardan qanday turlarini bilasiz?

INTERYERDA ZAMONAVIY PARDOZLASH MATERIALLARI. AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY PARDOZLASH MATERIALLARI VA TEXNOLOGIYALARI

Shakl o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, u hamisha moddiylikka egadir. Ichki fazoviy kengliklardagi to'siqlar (to'suvchi konstruksiyalar) yuzasidan insonga bevosita yaqin turishi, uning oldida turli-tuman tavsiflarga ega bo'lgan materiallar sifatida namoyon bo'ladi va bunda metall, yog'och, tosh va boshqa tabiiy materiallarning inson tomonidan qabul qilinishi unda boy murakkab his-tuyg'ularni vujudga keltiradi. Interyerda qo'llaniladigan materiallar o'zining boy va turli-tuman sifatlari bilan insonga taniqli bo'lgan tabiiy, an'anaviy, materiallarga va insonga hech bir hissiyot bermaydigan, shu tufayli interyerni yaratishda faqat shakl hosil qiluvchi yuzaning sof abstrakt ifodasi sifatida ishtirok etadigan sun'iy materiallarga bo'linadi.



Tabiiy tosh va yog‘och o‘zining tabiiyligi (naturalligi) bilan go‘zallikni, ko‘rkamlikni hosil qiladi va ular ilk qurilish materiali sifatida ishlatilganligi tufayli qadimiy va doimiy ekanligi bilan ham ajralib turadi. Granit, marmar, tuf va ohak o‘zining individual tavsiflari bilan o‘zining chuqur tarixiga ega va o‘zining tuzilishida tabiatning murakkabligini, turli-tumanligini, go‘zalligini va kuchini o‘zida mujassam etgan holda doimo saqlagan. Yog‘ochni ko‘ndalang va bo‘ylama kesish orqali ajoyib shakllarni hosil qilinishi, o‘zining hayotiyliги va o‘tmishi, tabiiyligi, iliq bag‘ishlashi bilan va ajoyib xossalari bilan go‘zallik, ko‘rkamlikni namoyon etadi. Tabiiy materiallarning ishlatilishi bilan interyerining obrazli ko‘rinishini yaratish ularning

katta imkoniyatlari ochilib boradi. Bu zamonaviy restoran interyeridagi ochiq balkalar misolida yaqqol namoyon bo‘ladi (6-rasm). Zamonaviy jamoat binolarini interyerlarida keng qo‘llaniladigan tabiiy materiallar plastik qoplama va pardozi, turli qotishmalarni, kartonlar, mumlar va chegarasiz turli-tumanlikdagi sun‘iy bo‘yoqlarning yaratilishida faol namoyon bo‘ladi. Hozirgi vaqtda sun‘iy materiallar inson tomonidan qabul qilinadigan va unga tanish bo‘lgan ikkita faktura va rang kabi sifatlar bilan tavsiflanadi. Faktura bu


rasm yoki tasvirning tashqi yuzasining oyna kabi silliq (tekis) bo‘lib, yaltiroqligi, matovoy yengil ko‘rinishi va yirik donador ko‘rinishi, holatida ko‘rinishi ifodalaydi. Sun‘iy materiallarning rangi turlicha bo‘lishi mumkin va juda nozik did bilan qabul qilinadigan rangdagi materiallardan ishlangan buyumlar ham ko‘plab ishlab chiqarilayapti.



Zamonaviy restoran intererida ochiq holatda o‘rnatilgan beton to‘sindan foydalanishga doir misol.

Qurilish materiallarining vazni va muatahkamligi – bu ikkita o‘zaro bog‘liq bo‘lgan muhim sifat konstruksiyaning ratsional mantiqiy qurilishida o‘z ifodasini topadi. Bino interyerida ishlatiladigan materiallar inson ongida turli hissiyotlarni (his-tuyg‘ularni) uyg‘otishga qodir. Masalan, tabiiy materiallardan yog‘och issiqlik (iliqlik)ni his qildiradi; granit marmar, metall esa sovuqlik hissini tug‘diradi.

Interyerda yengillik va u bilan bog‘liq bo‘lgan shovqinni yutish kabi sifatlariga ega bo‘lgan materiallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, ba’zan esa aksincha materiallarning bikrlilik sifatleri (xossalari)dan oqilona foydalanishga to‘g‘ri keladi. Teri, yog‘och, pardozlash buyumerasi, po‘kak kabi yumshoq materiallardan dam olishga mo‘ljallangan xonalar interyerini tashkil etishda foydalaniladi, chunki bu xonalarda jimlik va osoyishta muhitning yaratilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi, bunday interyerlardagi muhit bevosita insonni xotirjamlashtirishi, undagi kuchlanganlik holatini bartaraf etmog‘i va undan charchoqlikni chiqarib tashlash uchun xizmat qilishi lozim.



Intererda materiallarning uyg‘unlashuviga doir misol
(yog‘och va tosh)

Granit, beton, metall, oyna kabi qattiq materiallardan vokzallar va katta vestibyullar, xollar va shunga o‘xshash joylarda foydalaniladi. Bunday joylarda odamlar kam vaqtini o‘tkazadilar va atrofdagi yuzalarning bunday qattiq materiallar bilan qoplanishi shovqinni yutmaydi aksincha kuchaytiradi, kotfastlikni oshiradi, taassurotni oshiradi. Interyerda qo‘llaniladigan materiallar qatori talablarga javob berishi taqozo etiladi.

Birinchidan, materiallarning ob'yekt mazmuniga muvofiq (mos) kelishi. Interyerga qo'llanadigan material bino ichida ro'y beradigan jarayonga muvofiq kelishi va bu materiallar jarayon kechayotgan paytda yuzaga keladigan ta'sirlarga qarshi reaksiya beradigan xissiyotni hosil qilishi kerak. Mana shuning uchun ham shinam restoranlarda mijoz vaqtini o'tkazishni xog'laydi, ular tabiiy materiallar – yog'och, ishlov berilmagan tosh bilan pardozlanadi. Ko'chadan ichki fazoviy kenglikka o'tadigan o'tish joyining tashkil etuvchi vestibyullarni tabiiy qo'pol toshlar bilan pardozlash ayniqsa juda o'rinlidir, ish joylarini va auditoriyalarni yengil neytral ton hosil qiluvchi ochiq rangli shtukaturka bilan pardozlash maqsadga muvofiqdir, shu sababli bunday pardozlangan interyer ish va o'qish jarayonida xalaqit bermaydi. Umuman olganda interyerni bezatishda pardozlash va qurilish materiallaridan foydalanilganda turli materiallarning yagona kompozitsion yechimda uyg'un uyg'unlashuvini topish bosh talab sifatida namoyon bo'ladi, bunda ular orasida bosh yetakchi materialga o'rin ajratiladi.

Bunga devorning yog'och bilan qoplanishi, g'isht qalanmasi, buyumer bilan qoplangan yuzalar misol bo'la oladi. Boshqa ikkinchi darajali materiallar bosh yetakchi materialga muvofiq tarzda tanlanadi. Bu yog'ochning metall, tosh, bilan kontraktli taqqoslanishi yoki yog'ochning turli toshlarning har xil qayta ishlanishi va plastiklar bilan taqqoslanishi va h.k. Bunda nafaqat materiallarning tanlab olinishi, balki ularning zarur bo'lgan va yetarli darajadagi miqdori ham muhimdir.

Blis-so'rov savollari

1. Interyerda zamonaviy pardozlash materiallaridan qaysilarini bilasiz?
2. Granit, beton, metall, oyna kabi qattiq materiallardan qaysi bino va inshootlarda foydalaniladi?
3. Umuman olganda interyerni bezatishda pardozlash va qurilishda qanday materiallaridan foydalaniladi ?
4. Teri, yog'och, va po'kak kabi yumshoq materiallardan dam olishga mo'ljallangan xonalar interyerini tashkil etishda qanday foydalaniladi?

JAMOAT BINOLARI INTERYERI VA JIHOZLARI. JAMOAT BINOLARINING SHAHARSOZLIKDAGI ROLI. FAZOVIIY STRUKTURANI SHAKLLANTIRISH PRINSIPLARI. JAMOAT BINOLARI ICHKI MUHITINI TASHKIL ETISH. JAMOAT BINOLARI UMUMIY TARHIY ELEMENTLARI

Jamoat binolari va uning majmualari sun'iy yaratilgan muhit bo'lib, bir yoki bir necha jarayonlar o'zaro bog'liq bo'lgan insonning hayotiy faoliyatini o'tkazishga mo'ljallangan. Jamoat bino va inshootlarining eng asosiy omili uning hajmiy rejalashtirilishi asosini insonning hayotiy faoliyati davomida jamiyatga xizmat qilishiga erishishdan iborat. Shuning uchun ham, jamoat bino va inshootlarini loyihalashda turli xildagi kompleks omillarni hisobga olish kerak bo'ladi. Bular: ijtimoiy, shaharsozlik, tabiiy iqlimiy, milliy maishiy, konstruktiv, fizik texnikaviy, iqtisodiy, arxitekturaviy badiiy va boshqalardir. Asosiy omil esa uning insonga xizmatidir. Inson turmush tarzining beqiyos darajada o'sib borishi texnik jarayonlarning aktivligi bilan bog'liqligi natijasi o'laroq funksional texnologik jarayonlar ham jamoat binolarining yangidan yangi turlarini yaratishni taqozo etadi.

Jamoat binolari shahar kompozitsion strukturasini tashkil etishda asosiy rol o'ynaydi. Shahar markazi va shahar tumanlari markazlari asosan jamoat binolaridan tuziladi. Jamoat binolari tarhiy va funksional jihatdan shahar maydonlari, ko'chalari va transport magistrallari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Jamoat binolari shahar chiroyiga ko'rk bag'ishlaydi. Jamoat binolarini ochiq yoki aylanasimon maydonlarda yagona dominanta qilib loyihalanadi yoki maydon yuzasida butun bir ansambl sifatida namoyon bo'ladi. Jamoat binolarini shahar sharoitida tabiat bilan bog'langan holda loyihalashga harakat qilinadi, masalan ularni tepalik joylarga, suv havzalari bo'ylariga va park massivlariga yaqin joylashtiriladi. Jamoat binolariga ko'p sonli aholi bir vaqtning o'zida tashrif buyurishi mumkin. Shuning uchun transport kommunikatsiyasiga va odamlar oqimiga qulay sharoit yaratish lozim. Jamoat binolari turar-joy binolaridan farqli o'laroq interyerni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari va qonuniyatlariga ega.

Bu jihatlar va qonuniyatlar jamoat binolarining bir vaqtda ko‘p sonli odamlar jamoasiga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallanganligi bilan shart-sharoitlanadi. Jamoat binolarida turar-joy binolariga qaraganda (nisbatan) katta maydonga (yuzaga) ega bo‘lgan xonalar (joylar) talab qilinadi va ular murakkab konfiguratsiyaga ega bo‘ladi hamda murakkab jihozlar va mebellar bilan jihozlanadi. Yosh avlod shakllantiradigan maktab; dam olish va hordiq chiqarish maskani hamda madaniyat o‘chog‘i bo‘lgan teatr va klub; mehnat qilish va ishlab chiqarishga mo‘ljallangan sanoat binolari kabi jamoat binolarining har biri alohida fazoviy kenglikni talab etadi. Ichki fazoviy kenglikni tashkil etish va interyerni shakllantirish masalalari tugallangan arxitekturaviy kompozitsiya sifatida bu kenglikni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan jihatlar va talablarning uzviy bog‘liqligi yechiladi.

1. Ichki fazoviy kenglik sistema sifatida loyihalash.

Jamoat binolarining interyerini yaratish ichki fazoviy kenglikni shakllantirishdan, uning o‘lchamlarini, shakllarini, qismlarining nisbatini, qismlarga ajratish xarakteri, ochilish prinsiplari va shunga o‘xshashlarni aniqlashdan boshlanadi. Fazoviy kenglik insonda – erkinlik yoki torlik, xotirjamlik yoki yuklanganlik, shodlik yoki g‘amginlikning his qilinishi bilan qulaylik, shinamlikning yaratilishi bilan hal qilinadi. Bunda murakkablik yangidan hosil qilinadigan xayotiy muhitning shart-sharoitlanganligi va o‘zaro bog‘liqlar va aloqadorliklarning ko‘p sonliligi bilan izohlanadi. Jamoat binosining u yoki bu tipining interyerini shakllantirish masalasini faqat tizimli (sistemali) yondashish asosida yechish mumkin. Tizimli yondashish birinchidan ob‘yektni har tomonlama baholash, ikkinchidan interyerni binoning arxitekturaviy qismi deb qabul qilish, ko‘rib chiqish va tashkil etilgan fazoviy kenglikning nafaqat ichki, balki tashqi qismi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

2. Fazoviy kenglikni qurishning usullari va prinsiplari.

Jamoat binolarining ichki fazoviy kengligini tashkil etish sistemasi o‘zining rivojlanishida kenglikni shakllantiruvchi kompozitsion qonuniyatlarga asoslanadi.

Kompozitsiya qurishning tartibi, prinsipi sifatida aynan fazoviy kenglikning rivojlanishini insonning biologik, psixofiziologik va estetik ehtiyojlariga muvofiq ravishda oldindan bashorat qiladi, belgilaydi va aniqlab beradi.

Jamoat binolari qurilishining ko'p asrlik amaliyoti qator kompozitsion usullarni to'pladi va ulardan quyidagilar zamonaviy amaliyotda ham keng qo'llaniladi: o'q bo'ylab komponovka qilinadigan va eni bo'ylab rivojlanadigan fazoviy kenglik; frontal qurilgan fazoviy kenglik, bunda bu kenglik o'zining tashqi muhitga (tomonga) keng ochiladigan va front bo'ylab ancha uzunlikka ega bo'lishi bilan xarakterlanadi; markaziy yadro atrofida konsentrik rivojlanadigan fazoviy kenglik; vertikal bo'yicha rivojlanadigan va nihoyat, geometriya bilan emas, balki jarayon va atrofdagi tabiat (tabiiy muhit) mohiyati bilan shart-sharoitlanadigan murakkablashgan fazoviy kenglik. Ichki fazoviy kenglikni qurish tabiatini o'rnatadigan bu prinsiplar interyerni tashkil etishning fazoviy asosi deb hisoblanadi.

Ichkariga tomon (xonalarining eni bo'yicha) rivojlanadigan fazoviy kenglik. Bunday fazoviy kenglik o'qli qurish davomiyligidagi uzunlik, bosh o'q yo'nalishida ochilib borish va nihoyat xarakterli shaklni belgilaydigan konstruksiyalar bilan xarakterlanadi. Zamonaviy sharoitlarda, yuqorida ta'kidlangan xarakteristikalaridan biri bilan ifodalanadigan interyerni bunday qurish o'zining asosiga va rivojiga ega bo'ldi. Teatr va kinoda fazoviy kenglikni yaratish g'oyasi shundan iboratki, unda tomoshabinlar sahna yoki ekranda nima ro'y berayotgan bo'lsa faqat o'shani aniq ko'rishlari lozim bo'ladi. Ko'rish talablari zalning bo'yi va eni hamda balkonning ko'rinishi bilan aniqlanadi. Eng keng qo'llaniladigan sxemada teatrning hamma elementlari va barcha asosiy xonalari – vestibyul, foye, zal, sahna o'q bo'yicha quriladi. Fazoviy kenglik ekran yoki sahna bilan yakunlanadigan o'lchamlar bo'yicha izchil rivojlanadi. Bunday vaziyatda fazoviy kenglikni o'qli qurish usuli jarayonni o'tkazishning funksional talablari va alohida xonalar orasida bog'lanishlar bilan shart-sharoitlanadi.

Frontal rivojlanadigan fazoviy kenglik frontal qurilgan fazoviy kenglikni ya'ni ko'ndalang o'q bo'ylab izchil davom etadigan fazoviy kenglikni keng fronti

bilan tashqi muhitga qaratilgan va ochiq ko‘rinib turadigan, atrofdagi tabiiy muhit bilan xarakterlash mumkin. Bunday tipdagi fazoviy kenglikeng katta darajada ko‘plab jamoat binolarining talablariga javob beradi. Bunga ko‘cha yoki maydonga qaratib ochiladigan zamonaviy do‘konlar misol bo‘la oladi. Bu borada vokzallar va aerovokzallarning bir qanchasi xarakterli bo‘lib, ularda operatsion zal va kutish zallari shaharga kutib olish maqsadida qaratilgan bo‘ladi. Frontal kompozitsiya turli funksiyalarni yetarli darajada fazoviy kenglikka birlashtirish va ahamiyati bo‘yicha har xil xonalarni bitta fazoviy kenglikka kiritishi mumkin.

Konsentrik rivojlanadigan fazoviy kenglik. Bosh yadro atrofida fazoviy kenglikni konsentrik qurish yetakchi prinsip sifatida zamonaviy arxitektura eng rivojlangan kompozitsiya deb hisoblanadi.

Bu yerda ikkita tendensiyaning ikkita yo‘nalishini kuzatish mumkin – bu yopiq, tashqi muhitdan izolyatsiya qilingan fazoviy kenglik va aksincha, perimetri bo‘yicha periferiyadan boshlab markazgacha yoki markazdan boshlab periferiyagacha rivojlanib, keng ochiladigan fazoviy kenglik.

Markaz tomon rivojlanib boradigan yopiq fazoviy kenglikka misol tariqasida Bakkardi firmasining yuqoridan yoritiladigan oynali markaziy fazoviy kenglikka ega bo‘lgan binosini keltirish mumkin, bu fazoviy kenglik o‘ziga garderoab va kutish zali funksiyasini o‘zida mujassamlaydi, shuningdek, o‘rindiqlari maydonga va arenaga qaratilgan stadion va sirk kabi keng tarqalgan inshootlarni ham misol sifatida keltirish mumkin. Bunday yechimlar lokalli jarayonni o‘tkazishning funksional talablariga javob sifatidayuzaga keladi va shuning uchun mantiqiy jihatdan tushunarli elementar qurishlar deb hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda xollning, tomosha zalining yoki ichki hovlining markaziy fazoviy kengligi o‘zining atrofida boshqa xonalarni jamlaydigan bosh element sifatida butun fazoviy kenglikni tashkil etishning kuchli kompozitsion boshlanishi bo‘lishi mumkin. Quyosh nurlari tushadigan daraxtlar va basseynga ega bo‘lgan hovli, galereiyalar qurshovidagi ikki rangli xoll, tomosha zali ahamiyati va o‘lchamlariga ko‘ra yirik bo‘lgan bu xonalarning va joylarning hammasi o‘z

atrofiga qolganlarini to'plovchi interyerning asosiy fazoviy kengligi bo'lishi mumkin.

Fazoviy kenglikning erkin qurilishi.

“Erkin reja” tushunchasi o'zida hech bir tartibsizlik va xaotiklikni namoyon etmaydi. Erkin fazoviy kenglikning qurilishida va rivojlanishi zamirida yashirin, yuzaga chiqmagan, lekin ba'zida ma'lum bo'ladigan va nozik, mavjud bo'lgan ancha muhim bog'lanishlar (aloqalar) yotadi. Bunday fazoviy kenglikni qurishda erkin fazoning ma'lum ulushi shundaki, avvalombor, bu erkin fazoviy kenglik o'zining qurilishida qat'iy geometrik, berilgan parametrlarga bog'lamaydi. Fazoviy kenglikning qurilishning regulyarli va erkin usullari orasida aniq ajratish chegaralari mavjud emas. Shu bilan bir qatorda fazoviy kenglik qurilishining erkinligiga yo'naltirilgan tendensiya butun ob'yekt kompozitsion qurilishining yetakchi motivlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Berlindagi konsert zalida (arx. Sharun) hajmiy-loyihaviy kompozitsiyaning erkinligi hech qanday izchilsizlikka ega bo'lmagan holda asosiy xajmlarning rangli tasvirda (jonli tasvirli, jivopisli) ifoda etilgan. Bu yerda kompozitsiya markazi bo'lib zal xizmat qiladi, uning atrofida odamlarning erkin tarzda o'rnatilgan keng zinapoya bo'yicha harakatlanishi ko'zda tutilgan. Tomoshabinlarning bosh oqimini yo'naltirib va bunda bosh fazoviy kenglikning yetakchi ahamiyatini saqlagan holda arxitektor bunday jonlitasvir va erkinlikning ko'rinmas tartibini yaratadi.

Murakkab fazoviy kenglik.

Ko'plab ob'yektlar, masalan, teatrlar, kinoteatrlar, muzeylar va shunga o'xshash bo'lgan jamoat binolari ham ancha murakkab hajmiy-fazoviy kompozitsiyalarda yachilishi mumkin, bu yerda u yoki bu fazoviy kenglik prinsiplarining yechimlari bir-biri bilan uyg'unlashadi va bunday hollarda usulning murakkabligi ulardan birining yetakchilik holati bilan ifodalanadi, bunda bir vaqtning o'zida qolganlari yetakchilik qilayotgan prinsipning rejaviy strukturasiga bo'ysunadi.

Fazoviy kenglikning bunday murakkab qurilishiga arxitektor Le Korbyuzening “Sentrosoyuz” binosi misol bo'la oladi.

Bu yerda fazoviy kenglikning o‘q asosida va frontalli asosda qurilganligini payqash qiyin emas. Bu yerda rejaning tuzilishidagi erkinlik ayniqsa xarakterlidir. “Erkin” fazo bir xonadan (joydan) boshqasiga “oqib” o‘tadi. Loyihalash amaliyotida ba’zan yagona umumiy masala – yagona fazoviy kenglik va qator izolyatsiyalangan (yopiq) fazoviy kengliklarni komponovka qilish masalasi yuzaga keladi.

Fazoviy kenglikning bu ikki tipini bino hajmida komponovkalash asosan quyida ko‘rsatilgan tashkil etish sxemalari bo‘yicha yechiladi:

A) ularni har xil hajmlarga joylashtirish. Bu usul izolyatsiyalangan fazoviy kengliklarning ko‘p sonligi, ularning ma’lum mustaqilligi, ularning asosiy jamoaviy kenglikka bog‘liq bo‘lmaganligi bilan xarakterlanadigan hollardagina ratsional deb hisoblanadi;

V) bitta, ikkita, uch va to‘rt tomonlama yorug‘lik frontidan foydalangan holdabosh jamoat fazoviy kengligining perimetri bo‘ylab kichik (mayda) izolyatsiyalangan xonalarni joylashtirish. Asosiy fazoviy kenglik katta balandlikka ega bo‘lganda izolyatsiya qilingan xonalarni ikki , uch va undan yuqori bo‘lgan qavatlarga ham joylashtirish mumkin;

B) qavatlar bo‘yicha joylashtirish. Bunday yechim tantanavor bosh qavatni uning katta ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rkamligini ta’minlash talablariga bog‘liq ravishda ajratib ko‘rsatish zarur bo‘lgan vaziyatlarda va qurilish uchastkasining kichik yuzali maydonga ega bo‘lishi tufayli kompaktlikni ta’minlash talablariga bog‘liq bo‘lgan vaziyatlarda yuzaga keladi;

G) izolyatsiyalangan hajmni yoki bunday hajmlarning guruhini bitta inshootning birlashtiruvchi yagona katta fazoviy kengligiga erkin tarzda joylashtirish (qo‘yish). Yagona ochiq fazoviy kenglikni izolyatsiya qilingan alohida xonalar bilan uyg‘unlashtirishni ta’minlaydigan tanlangan usul izchil tugallangan mantiqiy usul bo‘lib, u interyer qurilishining puxtaligi va qonuniyatini shart-sharoitlaydi.

Jamoat binolari o'zining hajmiga ko'ra qurilishning boshqa turlari o'rtasida eng ommaviy tur hisoblanadi. Ular inson hayoti faoliyatining turli tomonlarini qondirishga mo'ljallangan ob'yekt sifatida miqdori jihatdan ham, xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha ham, ko'p asrlardan buyon rivojlanib kelmoqda. Jamoat binolarining tarhiy va hajmiy muhitining yechimlari turli tumandir. Ular ko'plab faktorlar orqali aniqlanadi: funksional talablari va sig'imiga, shaharsozlik talablariga, iqlimi va milliy jihatlariga. Jamoat binolariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu binoning ma'lum bir funksiyaga egaligidir. Binoning xonalari soni, ularning parametrlari, bino arxitekturaviy kompozitsiyasi ana shu funksiyadan kelib chiqadi. Binolarda o'tadigan funksional jarayonlar turli tumandir. Har bir jamoat binosining asosiy va ikkinchi darajali jarayonlari bo'ladi. Masalan, o'quv binolarida asosiy jarayon o'quv jarayoni, ikkinchi darajali esa umumiy ovqatlanish, bog'cha yaslilarda esa asosiy jarayon bolalar tarbiyasi, ikkinchi darajali esa ovqat tayyorlash, kirlarni yuvish va quritishdir. Jamoat binolarining ba'zi turlarida bir qancha asosiy jarayonlar birga kelishi mumkin, masalan, teatrlarda va klublarda.

Jamoat binolarining xonalari o'zaro aloqasi sxemasi har bir tur uchun alohida bo'ladi. Kompozitsion tarhning asosini bosh xonalar yadrosi va atrofida ikkinchi darajali elementlar guruhidan tashkil topgan strukturaviy tugunlar (vestibulyu guruhi, vertikal va gorizontall kommunikatsiyalar)dan iborat. Jamoat binolari turli tuman bo'lsada, ularning hajmiy tarhiy yechimlari bir necha sxemalarga bo'linadi: yacheykali (katakli), anfiladli, zalli, pavilonli va aralash.

Yacheykali sxemaga koridor atrofida guruhlanadigan bir hil xonalardan iborat bo'lgan binolarga aytiladi. Masalan, o'quv va ma'muriy binolar, shifoxona va poliklinika, oromgohlari va h.

Aralash sxemaga yuqoridagi turli sxemalardan tashkil topgan binolar kiradi. Masalan, madaniyat saroylari, katta kutubxonalar va savdo markazlari va h.k. Har bir jamoat binosi tegishli vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan asosiy xonalar (maktabda sinflar, institutda auditoriyalar, teatrd tomosha zallari, supermarketlarda savdo zallari va h.)ga ega bo'ladi.

Asosiy xonalardan tashqari, har bir jamoat binosi yordamchi xonalar (vestibyullar, foye, koridorlar, zinapoyalar va boshqalarga)ga ham ega bo'ladi. Alohida asosiy va yordamchi xonalarni jamoat binolarining elementlari deb nomlash qabul qilingan. Jamoat binolarining ko'pligiga va turli tumanligiga qaramay, ularning barchasi ko'plab bir turdagi xonalarga ega bo'ladi, bu bir turdagi xonalar ularni umumlashtirish, guruhlariga bo'lish, ularga umumiy xarakteristika berish va loyihalashning asosiy talablari va jihatlari belgilash imkoniyatini beradi.

Asosiy xonalar ularning soniga va bajarish vazifalarining turli tumanligiga bog'liq ravishda ko'proq qiziqish uyg'otadigan, katta miqdorda tashrif buyuruvchilarni sig'diradigan katta o'lchamli zallardir.

Vestibyullar jamoat binosini tashqi muhit bilan bog'laydigan xona vestibyul deb aytiladi. Tashkilot, muassasa, korxona xodimlari, ishchi va xizmatchilari xamda tomosha muassasalariga tashrif buyuradiganlar yoki tomoshabinlar ishchi xonalarga va tomosha zallariga vestibyul orqali o'tishadi. Vestibyul jamoat binosining birinchi xonasi sifatida, uning ishlash xarakteri, uning ahamiyati, arxitekturaviy jihatlari haqida ma'lumot beradi. Shuning uchun vestibyul interyeri ko'rkam, tantanali ko'rinishga ega bo'lishi lozim. Tashrif buyuruvchilarning harakat qo'yiladi. Ayniqsa, bunday talablar tomosha muassasalarining vestibyullariga ko'proq taalluqlidir, chunki bu yerda bir vaqtda tomoshabinlarning katta oqimlari harakatlanib, bunda bu harakatga qarshi va unga kesishuvchi oqimlarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik taqozo etiladi. Qor va yomg'irdan himoyalash maqsadida vestibyulga kirish joyida koziryok yoki ayvonning o'rnatilishini ko'zda tutish lozim.

Foyelar. Tomosha yoki kino seansi boshlanishini kutish va tanaffus paytida dam olishga mo'ljallangan joylar foye deb ataladi. Foye bevosita tomosha zali oldiga joylashtiriladi va zal bilan qulay, to'g'ridan to'g'ri bog'lanishga ega bo'lishi lozim. Ikkinchi tomondan foye vestibyul bilan bog'langan bo'lishi lozim.

Foye katta xona (zal)ni o'zida mujassamlashtirib, u divanlar, kreslolar, stul va jurnallar qo'yiladigan stollar bilan jihozlangan bo'ladi va undan sokin dam olish joylari va antrakt paytida faol dam olish uchun erkin aylanadigan maydon ko'zda tutilishi lozim. Foyega tantanavorlik berish uchun yetarli darajada zarur bo'lgan balandlikni, uni ustunlar bilan devor va shiftlardagi tasvirlar, haykaltaroshlik va boshqa badiiy bezak vositalari bilan pardozlashni ko'zda tutish kerak.

Kuluarlar. Foyening keng koridor ko'rinishida zalni qurshab oladigan qismiga kuluarlar deb ataladi. Ular tomosha zallarida ,jamoaviy majlis zallarida va konferensiya zallarida qo'llaniladi. Kuluarlar ham xuddi foyelar kabi xizmat ko'rsatish xonalariga (bufet, hojatxona va h.)ega bo'ladi. Shunday qilib, kuluarlar va foyelarning vazifasi o'xshashdir. Ular faqat o'z shakli (foye zal shaklida, kuluarlar esa koridor shaklida bo'ladi) va joylashishi (kuluarlar bevosita zalni qurshab oladi) bilan bir biridan farqlanadi.

Gorizontal va vertikal bog'lanish joylari. Gorizontal (koridorlar, galereyalar) va vertikal (zinapoyalar, liftlar, ekskalatorlar) bog'lanish vositalari jamoat binolaridagi turli vazifalarni o'tovchi xonalar va joylarni o'zaro bog'lashga mo'ljallanadi. Koridorning eng uzoq nuqtasidan (eshigidan) zinapoya yoki liftgacha bo'lgan masofa 25 metrdan oshmasligi lozim.

Galereyalar. Issiq iqlimli, kun qisqaroq va issiq davr ko'proq davom etadigan mamlakatlarda gorizontal bog'lanish vositalari sifatida galereyalar qo'llaniladi. Ularga qo'yiladigan talablar zinapoyagacha bo'lgan masofaning nisbatan kengligidadir.

Zinapoyalar. Eng ko'p qo'llaniladigan zinapoya turlari: ikki marshli, va uch marshli zinapoyalar. Zinapoyalarni loyihalashga qo'yiladigan asosiy talablar:

1. Zinapoya maydonchasi marshning enidan kam bo'lmasligi lozim.
2. O'rtadagi marshning eni yon tomondagi marshlar enining yig'indisiga teng bo'lishi lozim.
3. Marshdagi zinalarning soni 3tadan kam, 18 tadan ko'p bo'lmasligi lozim.

4. Marshning og'maligi 1:2 nisbatda bo'lishi kerak.

5. Zinalarning o'lchami 15 30 sm, to'siq balandligi 90 sm bo'lishi lozim. Qutqarish va xizmat ko'rsatuvchi zinapoyalarni faqat yopiq (panjarali, to'siqli)holatda loyihalash tavsiya etiladi.

Nishabli yo'laklar zinapoyalarga nisbatan ko'tarilishni ancha yengillashtiradi, lekin zinapoyalarga qaraganda 3 4 marta ko'p maydonni egallaydi, mutanosib ravishda qurilish ishlarini qimmatlashtiradi.

Ekskalatorlar. Ekskalatorlar o'tkazuvchanlik qobiliyati bo'yicha zinapoyalar,og'ma yo'laklar va liftlarga nisbatan ancha samaraliroqdir. Shuning uchun doimiy ravishda odamlar mavjud bo'lgan bino va inshootlarda keng qo'llaniladi.

Sanitariya uzellari (bo'g'inlari) deb, sanitariya gigiena vazifalarini bajaruvchi va bitta majmuaga birlashuvchi xonalar guruhiga aytiladi: hojatxona, yuvinish xonasi, dush xonasi). Sanitariya uzellari bino yoki inshootning komfortli, toza, ozoda sharoitli doimiy qismi hisoblanadi. Sanitariya uzellari tabiiy va sun'iy yorug'likka, samarali ventilyatsiyaga, namdan izolyatsiyalanishga ega bo'lishi lozim.





Blis-so‘rov savollari

1. Jamoat binolari shahar kompozitsion strukturasini tashkil etishda qanday rol o‘ynaydi?
2. Fazoviy kenglikni qurishning usullari va prinsiplari deganda nima tushuniladi?
3. Jamoat binosini tashkil etuvchi elementlar bino interyerida qanday rol o‘ynaydi?
4. Zinapoyalarning qanday turlari mavjud?

JAMOAT BINOLARI TURLARI. JAMOAT BINOLARI VA INSHOOTLARINI MUHANDISLIK QURILMALARI BILAN JIHOZLASH

Jamoat binolari o'zining asosiy vazifalari, aholi punktlarida joylashishi, rejaviy tuzilmasi, asosiy xonalar tarkibi, arxitekturaviy kompozitsiyasining g'oyaviy badiiy tasvirlanishi bo'yicha tasniflanadi. Jamoat binolari joylashish o'rnini uning ahamiyatiga, unga shahar, tuman, qishloq yoki mikrorayon aholisining ehtiyoji darajasiga, xizmat ko'rsatiladigan aholining toifalariga hamda uning bajaradigan vazifalariga ko'ra aniqlanadi. U yoki bu guruhdagi jamoat binolarining hajmiy rejaviy tuzilmasi ko'p yillik loyiha qurish va ulardan foydalanish amaliyoti natijasida shakllanadi. Bu ko'p yillik shakllanish asosida rejalashning va hajmiy fazoviy kompozitsiyaning optimal tizimlari belgilanadi va bu tizimlardan tipik tarzda foydalanadi. Xuddi shu asosda jamoat binolari tashqi qiyofasining xarakteri, ularning badiiy tasviri ham shakllanadi. Bularning barchasi har hil turdagi jamoat binolarining tipologik xarakteristikasini yaratish uchun shart sharoit hozirlaydi. Bu tipologik xarakteristika jamoat binolarini asosiy tipologik belgilar bo'yicha guruhlariga ajratish imkonini beradi.



Iqlim sharoitlari, tabiat, aholi turmushining madaniy maishiy jihatlari va xalq an'analari jamoat binolarining kompozitsiyasida o'z aksini namoyon etadi, lekin ularning tipologik xarakteristikasini o'zgartirmaydi.

Yuqorida bayon etilganlarga asosanib, jamoat binolarining quyidagi guruhlarini taklif qilish mumkin:

1. O'quv tarbiya va ilmiy muassasalar binolari:

A) Maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari

B) Umumiy ta'lim maktablari

D) Litsey va kollejlari

Ye) Oliy o'quv yurtlari

F) Ilmiy tekshirish muassasalari

2. Tomosha binolari:

A) Kinoteatrlar

D) Klublar Y) Sirklar F) Muzey va ko'rgazmalar

3. Sport inshootlari:

A) Sport inshootlarining tarmoqlari va turkumlari

B) Stadionlar va sport komplekslari

D) Yopiq sport inshootlari

Y) Yordamchi sport inshootlari

4. Savdo, maishiy xizmat ko'rsatish binolari:

A) Savdo maishiy xizmat tarmoqlari va korxonalari

B) Savdo maishiy xizmat binolari

D) Savdo markazlari

Y) To'yxonalar

5. Ma'muriy va kommunal xizmat ko'rsatish binolari:

A) Boshqarma muassasalari va loyiha tashkilotlari binolari

B) Mehmonxonalar

6. Transport inshootlari:

A) Yo'lovchilar va jamoat transportlari uchun inshoot va qurilmalar

B) Avtomobillar uchun to'xtash joylari va garajlar

D) Temiryo'l, avtomobil va havo transporti garajlari

Ye) Metropoliten

7. Davolash, profilaktika binolari:

A) Kasalxona va poliklinikalar

B) Sanatoriyalar va dam olish muassasalari.

Jamoat binolari mikrorayonda, turar joy hududida, shahar yoki qishloqda markaziy holatni egallaydi va arxitekturaviy ansambllarni yaratishda asosiy ob'ekt bo'lib xizmat qiladi. Jamoat binolari o'zining ko'rinishi, turiga hamda rejalashtirilishiga qarab turli tuman bo'lib, binolarning ko'pchiligini tashkil qiladi. Shunga qarab uning uskunalari ham xilma xildir.



Hozirgi zamon arxitekturasi va qurilishida uskunalarni qurilish joyiga va binoning funksiyasiga qarab tanlash taqozo etiladi. Binolarni loyihalash tartibiga qarab barcha turdagi binolarning ustuvorligi va ishlatilish mo'ljaliga qarab toifalarga ajratiladi. Toifaga tegishli bo'lmagan eng yirik, davlat ahamiyatiga molik binolarning xizmat ko'rsatish muddati 100 yil va undan ortiq.

Masalan, Toshkentdagi “Istiqlol” saroyi bunga misol bo‘la oladi.

1 toifadagi binolar shaharlarda ko‘plab quriladigan binolar bo‘lib, 70 yil va undan ko‘proq foydalanish mo‘ljallanadi. Madaniyat saroylari, vokzallar, aeroportlar va boshqalar bunga misol bo‘la oladi.

2 toifadagi binolar shaharda ko‘plab uchraydigan ma‘muriy bino, mehmonxona, restoran kabi binolardan iborat bo‘lib, eng kamida 50 yilga mo‘ljallanadi.

3 toifadagi binolarning xizmat ko‘rsatish muddati boshqalarga qaraganda kamroq bo‘lib, 25 -50 yilga boradi.

Shu bilan birga, har bir binoning uskunalari o‘tga chidamliligiga qarab ham toifaga ajratiladi. Binolarning uskunalari ham uning ishlatilishiga qarab kam qavatli, ko‘p qavatli yoki katta masofali (prolyot) deb ataladi.

Arxitekturaviy kompozitsiyaning konstruktiv yechimlarini hal qilishda quyidagi: tabiiy va sun‘iy muhit, quyosh radiatsiyasi, rang, havo va namlik, shamolning tezligi va yo‘nalishi, yog‘ingarchilik va tovushlar kabi komponentlar juda muhim rol o‘ynaydi.

Jamoat binolarining muhandislik qurilmalari deb, odatda, quyidagilar hisoblanadi: santexnika qurilmalari (isitish tizimi, shamollatish, havo konditsioneri, sovuq va issiq suv ta‘minoti, kanalizatsiya, gaz ta‘minoti), elektr jihozlari, radiotelefon, televidenie, ichki va vertikal transport, sahna ustki ostki jihozlari, sovitish va transport jihozlari (savdo binolarida, teatrlarda) va h.k. Binoning tashqi tomonida foydalaniladigan muhandislik jihozlariga esa alohida e‘tibor berish va uni estetik did bilan loyihalash lozim. Shaxardagi barcha jamoat binolaridagi muhandislik jihozlari ko‘p xollarda tashqi energiya manbasidan harakatga keltiriladi. U xam bo‘lsa, eng ko‘p tarqalgan manba turi: elektr energiyasi, issiqlik energiyasi yoki gazdir.

Jamoat binolarini isitishda, asosan, suv va xavodan issiqlik beruvchi sifatida foydalaniladi. Odatda, bino ichidagi odamlarga qulaylik yaratish xamda yoqilg‘ini tejash maqsadida xona ichidagi xavoning xarorati avtomatik tarzda boshqarib turiladi.

Xona ichida mikroiklim yaratish va shamollatishdan ko‘zda tutilgan maqsad: odamlarga xona ichida qulay sharoit yaratish, sangigiena xamda qurilish uskunalari va ichki muddat xizmat qilishiga erishishdir.

Blis-so‘rov savollari

1. Jamoat binolari o‘zining asosiy vazifalari ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
- 2 Binolar klassifikatsiyasini gapirib bering?
3. Jamoat binolari interyerini yaratishda nimalarga e’tibor berish kerak?
4. Jamoat binolarining muhandislik qurilmalari haqida nimalarni bilasiz?

O‘QUV VA TARBIYA VA MUASSASALARI. O‘QUV VA TARBIYA MUASSASALARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDAGI INTERYERLI MUHIT

O‘zbekiston ta’lim maktablarining asosiy turi bu bolalar 7 yoshdan boshlab 1-11 sinflarda o‘qitiladigan 11 yillik tayanch maktablaridir. Maktabning maksimal sig‘imi qoidaga ko‘ra 40 ta sinfdan oshmasligi lozim(ya’ni, 9ta sinfdan iborat bo‘lgan 4ta oqim va 2 sinfdan iborat 10chi va 11chi sinflar). Maktablar asosiy xonalarining orientatsiyasi sinflar va kabinetlarning janubiy va janubiy sharqiy orientatsiyasini ko‘zda tutishi tavsiya etiladi,tasviriy san’at va chizmachilik, informatika kabinetlari uchun shimoliy orientatsiya maqulroqdir. Shimoliy orientatsiyani boshlang‘ich sinflar va biologiya laboratoriyalar uchun qo‘llash mumkin.

Derazalarning 75 285 azimutga qaratilgan orientatsiyasida isib ketishning oldini olish maqsadida va o‘quv joylarining to‘g‘ri insolyatsiyasini tiklash uchun quyoshdan himoyalash ko‘zda tutilishi kerak. Quyoshdan himoyalaniish qurilmalarini tanlash mahalliy sharoitlar bo‘yicha loyihaga asosan belgilanadi. Oshxonalarining issiq sexlari uchun shimoliy orientatsiya ma’qulroqdir. Kam qavatli binolar (bir va ikki qavatli) uchun quyoshdan ximoyalaniishni ko‘klamzorlashtirish tadbirlari orqali ta’minlash mumkin (daraxtlarni bino derazalaridan 10 m dan kam bo‘lmagan masofada o‘tkazish talab qilinadi).

Yer uchastkalariga qo‘yiladigan talablar. Maktablar va internat maktablar yer uchastkalarining joylashishi va o‘lchamlari ShNK 2.01.07 ga muvofiq qabul qilindi. Maktablar va internat maktablarning yer uchastkalari quyidagicha: jismoniy tarbiya-sport; o‘quv tajriba; dam olish va xo‘jalik zonalarikabi asosiy funksional zonalarining ko‘zda tutilishi taqazo etiladi.Maktablar va maktab-internatlarning ko‘klamzor o‘chastkalarining maydoni uchastka maydonining 30-40% ini tashkil qilib, ko‘klamzor maydonga dam olish, jismoniy tarbiya va o‘quv tajriba zonalarining ko‘klamzor maydonlari xamda ximoyaviy polosalar va maktab o‘chastkasi atrofidagi yashil to‘siqlar xam kiradi.


Maktab, maktab internatlar va maktab qoshidagi internat binolaridagi xonalarning tarkibi va maydoni funksional tashkiliy va pedagogik talablardan kelib chiqqan holda o'quv rejasidagi o'quv xonalarining soatbay yuklamasini hisobga olgan holda hisoblashlar orqali aniqlanadi. Maktab binolari tiplarining nomenklaturasi mutlaqo xilma-xildir. Bu ularni qishloq rayonlarida bo'lgani kabi shahar sharoitlarida ham komplektovkalash sharoitlarining ko'p qirraligi bilan tushuntiriladi. Ammo maktab binolarining sig'imiga (qancha o'quvchiga mo'ljallanganligiga) bog'liq bo'lmagan holda ulardagi asosiy o'quv va yordamchi xonalarning tarkibi maktablarning hamma tiplari uchun bir xil bo'lib qolaveradi, bunda faqat bu xonalarning soni va yuzasi bilan farqlanish mavjud bo'lishi mumkin. Asosiy o'quv xonalari o'z tarkibiga: sinflarni, o'quv kabinetlarini, qo'l mehnati ustaxonasini, universal xonalarni, metall va yog'ochni qayta ishlash bo'yicha kombinatsiyalashgan ustaxonalarni kiritadi; rekreatsiya – tanaffus paytlarida o'quvchilarning dam olishlari uchun mo'ljallangan joylar, xonalar, faollik zali – ma'ruza auditoriyasi – umum maktab tadbirlar: yig'ilishlar, majlislar, ma'ruzalar, bayram kechalari va boshqa tadbirlarni o'ttkazishga mo'ljallangan joy (xona), ginastika zali va oshxonani kiritadi.

Maktabning o'quv dasturi shuni hisobga olgan holda tuziladiki, to'qqiz yillik ta'lim olish davomida o'quvchi nafaqat dasturnifanlar bilan, balki o'zini qiziqtirgan mashg'ulotlar – mehnat bo'yicha to'garaklarga, sport seksiyalariga qatnashishi va badiiy ijod qilish mashg'ulotlari bilan ham shug'ullanishi lozim.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun tez toliquvchanlik, e'tiborni jamlashtirishning nodavomiyligi xarakterlidir. Bolalarning bunday guruhlar uchun mo'ljallangan maktablarda o'quv-tarbiyaviy ishlariga alohida sharoitlar yaratiladi va mashg'ulotlarning alohida tartibi (rejimi) o'rnatiladi: kuniga to'rttadan ortiq bo'lmagan dars o'tilishi lozim, ikkinchi darsdan keyin katta tanaffusning bo'lishi shart-sharoitlanadi va darslar orasidagi tanaffuslarning har biri 15 minut davom etishi taqozo etiladi, kuni uzaytirilgan guruhlardagi o'quvchilar uchun kunduzi uxlash vaqti ko'zda tutilgan bo'lishi lozim.

Yuqori sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan o'qitishning kabinetli sistemasi, o'quv kabinetlari bo'yicha ko'chish oqimi bilan xarakterlanadi.

Umumta'lim maktablari ishining bunday spesifikatsiyasi o'quvchilarning yoshi bilan xarakterlanadigan jihatlarni hisobga olgan holda ularda puxta tashkil etilgan fazoviy kenglikni talab etadi. O'quv jarayoni uchun eng yaxshi komfort sharoitlarni ta'minlash maqsadida maktablarning xajmiy-fazoviy strukturasi funksional belgilari bo'yicha bir xil bo'lgan xonalarni alohida zonalarga guruhlashtirish asosida tuziladi.



Umumta'lim maktabi tarxiy strukturasi funksional zonalashtirishga doir misol.

Sxemaga muvofiq ravishda maktabning hamma o'quv-yordamchi xonalari to'rtta funksional zonalarga birlashtiriladi: 1 – vestibulli zona, 2 – I-IV-sinflar zonasi, 3 – V-XI sinflar zonasi, 4 – ma'muriy-texnik vazifalarni bajaruvchi xonalarni o'z ichiga olgan umummaktab xonalari.

Maktab rejaviy yechimida I-IV-sinf xonalarini (o'quvchilarining) V-XI sinf xonalaridan (o'quvchilaridan) izolyatsiya qilinishi muhim sharoit deb hisoblanadi. Bunday izolyatsiya maktablarda ularni qavatlarga taqsimlash (vertikal bo'yicha) bilan yoki 1-qavat sathida taqsimlash (gorizontal bo'yicha) bilan amalga oshiriladi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni yaxshilashga qaratilgan tashkiliy xarakterdagi savollar va masalalarni yechishda atrof-muhit estetikasiga katta e'tibor ajratiladi. Chiroyli va did bilan tashkil etilgan maktab muhiti, undagi sinflar, kabinetlar, laboratoriyalar, rekreatsiyalarning interyerlari kayfiyatni ko'taradigan, toliqishni bartaraf etadigan va o'quv mashg'ulotlariga bo'lgan

qiziqishni oshiradigan sharoitlarni yaratadi, shu sababli maktab binolari talab etadigan interyerli muhitning estetik takomillashtirishga bo'lgan yuqori etiborni boshqa hech qanday jamoat binolari maktabchalik talab etmaydi.

Maktab interyeri xonalarning ikkita asosiy – o'quv va rekreatsion guruhlaridan tashkil topadi. Hamma sinflar, laboratoriyalar, kabinetlar, auditoriyalar, sport zallari va majlis zallari agar ulardan ma'ruza auditoriyasi sifatida foydalanilsa, o'quv xonalari guruhiga kiritiladi. Rekratsion xonalar tanaffuslar paytida dam olishga mo'ljallanadi, o'quv vaqtidan tashqari vaqtda ular ham o'quv xonalari bloki tarkibiga kiritiladi. Ma'lum maqsadlar uchun mo'ljallangan, alohida izolyatsiya qilingan xonalar maqbul tartib va ular ichida eng zamonaviy komfort sharoitlarning yaratilishini talab etadi. Yorug'lik komfortini, akustik rejimni tashkil etish, maxsus jihozlarni o'rnatish va nihoyat xonaning maqbul shaklini hosil qilish – bu hammasi eng zarur bo'lgan elementlar sifatida interyer badiiy obrazining qismiga aylanadi.

Maktab muhitiga qo'yiladigan talablar:

O'quv jarayonining o'tkazilishiga qo'yiladigan talablar.

1. Sinf xonasining o'quv jarayoniga muvofiq ravishda jihozlanishi: berilgan o'lchamdagi doska; o'quv stol va stullar; metodik materiallarni saqlashga mo'ljallangan shkaflar; materiallarni namoyish qilish uchun maxsus stendlar.

2. Quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lgan holda sinfxonaga 30-40 o'quvchini joylashtirish: doska yonida tushuntirish; yozma ishlarni o'tkazish; guruhli mashg'ulotlarni olib borish; umumsinf o'yinlarini (boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun) tashkil etish.

3. O'qitishning texnik vositalaridan foydalanish: rangli diapozitlarni, kinofilmlarni ko'rsatish; televizor (televidenie) ya'ni teleko'rsatuvlar bo'yicha dars o'tkazish.

4. "Uzaytirilgan kun" mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar. Bu maqsadga erishish uchun individualguruhlar mashg'ulotlarini ta'minlaydigan sinf xonani eng ko'p xilma-xillikda transformatsiyalash.

Gigienik talablar

5. Yorug‘lik komforti: yoritilganlikning teng me‘yoriligi 1:5 nisbatdan oshmasligi lozim (ruxsat etiladigan yorug‘lik kontrastlari); doskaning uzoq-yaqinligi; ko‘zni qamashtiradigan yorug‘likning bo‘lmasligi.

6. a) yorug‘lik tushadigan tomonlar bo‘yicha sinf xonalarining maqbul (optimal) orientatsiyasini ta‘minlaydigan – sharqqa va shimolga, bir smenali mashg‘ulotlarda g‘arbga qaratilgan insolyatsiya;

b) quyoshdan himoyalash;


v) shamollatish va sun‘iy ventilyatsiya.

Fiziologik talablari oliy asab faoliyati va psixologiya

7. a) Sinf intereri boshqa barcha xonalardan farqli ravishda o‘zining “chexrasi”ga ega bo‘lmog‘i lozim. U yetarlicha yorqin (yaqqol) o‘ziga xos xarakteristikaga ega bo‘lishi kerak;

b) e‘tiborning jamlashtirilishi. Halaqit beruvchi hamma tashqi salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni bartaraf etish (shovqin, sinf xonalarining oldida yurishlar, kerak bo‘lmagan jadvallar, yozuvchilar, shoirlar va h.k.).

Keng doirali talablar orasidagi alohida funksional o‘zaro bog‘lanishlarni o‘rganish ko‘rsatadiki, sinf xona fazoviy kengligi yechimlari bilan shart-sharoitlanadigan omillar sinf xonasi interyeri uchun hal qiluvchi omil – sinf xonasining tabiiy yorug‘lik bilan yoritilishi aniqlab beradi. Aynan ular tugallangan ma’noda sinf interyerini aniqlab beradi, ko‘p hollarda esa maktab binosining butun kompozitsion usulini ham aniqlaydi. Masalan, sinf xonasining yuqoridan qo‘shimcha tabiiy yorug‘lik bilan yoritilishi maktablarning bir qavatli qurilishini yoki pog‘onali kompozitsiyada qurilishini ilgari suradi. Burchakda joylashgan sinf xonalari faqat bloklangan usulda bo‘lishi mumkin yoki bir sinfni ikkinchisi nisbatan siljitishda bo‘lishi mumkin.



Yuqoridan yoritiladigan turdagi sinf xonaga doir misol.

Katta bo‘lmagan xonalarning bir-biridan eng yorqin esda qoladigan farqlanishi shakl bo‘lishi mumkin ya’ni xonalar bir-biridan o‘zlarining shakllari bilan farq qilishi mumkin. Shuning uchun aynan shakl mashg‘ulotlariga bo‘lgan moyillik darajasi dinamik stereotipning ishlab chiqilishi bilan bog‘langan. Uydagi sharoitlardan farq qiladigan xarakterli, ko‘rkam interyerga ega bo‘lgan sinf xonalarini yaratish zaruriyati tug‘iladi.

Agar massali (ko‘p sonli) turar-joy binolari qurilishida ustuvor tarzda yuzaga kelgan an‘analarni e’tibor bilan ko‘rib chiqsak, ularda xonalarning to‘g‘ri burchakli shakli yagona ekanligiga iqror bo‘lamiz, lekin maktab sinf xonalari ko‘p qirrali (ko‘p burchakli) trapesiya va boshqa ancha murakkab shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Chet el amaliyotida sinf xonalarining har xil shakllariga ega bo‘lgan ko‘p variantlari kuzatiladi.


Qator rivojlangan g‘arb mamlakatlarining arxitektoralari sinfning murakkab konfiguratsiyaga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq keladi deb hisoblashadi, chunki konfiguratsiya har xil bo‘lganda differentsiallashtirilgan qiziqarli fazoviy kenglik hosil qilinadi. Sinf xona interyerining mashg‘ulotlar paytida o‘quvchilarning e’tiborini jamlashga qo‘yiladigan talablarga javob berishi taqozo etiladi.



Umumta'lim maktabi binosida galereyani qurish usuliga doir misol (chet el tajribasi)

O'quvchini chalg'itmaydigan muhit yaratilmog'i lozim. buning uchun sinf interyerini tashkil etadigan elementlar yagona birlikka (butunlikka) keltirilmog'i lozim, ularning sonini esa minimumlashtirish taqozo etiladi.






To'g'ridan-to'g'ri (yorib o'tuvchi) faol shamollatishga mo'ljallangan o'quv bloklarining tarixiy yechimlariga doir misollar: a – sinf xonalarini koridor-larga nisbatan bir tomonlama joylashtirish; b – ikki tomonlama derazalarga ega bo'lgan koridorsiz sistemadagi sinf xonalar.

Har bir o'quv yurtida, ayniqsa maktabda ish tartibida o'quvchining aqliy jihatdan toliqqanligini bartaraf etish (muvozanatlashtirish) va uning organizmining funksional jarayonlarini faollashtirish maqsadida tanaffuslarning tashkil etilishi ko'zda tutiladi. Buni amalga oshirish uchun har bir seksiyada yoki o'quv blokida keng koridorlar va zal ko'rinishida rekreatsion joylarning bo'lishi ta'minlanadi. Issiq iqlimli rayonlarda rekreatsiya ochiq tipda yoki galeriya ko'rinishida bo'lishi mumkin. O'zbekiston maktablari uchun respublika hududida ob-havoning yuqori haroratda bo'lishi va yilning issiq fasllari maktab o'quvchilari organizmiga bu faktorning zarali ta'sirini yengillashtirish katta ahamiyatga ega bo'ladi. Maktab qurilishi amaliyotida bu muammoni yechish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar o'quv xonalarini koridorlarga nisbatan bir tomonlama joylashtirish yo'li bilan mustaqil tabiiy shamollatish uchun sharoitlarni rejaviy vositalar bilan ta'minlashda o'z aksini topadi.

Rekreatsiya tipi va uning o'quv xonalari bilan bog'lanishi (aloqasi) butun maktabning va xususan uning interyerini ham fazoviy tashkil etilganligini xarakterlaydi. Rasmda bunday uyg'unliklarning turli usullari tasvirlangan. A guruhida har bir sinf yoki ikkita sinf o'zining rekreatsiyasiga ega. Odatda bu rekreatsiya sinfga bevosita tutashgan ochiq havoda joylashgan kichik hovlida

tashkil etiladi. Bunday usul bir qavatli binolar uchun xarakterli va undan boshlang'ich sinflarning foydalanishi maqsadga muvofiqdir.



Rekreatsiya turlari. A- sinfga qaratilgan rekreatsiya, B – sinflar guruhiga qaratilgan rekreatsiya, V – maktabga qaratilgan rekreatsiya, G – sinflar guruhi va maktabga qaratilgan qo'shma (aralash) rekreatsiya.


Bunday rekreatsiya boshlang'iya sinf o'quvchilarini yuqori sinf o'quvchilaridan ishonchli himoya qilishni va ularning ochiq havoda bo'lishlarini ta'minlaydi.

B guruh zamonaviy maktab qurilishi uchun eng tipik bo'lgan guruh sanaladi. Bu rekreatsiya sinflar guruhi uchun mo'ljallangan va u tanaffus paytida o'quvchilarning yoshlari bo'yicha ajralish va bolalarning bu guruh chegarasida muloqotda bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Bir nechta sinflarning bunday sistemadan rekreatsiyasi tabiiyki ko'p bo'ladi, u o'zining kattaligi (o'lchamlari bo'yicha) va shakli bo'yicha fazoviy kenglikning turli-tumanligini va zarur bo'lgan kontrastligini hosil qilishi mumkin. Bunday rekreatsiyalarning usul va joylashish o'rnini bo'yicha turli usullari bo'lishi mumkin – sinf bilan bir sathda


joylashgan rekreatsiya, uchastkaga qaratilgan rekreatsiya, G-shakldagi rekreatsiya, hovlini hosil qiluvchi rekreatsiya, qavatlardagi rekreatsiya va h.k.

V guruhdagi rekreatsiyalarga zalli rekreatsiyalar tegishli bo‘lib, ular butun maktab uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Tabiiyki bunday usul katta maktablar uchun xarakterlidir. Bunday rekreatsiya ikkinchi qavat bo‘yicha ochiq galeriyali, ikkita rangli zalning boy fazoviy tuzilishi, yuqoridan yoritilishi va zinapoyalarning effektiv o‘rnatilishi bilan diqqat-e’tiborni o‘ziga tortadi. Zalli rekreatsiyalar turli iqlimli retonlardagi maktablar uchun ham xarakterlidir. O‘tgan asrning oxirgi yillarda O‘zbekistonning yuqori changli-shamolli rayonlaridagi qurilishlar uchun ichki rekreatsiya ega bo‘lgan maktablarning ikkita tipi ishlab chiqildi.

A




Б




Chang-shamol faolligiga ega rayonlarda quriladigan maktablarning tarxiy yechimlariga doir misollar: *a* – o‘quv xonalarining guruhi uchun yopiq hovlili fazoviy kenglik; *b* – har bir sinf xonasi uchun mo‘ljallangan yopiq hovlili fazoviy kenglik.

Mohiyati bo‘yicha bu ikki variant ham bir xilrejaviy strukturaga ega bo‘lib, ular orasidagi farq shundaki, birinchi variantda faqat uchta ichki hovliga ega bo‘lgan fazoviy kenglik ko‘zda tutilgan, ulardan har biri sinflar guruhi uchun mo‘ljallangan, ikkinchi variantda esa sinflar bo‘yicha taqsimlangan bir-nechta mayda hovlilarning bo‘lishi ko‘zda tutilgandir. birinchi variantga tegishli bo‘lgan maktablarda katta komfort yaratish uchun o‘quv bloklari ichida ochiq hovlili fazoviy kengliklarning atriumlarning bo‘lishi loyiha orqali ko‘zda tutilgan. Bunday atriumlarda o‘quvchilarning yilning sovuq fasllarida dam olishlari inobatga olingan. Shimolda zal tipidagi atriumli rekreatsiyalar qo‘llaniladi. Bunday yirik rekreatsiya-zal ko‘cha chiqish mumkin bo‘lmagan izg‘irin sovuqda turlicha dam olishni ta‘minlash imkoniyatini beradi. Ancha yumshoq iqlimga ega bo‘lgan mamlakat Finlandiyada umumiy rekreatsiya ochiq havoga, hovliga o‘tish deb hisoblanadi. Janubda esa umumiy rekreatsiya quyoshdan himoyalangan katta fazoviy kenglik bo‘lishi mumkin. Bunday rekreatsiya turli fazoviy yechimlarga ega bo‘ladi.



Atriumli turdagi zalli rekreatsiya. A – tarx, B- atrium intererining umumiy ko‘rinishi



Maktab intererining atrofdagi tabiiy muhit bilan bog'lanishiga doir misol.

Psixologlar va vrachlarning fikriga ko'ra qiziqarli atrof-muhitga ega bo'lgan tabiat bilan har kuni aloqada bo'lish bolalarning biologik rivojlanishiga, ijobiy his-tuyg'ular (emotsiyalar) ning hosil bo'lishiga, aqliy va jismoniy jihatdan chiniqishlariga shart-sharoitlar yaratadi. Maktab binolari arxitekturasini rivojlantirishning yo'nalishlaridan biri ularni tabiiy atrof-muhit bilan ajralmas yagonaligini hamda tabiat va binoning o'zaro bir-birining ichiga kirishini ta'minlashdan iboratdir. O'zaro kirishish nafaqat hajm tashqi effektining tabiatga qaratilishiga tegishli, balki interyerning ichki tomondan tabiatga ochilganligi va tabiat elementlarining maktab binosining interyeriga kirib borishiga ham tegishlidir. Shakllari va mazmun-mohiyati bo'yicha turli-tuman bo'lgan arxitekturaviy muhit bolalarga ma'lum bir ijobiy emotsional zaryad beradi va aksincha bir-biriga yaqin bo'lgan hamda bir jinsli muhit maktabga, o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirmaydi. Arxitekturaviy komfort, qulaylik, shinamlilik, go'zallik, kun davomida arxitekturaviy muhitning ko'p qirrali almashinuvi o'quvchilar ongli faoliyatining psixologik stimullashuvi deb hisoblanadi.

O'quvchilarning psixologik faolligini oshiruvchi arxitekturaviy muhitlarga quyidagilar kiradi: mashg'ulotlarning kontrastlik prinsipi bo'yicha turli


vaziyatlarda navbatlanishini hisobga olgan holda fazoviy kenglikning turli talqin qilinishi; bino interyerining tabiat bilan bog‘langanligi, binoning landshaftga kirib borishi; o‘quv xonalari fazoviy kengligining transformatsiyalanishi; xonalar kompleksi (majmuasi) fazoviy kengligining differensiallashuvi va integrallashuvi; alohida xonalar va xonalarining fazoviy tashkil etilganligini o‘zgartirish uchun mobilli transformatsiyalanadigan mebellar va jihozlarning qo‘llanishi.

Fazoviy kengliklarning o‘z-o‘zidan tashkil etilishi va ularda asentlarning joylashuvi xayratlanadigan myurprizlarni yaratmog‘i lozim, bunday syurprizlar tashrif buyuruvchilarning qabul qiluvchanlik didlariga muvofiq kelishi uchun vaqt bo‘yicha yaxshi hisoblangan va to‘g‘ri proporsiyalangan bo‘lishi lozim. Fazoviy kenglikda harakatlanish yoki fazoviy kenglikda harakatlanishning rassom tomonidan sehrgarlik bilan yaratgan illyuziyasi zamonaviy arxitektura, skulptura, tasviriy san‘at va dizayn asarlarining qudratli kuchga aylanib bormoqda. Hozirgi vaqtda binolarning fasad qismlarini ochish va “qirqish” yo‘li orqali katta yuzalarni oyna bilan qoplash evaziga binolar arxitekturasida yaltiroqlikning hosil qilinayotganligini kuzatish mumkin. Bu yaltiroqlik fazoviy kenglikning suzuvchi illyuziyasini hosil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda bino go‘yoki bug‘lanayotgandek, fazoviy kenglik ichkariga va tashqariga ko‘chayotgandek (siljiyotgandek) tuyuladi.

Bepayon tashqi fazoviy kenglikning shakli arxitekturaviy fazoviy kompozitsiyaning devorlar chegarasi bilan tugallanmaydigan o‘quv xonasi chegarasi ortidagi atrofda davom etadigan qismiga aylangandek bo‘ladi. Maktab interyeri kontrastdan kontrastga qarab harakatlanadigan ishtiyoqli ehtiyojini qondirmog‘i lozim, bunday kontrastlik interyerli muhitga alohida hayotiylik beradi (bag‘ishlaydi). Insonda, ayniqsa bolalarda taassurotlar (tasavvurlar)ning doimiy almashinib turishiga muhtojlik seziladi, ya’ni ular doimo tasavvurlarning o‘zgarib turishiga muhtoj bo‘ladilar.

Bolalar o'zlarini o'rab turgan olamni va uning tashkil etuvchilarini ularning fizik o'lchamlari qarab va fikrlash orqali qabul qiladilar. Bolalar katta bo'lmagan harakatlarda ham o'zlarini yaxshi his qiladilar.

Ularga harakatning tez-tez shakl almashtirishi zarurdir. Bu borada ancha murakkab va shu bilan birga effektiv deb predmetli skulpturaning va kichik shakllarning kup rejali dinamik qurilishi aytish mumkin. Kichik arxitekturaviy shakllarni bino ichiga, ochiq, yarim ochiq va yopiq hovlilarga hamda uchastkalarga joylashtirish mumkin. Kichik arxitekturaviy shakllarga quyidagilar kiradi: relefli dekorativ devorlar, strukturaviy skulpturalar, xumlar, geometrik hajmli kompozitsiyalar, favvoralar, dekorativ suv havzalari, uzun kursilar, chiroqlar. Kichik arxitekturaviy shakllar talab etiladigan emotsional atrof-muhitni yaratishda muhim rol o'ynaydi, o'quvchilarga yaxshi estetik didning rivojlanishini shart-sharoitlaydi, go'zallikni his qilishga chorlaydi. Shu bilan bir qatorda maqsadli yo'naltirilgan kichik arxitekturaviy shakllar ham keng qo'llaniladi: sakrash, oshib o'tish, sirpanish uchun qurilmalar, kamondan o'q otish maydonlari va h.k.




Maktab ochiq hovlisidagi kichik arxitekturaviy shakllardan biri.

Monumental dekorativ san'atning elementlari interyerlarni boyitadi va xonalarni individuallashtiradi. Joylashish o'rni, mazmun-mohiyati va shakli bo'yicha yaxshi o'ylangan monumental dekorativ san'at elementlari o'quvchini estetik tarbiyalashga shart-sharoit yaratadi, ularda didning shakllanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Maktab dekorining estetik funksiyasi bilan bir qatorda unga ma'lum me'yorda ongli va tarbiyaviy ahamiyat ham tegishlidir. Maktab interyeriga monumental va dekorativ elementlarini kiritishda aksentlarni ajratish

mutlaqo muhim ahamiyat kasb etadi. Monumental targ'ibot uchun eng ma'qul bo'lgan joylarga vestibul, rekreatsiya, faollik zali, oshxona (o'quvchilarning qisqa vaqtli bo'lish joylari) ni kiritish mumkin. Maktab interyerlaridagi dekorativ panno ham ancha qiziqarli bo'lib, ular ham teng ravishda estetik, tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi.

Monumental va dekorativ elementlar o'quv seksiyalarini o'ziga xos belgilash (tanishish) simvollarini sifatida xizmat qiladi, bolalarda ularni o'rab turgan olamning turli-tumanligiga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi. Bularning hammasi shaxsning shakllanishiga emotsional ta'sir ko'rsatadi.



Mozaykali rekreatsiyali devor detali

Shunday qilib, maktablarning interyerlarini shakllantirish va rejaviy yechimlarini tashkil etishga keltirilgan misollarning hammasi o'quvchilar uchun sog'lom hayot tarzini ta'minlovchi, ko'tarinki kayfiyat bag'ishlovchi, umuman olganda o'qishga ma'suliyat bilan yondashishga chorlovchi maksimal komfort sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan eng yaxshi yechimlarni topishning natijasi deb hisoblanadi.

Blis-so'rov savollari

1. O'quv tarbiya va ilmiy muassasalar binolariga qanday talablar qo'yiladi?
2. Maktab muhitiga qanday gigienik talablar qo'yiladi?
3. Asosiy o'quv xonalari o'z tarkibiga nimalar kiradi?
4. Umumta'lim maktabi tarhiy strukturasini funksional zonalashtirish qanday amalga oshiriladi?

TOMOSHA KO'RSATISH VA TRANSPORT BINOLARI. KINOTEATR INTERYERINI TASHKIL QILISH. TEATR VA SIRK BINOLARI. VOKZAL BINOLARINING INTERYERI

Kinoteatrlar tomoshaba ko'rsatuvchi binolarning eng ommaviylashgan turidir. Ko'p filmlar eni 35 mm bo'lgan, kadr tomonlari "klassik" nisbatdagi (1:1,37) oddiy tasmada va 1: 2,35 nisbatdagi keng ekranli tasmalarda namoyish etiladi. Me'yorlarda belgilanishicha, sig'imi 800 o'ringacha bo'lgan kinoteatrlarda ham oddiy, ham keng ekranli filmlarni namoyish qilish uchun ular keng ekran bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Me'yoriy (normativ) xujjatlarda kinoteatrlarning quyidagi asosiy turlari qayd etiladi:

- Bir zalli – 150, 200, 300, 500, 800 o'rinli;
- Ikki zalli – 200x300, 300x500, 500x800 o'rinli;
- Uch va to'rt zalli – 100x200x300 (500), 100x200x200x300 (500) o'rinli;
- Bolalar uchun – 300 va 500 o'rinli;
- Klub xonalari bilan birga 150 va 200 o'rinli (qishloq joylari uchun);
- Kafe (50 o'rinli) va klub xonalari bilan birlashgan 200x300 o'rinli, 100 o'rinli kafesi bilan 300x500 o'rinli;
- Yozgi yopiq – 500 va 800 o'rinli;
- Yozgi ochiq (kinomaydoncha) – 500, 800, 1200 o'rinli;
- Kombinatsiyali: 300 o'rinli 500 o'rinli kinomaydonchasi bilan;


Kinoteatrlar sig'imi shaharsozlik me'yorlari bilan belgilanadi: hozirgi davrla yirik shaharlar uchun har 1000 kishiga 20-30 o'rin, kelgusi davr uchun – 30-35 o'rin ajratiladi.

Kinoteatr uchun ajratilgan uchastka uncha katta bo'lmaydi, uning kichik yoki qattaligiga qarab 0,3 dan 7 gacha beriladi.

Funksiya va kompozitsiya jihatdan binoning o'zagini tashkil etuvchi tomoshabin zali kinoteatr kompozitsiyasini yaratishda muxim rol o'ynaydi. Zalning tomoshabinlar tomonidan idrok qilib olish qonun qoidalarga bog'liq

bo‘lib, binoning qirqimi va tarxi ham shunga binoan tuziladi. Ekranni to‘siqsiz qurish uchun orqada o‘tirgan tomoshabinni ekranning pastki qirrasiga qaratilgan ko‘z nuri oldinda o‘tirgan tomoshabinnikiga nisbatan 12 sm baland bo‘lmog‘i kerak. Kinoteatrni uning bo‘ylama profiliga qarab baholaydigan bo‘lsak, amfiteatrli va balkonli zallar eng ma‘qul variantlar hisoblanadi. Oval va oltiburchak – tomoshabin zalining tarx yechimida eng maqsadga muvofiq shakllar hisoblanadi. Aylanma panorama kinoteatrlarda har bir ekran uchun ikkitadan kinoproektor o‘rnatiladi.

82



Teatrlar – eng qadimiy jamoat binolari bo‘lib, antik ochiq teatrlar, uyg‘onish davrida paydo bo‘lgan chuqur sahnali teatrlar, xalq teatrlarning turli shakllari zamonaviy spektakllarni ko‘rsatish uchun manba bo‘lib, xizmat qilgan. Zalning to‘rida joylashganligi sababli, odatda bunday sahna chuqur sahna deb yuritiladi.

Teatr binosi xonalari quyidagi komplekslarga taqsimlanadi:

- a) Tomoshabin kompleksi;
- b) Namoyish kompleksi (tomoshabin zali);
- c) Sahna kompleksi;
- d) Ishlab chiqarish xonalari va rezerv omborlar.

Tomoshabin kompleksiga quyidagilar kiradi: kassa vestibyuli, kirish vestibyuli, taqsimlovchi vestibyul, garderoab, kiyimlarni almashtirish xonasi, foye, kuluarlar, tamaddixona, muzey, chekish xonalari, xojatxonalar, kassalar va navbatchi ma'mur xonalari, bosh ma'mur xonasi, garderoab xizmatchilari va farroshlarning dam olish xonasi va h.k.

Namoyish kompleksi tarkibiga quyidagilar kiradi: tomosha zali, avassena, yon kuluarlar, tryum (sahna osti), o'rama deklaratsiyalar seyfi, sahnaning ustki qismi, rioproeksiya xonasi, sahnani yoritish xonasi, sahna va zal yorug'ligini boshqarish apparatxona, o'rta va yon lojalar, ovoz apparatxonalari, suxondon va tarjimon bo'lmalari. Namoyish kompleksining o'zagini sahna tashkil etadi. Kolosnikli va boshqa tipdagi (panoramali, uch tomoni ochiq, sahna-arena va boshqalar) sahnalar mavjud.

Teatr binosini ikki kompleksga bo'lingan xonalar tashkil etadi. Biri – namoyish kompleksi bo'lib, undan sahna harakatlari ustida ish olib boriladi va spektakl namoyish etiladi. Ikkinchisi – tomoshabin kompleksi bo'lib, unda teatrga kelgan tomoshabinlar kutib olinadi, joylashtiriladi va ularga tegishli xizmat ko'rsatiladi.

Tomoshabin zali xamda chuqur sahnaning umumiy ko'rinishi va ichki tuzilishlarini belgilovchi asosiy ko'rsatkich bu – tomosha maydonining o'lchamlaridir.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'pgina spektakllarda sahna harakatlarining faol qismi eni 8m dan 14m gacha va chuqurligi 5m dan 10 m gacha bo'lgan maydonchada kechadi.


Sahna eni tomosha maydoni kengligi yoki tomoshabin o'rindiqlarini, dekoratsiyalarni, yoritish vositalarini joylashtirish va spektaklni joylashtirish va spektaklni bimalol sahnalashtirish uchun yetarli bo'lgan kenglikdan kelib chiqadi. Sahna balandligi fon bezaklari va hajmiy dekoratsiyalarni bir necha qavat balandlikda joylashtirish imkoniyatini yaratib berishi zarur.

Tomoshabin zali teatr binosining kompozitsion elementi hisoblanadi. Tomoshabin zalining 2 turi mavjud – ko'p qavatli va amfiteatrli.

Teatr binolari shaharning markaziy qismlarida joylashishi va shu markaz ansamblini tashkil etishda o'z hissasini ko'shmog'i kerak. Teatr binosi xonalari quyidagi komplekslarga taqsimlanadi:

- A. Tomoshabin kompleksi;
- B. Namoyish kompleksi (zal-xona);
- C. Sahna kompleksi;
- D. Ishlab chiqarish xonalari va rezerv omborlar.

Teatrning ishlab chiqarish xonalari va yordamchi omborlari, qoida bo'yicha, teatr binosi yaqinida alohida korpusda joylashtiriladi. Ba'zi hollarda bunday xonalar teatrning asosiy binosiga o'rnatilgan bo'ladi.



Sirklar katta shaharlar uchun loyihalashtiriladi. Ular shakli va silueti bilan ajralib turuvchi betakror jamoat binolari tarkibiga kiradi. Ular piyodalar va transport vositalari uchun qulay bo‘lgan kirish yo‘llari bilan ta’minlanishi kerak.

Kompozitsiya jihatidan sirknlarni shartli ravishda ikkita asosiy – tipga bo‘lish mumkin: birinchi tipi tomoshabin qismiga xos bo‘lib, tomoshabin qismi va unga birlashtirilgan ishlab chiqarish qismlaridan tashkil topadi. Kompozitsion jihatdan hamma tomonlama bir xil idrok qiluvchi sirklar ikkinchi tipga xos bo‘lib, asosan shahar maydonlari va hiyobonlarining markazlariga joylashtiriladi.

Yuqori qiya holda ko‘tarilib boruvchi tomoshabinlar qatorlaridan iborat bo‘lgan amfiteatr manejnig gir atrofini o‘rab turadi. Amfiteatrning qiyaligi har bir tomoshabinning manejni bemalol kuzata olish imkonini hisobga olgan holda belgilanadi. Zal gumbazi, odatda konus yoki sferik segment shakliga ega bo‘ladi. Gumbaz markazida manej ustida 18-20 m dan kam bo‘lmagan balandlikda manej diametriga teng bo‘lgan diametrli xalqa joylashtirilib, unga gimnastika jihozlarini bog‘lab va osib qo‘yish uchun ishlatiladigan kolosnikli panjara o‘rnatiladi. Estrada odatda, artistlarning asosiy chiqish joyining ustki qismini egallaydi. Zalning yuqori qismida (shifta) yorug‘likni ta’minlovchi vosita o‘rnatiladi.

Ishlab chiqarish xonalari va artistlar pardozxonalari qoidaga ko‘ra, binoning orqa qismida umumiy guruhga birlashgan holda joylashtirilishi va ular orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hamda har birining tomoshabin zali bilan aloqa qilish imkoniyatini ta’minlashi kerak.

Artistlar pardozxonalarini teatr me‘yorlariga binoan birinchi, ikkinchi va uchinchi qavatlariga joylashtirish mumkin. Otlar va boshqa hayvonlar saqlanadigan xonalar artistlarning manejga chiqish yo‘llariga bevosita yaqin bo‘lgan joylarda albatta birinchi qavatda (maneji yuzasi balandligida) loyihalanadi.

Sirk kassasi asosiy vestibulga birlashgan holda bo‘ladi. Garderob qoidaga ko‘ra amfiteatr ostiga joylashgan bo‘lib, birinchi qavat foyesi bilan bevosita bog‘langan bo‘ladi.

Sirkning asosiy hajmiy shaklini belgilovchi ichki fazoviy strukturani yaratishda amfiteatrning yuqori qatorlariga yoki ikkin qavatdagi foyega olib chiquvchi zinapoyalarni to'g'ri joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Transport inshootlari.

Vokzallar o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha bir qator turlarga tasniflanadi, ya'ni foydalanilayotgan transport turalir va tayinlanishi, magistraldagi o'rni, o'tkazish xususiyati va sig'imi hamda passajirlar (yo'lovchilar) kategoriyasiga ko'ra tasniflanadi.

Transport inshootlari foydalanilayotgan transport turi va tayinlanishiga ko'ra alohida temiryo'l vokzallari va pavilonlari; aerovokzallar, shahar vokzallarining agentliklari. Vokzalning rejayiy strukturasida kelayotgan poezdlarning (avtobuslar, samolyotlar) faqat to'xtab o'tish muddati orasida vokzal xonalaridan foydalanuvchi yo'lovchilarning ehtiyojlari ham inobatga olinishi kerak. Aeroportlardan xorijga chiqib ketayotganlarga, poezdlar yoki samolyotlardan xalqaro yo'lovchilarga faqat chegaralardagi stansiyalarda xizmat ko'rsatish nazarda tutiladi.

Turli maqsadlardagi vokzallar qoidaga ko'ra passajirlar xonalari guruhi (operatsion zallar, kutish zallari, ona va bola xonalari, restoranlar, bufet-kafelar, savdo kiosklari, ma'lumot berish shaxobchalari, pochta-telegraf), ma'muriy-xizmatchi xonalar (stansiya va vokzal bo'yicha navbatchi dispetcherlar xonalari, yo'nalishdagi xodimlar xonalari, aloqa jihozlari va b.) va texnik-ko'makchi (qozonxona, boyler xonasi, transformator va ventilyatsion kameralari, omborxonalar va b.) guruhlariga bo'linadi.

Vokzal sig'imini kengatirishda ochiq ko'kalamzorlashtirilgan hovlilar, yong'in va quyoshdan himoyalangan terassalar, tekis tomlar, yirik balkonlar yaxshi zahira (rezerv) hisoblanadi.

Kutish zallari (har bir passajir uchun 1,3 da 3,9 m gacha) yaqinida jamoat ovqatlanish korxonalarini, kafe-bufet, tamaddixonalarini joylashtirish maqsadga muvofiq. Vokzallarning hajmiy-rejayiy tuzilishiga ichki muhitni tashkil etishning zamonaviy prinsiplari sezilarli ta'sir etadi. Zamonaviy vokzallarning komfortlilik

darajasi aksariyat qo‘llanilayotgan texnologik va injenerlik jihozlari, ekskalatorlar va harakatlanuvchi yo‘laklar, yuk tashish transportyorlari va ko‘tarish moslamalari, teleskopik traplar, quyoshdan himoyalovchi ko‘tarma-aylanma jalyuzilar, avtomatik ochiluvchi eshiklar va boshqalar bilan aniqlanadi. Eng yuqori badiiy-estetik samadorlikka, effektga faqat vokzal majmuasiga kiruvchi barcha binolar, inshootlar va elementlarning o‘zaro munosib yechimi bilangina erishish mumkin.

Temiryo‘l vokzali va avtobus vokzalini birlashtirish yo‘lidagi birinchi qadam perron va vokzal oldi maydonidagi harakat jarayonini aniq tashkil etishdan iborat. Zamonaviy fuqaro aviatsiyasi shaharlarda uzoqda joylashgan aerotorlarga ega bo‘lib, ular aksariyat avtomobil yo‘llari bilan bog‘lanadi.

Piyodalar yo‘lkalarini va zonalarini yaratish, aholining tig‘iz harakat mavjud bo‘lgan shahar ko‘chalari va yo‘llarining piyodalar tomonidan kesib o‘tilishini istisno etmaydi. Harakatlanish qismidagi o‘tish joylari chorrahalarda hamda aholi to‘planadigan punktlar – yirik sanoat korxonalari, savdo, tomosha, o‘quv, ma’muriy va boshqa binolar komplekslarida belgilanadi. Bunday o‘tish joylari odatda maxsus ko‘rsatkichlar, belgilar, yo‘l sirtidagi alohida chiziqlar va boshqalar bilan belgilanadi.

QMQ 2.07.01-94 ga asosan keng jamoatchilik tashrif buyuradigan bino va inshootlardan jamoat transporti to‘xtaydigan punktlargacha bo‘lgan oraliq masofa – 500 m, IV klimatik tumanlarda esa 400 m dan oshmasligi zarur. Yuqori tezlikdagi avtomobil yo‘llarida va uzluksiz harakat davom etadigan magistral ko‘chalarda, transport vositalarining harakati yuqori darajada tig‘izligi bilan ajralib turadigan yo‘llar va ko‘chalarda, shuningdek, piyodalar ommaviy holda ko‘chani kesib o‘tadigan joylarda yerosti yoki yerusti o‘tish joylarini loyihalash zarur bo‘ladi.

Garajlar. Nisbatan yirik jamoat binolari va ularning majmualaridagi avtomobillarni saqlash joylari va garajlar aksariyat fazoviy strukturasining va ba’zi ob’yektlar arxitekturaviy kompozitsiyasining ajralmas elementiga aylanib bormoqda.

Avtomobillarni vaqtinchalik saqlash joylari esa davriy yoki epizodik tashrif buyuradigan ob'yektlar yaqinida (ish joylari, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari, dam olish zonalari), asosan, avtomobillarni ochiq holda saqlash joylarida nazarda tutiladi. Yengil avtomobillar uchun hisobiy sifatida kam litrajli, o'lchamlari rejada 170 x 410 sm va avtomobil bilan yon yoki bo'ylama devor orasidagi masofa 50 sm-70 sm bo'lgan etalon tpvsiya etiladi. Garaj va avtoturar joylarining ichki o'tish joylari qoidaga ko'ra umumiy kengligi 4,5- 6 m bo'lgan harakatlanish yo'li hisobidan kelib chiqqan holda loyihalanadi. Yer ustidagi va yer ostidagi rampa tipidagi garajlarning qavat balandligi 2,2 m dan kam bo'lmasligi zarur. Avtomobillar bo'ylama harakatlanadigan rampalar 10% nishablikdan oshmagan holda tashqi va ichki ko'rinishda loyihalanishi mumkin. Shaxsiy garajlar va avtomobillarni saqlash joylarini aksariyat mahalliy harakatlanish, ko'chalar va o'tish joylari yaqinida joylashtirish maqsadga muvofiq. Garaj va avtomobillarni saqlash joylariga tegishli uchastkalarni, turar joy va jamoat binolaridan kengligi 10-15 m bo'lgan himoya ko'kalamzorlari (daraxatlar, butalar) bilan ajratish kerak.

Ko'p qavatli turar joy binolari mavjud bo'lgan tumnlarda quyidagilardan foydalanishga ruxsat etiladi:

- Boks yoki matej tipidagi bir qavatli garajlar;
- Ko'p qavatli, alohida joylashtirilgan rampali manej tipidagi garajlar;
- Yarim yerosti yoki yerosti, alohida joylashtirilgan bir yoki ko'p qavatli garajlar, shu jumladan, notekis releflarda joylashtirilgan;
- Ma'muriy, jamoat va boshqa muassasalar majmualaridagi binolar ichida yoki yonida joylashtirilgan yechimga ega yer ustida yoki yer ostidagi garaj va avtoturar joylar.

Mikrotumanlar va turar joy hududlarida aksariyat ochiq avtomobillarni saqlash joylarini loyihalash maqsadga muvofiq bo'lib, keyinchalik ular joylashgan yerda ko'p yarusli garajlar barpo etilishi mumkin.



Toshkent metropoliteni Oʻrta Osiyoda yagona boʻlib, u Toshkent shahri va Oʻrta Osiyoning mashhur inshootlaridan biri sanaladi. Uning bekatlari oʻzining arxitekturaviy yechimlari, poezdlari tezyurligi, vagonlari esa komfortiligi bilan kishi ongida oʻchmas qoldiradi. Toshkent metropolitenida hozirgi paytda 29 ta bekat mavjud boʻlib, metropoliten liniyalarining umumiy uzunligi 38,25 km ni tashkil etadi.

Metropoliten trassasini loyihalashtirishning birinchi bosqichida shahar transportining kompleks rivojlanishini inobatga olgan holda metropoliten yoʻnalishining bosh sxemasi ishlab chiqiladi, bunda alohida yoʻnalishlar qurilishining navbati ham aniqlanadi.

Trassaning alohida yoʻnalishlarini loyihalashda metropoliten bekatlarining joyini toʻgʻri tanlash muxim ahamiyat kasb etadi. Metropoliten bekatlariga kirish-chiqish joylarining, vestibyullar, ekskalator tonellarining, shamollatish (ventilyatsiya) kiosklar va hokozolarning konstruktiv yechimlari ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi.

Metropoliten tonellarining gabaritlari: eni 2,7 m, balandligi 3,7 m. Ular 2,1 m uzunlikka ega bo'lgan bikr baza bilan umumiy uzunligi 19,2 m bo'lgan vagonlarga hisoblangan.

Bekatlarda yo'lovchilarning yirik oqimlari hosil bo'lishi mumkin bo'lgan joylarga joylashtiriladi: metropoliten liniyalarining shahar transporti magistrallari kesishadigan markaziy maydonlarga, temiryo'l vokzallari va platformalar, yirik stadionlar, shaharning dam olish va istirohat bog'lari yoniga, metropoliten yo'nalishlarining o'zaro kesishadigan joylariga, shahar atrofidagi temir va tramvay yo'llaridagi bekatlar yoniga joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Bekatlar orasidagi masofa, odatda 1,5-2,0 km uzunlikda qabul qilinadi.

Keyingi yillarda yer ustidan o'tadigan liniyalar va bekatlar paydo bo'ldi, ularning tom yopmalari yaltiroq materiallardan ishlangan, isitadigan himoyalovchi galereyalardan tashkil topgan. Bundan tashqari tom yopmalari poezdlar shovqinining tarkalishiga ham to'sqinlik qiladi. Toshkent metropolitenini qurishda metropoliten qurilishining va undan foydalanishning havfsizligini ta'minlaydigan yangi muhandis-texnik yechimlar qo'llanilgan. O'rta Osiyoda yagona bo'lgan bu inshootda o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan koloritlar qatorida tiniqligi, umumboqiyiligi yuqori bo'lgan granit, marmar, metall kabi materiallardan va bezakli (dekorativ) keramika, badiiy shisha, ganch va hokozolardan keng foydalaniladi.



Blis-so‘rov savollari

1. Tomosha binolari interyeriga qanday talablar qo‘yiladi?
2. Kinoteatr, teatr va sirk binolari qanday funksional zonalardan tashkil topgan?
3. Transport inshootlariga qanday talablar qo‘yiladi?
4. Metropoliten ichki muhitida qanday pardoqlash materiallari ishlatiladi?

SAVDO, MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH BINOLARI VA UMUMIY OVQATLANISH MUASSASALARI. YOPIQ BOZORLARNING SHAKLLANISHI. SAVDO MARKAZLARI. UMUMIY OVQATLANISH MUASSASALARI

Zamonaviy sharoitlarda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish va umumiy ovqatlanshi savdo korxonalari, shuningdek uyushmagan, alohida yoki qo'shimcha qurilgan ob'yektlar bilan bir qatorda barcha xizmatlar joyda mujassamlashtirilgan binolar komplekslari-savdo markazlari katta rol o'ynamoqda. Bu o'z navbatida, aholiga qator qulayliklarni sezilarli darajada tug'diribgina qolmay, balki savdo va madaniy-maishiy korxonalar ishlarini tashkiliy jihatdan yaxshilashga imkon beradi.

Chakana savdo korxonalari, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini tashkil etish shaharning tarkibiy rejalashtirilgan o'lchamlariga va aholining soniga bog'liq. Savdo markazlari sig'imi va belgilanish maqsadiga ko'ra asosiy – shaharning katta turar joy massiviga yoki shaharga xizmat ko'rsatuvchi va ikkinchi darajali – turar joy yoki mikrorayonlarning savdo markazlari turlariga bo'linadi.

Konkret sharoitlarda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini tashkil etishda savdo markazlari bloklardan yoki seksiyalardan tuziladi. Yangidan qurilayotgan shahar tumanida kooperatsiyalangan savdo markazini, hajmiy-rejaviy tarkibini va bir-biri bilan texnologik bog'langan umumiy korxonalar majmuasini loyihalash maqsadga muvofiq.

Turar – joy hududining savdo markazlari tizimiga: maxsuslashtirilgan kiyim-kechak, poyafzal, galantereya, doimiy va davriy talabdagi xo'jalik mollari; oshxonalar, kafe, tamaddixonalar; maishiy xizmat korxonalari va atelelar, pochta jamg'arma banklar, sartaroshxonalar kiradi.

Savdo markazlari uchun quyidagi hajmiy-rejaviy qurilmalar xarakterlidir.

1. Bino savdo markazi bo'lganda. Bu holda yordamchi xonalar binoning orqa qatorida joylashib, do'konlar omborlarga yuk tushirish, avtomobillar turish

joylarini tashkil etishda qator qulayliklar yaratiladi. Kamchiligi esa xaridorlar harakatlanuvchi yo'llarni uzayishidir.

2. Savdo markazi 2 qatorli bo'lib, qatorlar orasida piyodalar uchun yo'lka tashkil etilgan holda.

3. Yopiq savdo markazlari binosi, unda piyodalar harakati tevaragida joylashgan bo'lganda.

4. Savdo markazi binolari yarim ochiq piyodalar maydoni atrofida joylashgan.

5. Savdo markazi binolari piyodalar maydonining markazida joylashgan.

Tez-tez tashrif buyuriladigan oziq-ovqat do'koni, pochta, dorixona va boshqalarni binoning birinchi qavatida, maydon yoki ko'chalarga yaqin yerda joylashtiriladi.

Kafe va restoranlar, madaniy-tomoshabop binolar yaqinida yashil maydonlar mavjud bo'lgan joylarda loyihalanadi. Bunda ularda terassaga yoki ichki hovliga chiqish imkoni bo'lib, yoz oylarida ulardan ochiq zallar ko'rinishida foydalanish mumkin. Maishiy xizmat ko'rsatish korxonasini ikkinchi qavatga joylashtirish mumkin. Yopiq bozorlar maxsus savdo-sotiq uchun ixtisoslashgan jamoat binolari bo'lib, tarixdan qadimi agora va forumlar bilan bog'liq. Bu qadimiy shaharlarning jamoat maydonlari hayot arenasi, shuningdek, xalq yig'inlari bilan birgalikda savdo-sotiq ishlarini olib borish joyi sanalgan.

O'rta asrlarda, so'ngra uyg'onish davriga kelib G'arbiy Yevropadagi shaharlarda bozor maydonlari savdo-sotiq va ijtimoiy hayot markazi sifatida faoliyatini davom ettirdi. Ular shahar markazida joylashib, savdo qatorlari va galereyalar bilan o'raldi. Shaharlar kattalashgan sari, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi ham o'sib boradi. Ochiq turdagi bozorlarda katta miqdordagi turli tez b uziladigan mahsulotlar yig'ilib qola boshlaydi. Bu mahsulotlarni quyosh nurlaridan, yomg'irdan, qordan, chang va boshqa salbiy ta'sirladan himolash zaruriyati tugildi.



Katta sigʻimli (500 savdo oʻrni va undan ortiq) oʻpiq bozorlar shahar markazida joylashgan boʻlib, oʻrta va kichik sigʻimli (savdo oʻrinlari 500 tagacha) bozorlar esa tuman ahamiyatiga ega yopiq bozorlar hisoblanadi. Yopiq bozorlar hajmiy-rejaviy tuzilishiga koʻra bir zalli (kichi sigʻimli), pavilon turidagi, ikki-uch zalli (oʻrtacha va katta sigʻimli) pavilon koʻrinishidagi bozor turlariga boʻlinadi. Yopiq bozorlar oʻzining hajmiy-fazoviy kompozitsiyalari, umumiy absalyut oʻlchamlari, shuningdek, alohida qismlarining oʻlcham va proporsiyalari bilan boshqa maʼmuriy-maishiy maqsadlardagi binolardan sezilarli darajada ajaralib turadi.

Yopiq bozorlar oʻz xususiyatiga ega boʻlib, shahar qurilishi masalalarini yechishda ularga tashrif buyuruvchi koʻp sonli xaridorlarni va katta miqdordagi yuk oqimini eʼtiborda tutishni talab etadi. Birinchi omil – bozorga kirish va chiqishni tashkil etishni talab etsa, ikkinchi omil – tovar mahsulotlarni yetkazib kelish maqsadida avtotransport yoʻllarini yaratishdir. Yopiq bozorlarni aholiga xizmat koʻrsatish qullay boʻlishi uchun shahar tumanlarida joylashtirish maqsadga muvofiq. Bunda, ehtimolga yaqin rejadagi xizmat koʻrsatish radiusini, yaʼni yopiq bozor va xaridor orasidagi eng koʻp uzoqlashuv oraligʻini nazarda tutish zarur.

Katta shaharlarda xizmat ko'rsatish radiusi o'rtacha 1-1,5 km, kichik shaharlarda 1,5 – 2 km dan oshmasligi kerak. Sanitariya talablariga ko'ra yopiq bozorlar ifloslaish, kirlanish manbalaridan va chiqindilarni zararlantirish joylaridan kamida 1,5 km, o'zidan chang hamda kuchli hid ajratuvchi omborxona va sanoat korxonalaridan kamida 500 m uzoqlikda bo'lishi zarur. Yopiq bozorlar katta oraliqni binolar bo'lganligi sababli, ularning loyihalanishi vajoqlashtirilishi, shahardagi boshqa binolar bilan uyg'unlashgan arxitekturaviy ansambl yaratilishi kerak. Bir ob'yekt uchun yer maydonining hajmi 1,5 ga, shahar tumanlarida esa bozor qurilishi uchun 0,5 ga yer maydoni mo'ljallanadi.

Bozor binolarining hajmiy-rejaviy tuzilishi konstruksiyasi, bino qavatlar harorat-namlik rejimi xususiyatlari, shamollatish tizimiga, tabiiy yoritilganlik va savdo zallari interyerining xarakterlariga bog'liq.

Savdo zalining arxitekturaviy interyerini yaratishda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- Bozor binolaridagi savdo zallarida keng va to'siqsiz ko'rinishni ta'minlash maqsadida tirgaksiz, ustun va boshqalarsiz yopmalarni qo'llash masadga muvofiq;

- Devor yuzalari, orayopmalar, vitrajlar va pol yuzalari silliq va uzoq vaqtga chidamli hamda tozalash qulay bo'lishi (suv bosimi ostida yuvishga mo'ljallangan), shuningdek savdo jihozlari (rastalar, stendlar va b.) suv va havo o'tkazmaydigan va qullay tozalanadigan silliq qoplamalarga ega bo'lishi kerak;

- Savdo zalining arxitektura interyeridagi ranglar mahsulotlar rangini neytrallashtirmay, balki tabiiy ranglarni yaqqol ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lishi – xaridorning taqdim etilayotgan mahsulotlarga baho berishiga to'sqinlik qilmasligi zarur.

Shu sababli bozor interyerida asosan yorqin, oq kolorit ranglardan foydalangan ma'qul.

Umumiy ovqatlanish muassasalari xalq xo'jaligining eng yirik sohalaridan biri bo'lib, savdo-sotiq va xizmat ko'rsatishda alohida ahamiyatga ega. Umumiy ovqatlanish muassasalari dam olishni tashkil qilishga sharoit yaratib beradi.

Bu esa – yagona dam olish oilaviy tadbirlar, do‘stlar bilan uchrashuvlar va boshqalar. Bu yerda turli-tuman xordiq chiqaruvchi (musiqa, raqs, estrada) tomoshalar, yuqori saviyada xizmat ko‘rsatish, yanada turli-tuman va sifatli taomlar assortimenti (uydagiga solishtirganda), sanitariya-gigiena sharoitini hamda oshpazlik mahoratini hisobga olish kerak. Umumiy ovqatlanish muassasalarining arxitekturasi juda ham xilma xildir. Bular baland mehmonxonalar tarkibiga kiritilgan bloklar, alohida qurilgan, zamonaviy arxitekturaviy shakldagi ko‘rinishga ega bo‘lgan, milliy ruhdagi jozibali ob‘yektlar bo‘lib, teleminoralarda, ko‘prik ostiga hamda turli joylarga qurilgan.

Yirik turdagi umumiy ovqatlanish muassasalari shahar ichki muhitining shakllanishida hozirgi zamonda mavjud bo‘lgan an‘anaviy tipdagi umumshahar muassasinining tarmog‘ini tashkil qiladi. Tarmoqlarni loyihalash jarayonida ushbu hududlarning xususiyatini hisobga olish, ularni rejalashtirishni hal qilish, aholi kontingentini rivojlanish xususiyatlari, uning oladigan foydasi va boshqalar hisobga olinadi. Shuning uchun ham, aholi yashash hududlarida umumiy ovqatlanish muassasalari tarmog‘i yopiq va ochiq turga bo‘linadi.

Yopiq turdagi tarmoqqa sanoat muassasalari qoshidagi, maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar, dam olish o‘quv yurtlari, sanatoriya-sog‘lomlashtirish va shifoxona muassasalari kiradi.



Ochiq turdagi tarmoqqa aholi yashash joylaridagi umumshahar qurilish hududlaridagi, mehmonxonalardagi, savdo-sotiq jamoat markazlaridagi hamda barcha yo‘llardagi umumiy ovqatlanish muassasalari kiradi.

Shahardagi umumiy ovqatlanish muassasi turlariga restoranlar, ixtisoslashgan, yarimtayyor mahsulotlar, kulinariya va konditer mahsulotlaridan iborat kafe-barlar, umumiy tarzda gazakxonalar, maxsuslashtirilgan majmualar kiradi.

Bu muassasalar asosan o‘tgan-ketganlar uchun bo‘lib, shahar ahamiyatiga ega bo‘lgan magistral ko‘chalarida, transport to‘xtash bekatlarida, shahar savdo-sotiq majmua markazlarida hamda shahar va uning atrofidagi madaniy dam olish maskanlarida hamda boshqa joylarda bo‘lishi mumkin.

Muassasaning alohida binoda bo‘lishi, asosan, yirik aholi majmualariga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Bular oshxona va choyxonalar, kafelar, barlar, qandolat do‘konlari va yarimtayyor mahsulotlar muassasalaridir. Ularning arxitekturaviy-hajmiy rejalari va texnologik.

Yechimlari o‘ziga yarasha turli tuman bo‘lib, arxitekturaviy kompozitsiyalari ham joylardagi aniq sharoitga qarab atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan holda qurishni taqozo etadi.

Umumiy ovqatlanish muassasalarining kompozitsiyasini savdo va yordamchi xonalarning oʻzaro uygʻunlashganligi va binoning qavatma-qavat joylashishi ahamiyatga egadir. Shu bilan birga asosiy xonalarning va barcha, uning tarkibidagi xonalarning oʻz oʻrniga qarab joylashishi, necha qavatligi rejaning qaysi koʻrinishidagi albatta muhimdir.

Blis-soʻrov savollari

1. Savdo, maishiy xizmat koʻrsatish binolari va umumiy ovqatlanish muassasalariga nimalar kiradi?
2. Yopiq bozorlarning shakllanishida interyer qanday rol oʻynaydi?
3. Savdo markazlarida qanday pardozlash materiallari ishlatiladi?
4. Umumiy ovqatlanish muassasalari interyerini loyihalashda qanday zamonaviy interyer uslublaridan foydalaniladi?

**MA'MURIY VA KOMMUNAL BINOLAR. BOSHQARMA
MUASSASALARI VA LOYIHA TASHKILOTLARI BINOLARI
INTERYERIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. MEHMONXONALAR
INTERYERIGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

Respublikamiz hayotining ideologik iqtisodiy va boshqa barcha jabhalariga rahbarlik qiluvchi, davlat va ma'muriy-xo'jalik boshqaruv apparatlari organlarini, shuningdek, muassasalari hamda tashkilotlarni joylashtirish uchun maxsus binolar quriladi. Ularning maqsadlari turlicha: bular vazirliklar va qishloq kengashlari, trestlar va xalq sudi, davlat banki bo'linmalari va jamoa xo'jaliklari boshqaruvi binolaridir. Bular quyidagilar:

- Davlat muassasalari, bunda Oliy Majlis kotibiyati va devonxonalari, Vazirlar Mahkamasi kotibiyati, vazirliklar, davlat qo'mitalari;
- Viloyat, shahar va tuman hokimiyati binolari;
- Partiyalar va jamoat tashkilotlari;
- Ma'muriy-xo'jalik muassasalari, birlashmalar, trestlar, boshqarmalar, bo'limlar, idoralar, agentliklar, inspeksiyalar va xokozo;
- Loyihalash institutlari, idoralari, konstruktorlik byurolari;
- Yuridik muassasalari, sud, prokuratura binolari;
- Pul-kredit muassasalari, davlat bankining, tijorat banklari boshqaruv idoralarining bo'limlari binolari;
- Aloqa muassasalari – shahar, tuman, boshqaruv idoralari va ularning bo'limlari, telegraf, telefon, radiomarkazlar binolari;
- Nashriyot, bosmaxona va redaksiyalar binolari.

Har bir ma'muriy markaz yoki sanoat markazida o'nlab, katta shaharlarda esa yuzlay boshqaruv va loyihalash tashkilotlari mavjud. O'zining funksiyalariga, ahamiyatiga, aksariyat absalyut kattaligi (qurilish hajmi, qavatlilik) kabi ijobiy jihatlarga ko'ra bu binolar shahar markazining arxitekturaviy ko'rinishini belgilaydi.

Hajmiy-fazoviy kompozitsiyasiga va shahar strukturasi joylashishiga qarab ma'muriy binolar va komplekslar maydonda yoki ko'chada dominantlik qilishi, qurilayotgan binoni shakllantirishi, tutashlikni, uzaytirilgan yoki ochiq shahar muhitini tashkil etishi, shuningdek muhim rejaviy tugunning orientiri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Vazirliklar binolari asosan xukumat markaziga yaqin joylashadi, umuman olganda ular shaharning asosiy magistrallarida, boshqa boshqaruv binolari va muxim jamaot muassasalari inshootlari birgalikda mujassamlashadi. Muassasalar xodimlari xonalarda va ish joyi (loyihalash zallari)da joylashishlari mumkin.

Xonalarning o'lchamlari 9-12 da $54-60\text{m}^2$ ga bo'lib, boshliqning xizmat matabasi, ma'muriy ahamiyat va muassasaning kattaligiga ko'ra belgilanadi. Boshqaruv idoralari binolarida turli majlislar va kengashlar uchun mo'ljallangan zallar katta ahamiyat kasb etadi. Konferens-zallar bino sig'imining 40-50% ini tashkil etadi. Konferens-zalning bir o'rin uchun maydoni $0,7-0,8\text{m}^2$. Boshqa hollarda esa tomoshabin o'rinlarning joylashishi, zaldan chiqish va o'tish joylari klublarga qo'yiladigan talablarga javob berish kerak.

Garderobli vestibyullar har kishi uchun $0,254\text{ m}^2$ bo'lgan me'yor asosida loyihalanadi. Bufet va oshxonalarda o'tirish joylarining soni bino umumiy sig'imining 20% tashkil etadi. Bufetlar 50 kishidan ko'p bo'lgan binolarda, oshxonalar esa 250 kishidan ortiq xodimlar mavjud bo'lgan binolarda joylashtiriladi. Oshxonalarining faoliyati yarimtayyor mahsulotlardan taomlar tayyorlashga asoslanadi.

Boshqaruv idoralari binosi kompozitsiyasini, odatda, mayda yacheykali, ko'p marta takrorlanuvchi modul tuzulishi aniqlab beradi. Binoning hajmiy kompozitsiyasini tanlashda uning sodda yoki murakkab shaklda ekanligiga, gorizantal yuza bo'yicha rivojlanib boruvchi, asosiy yoki bir necha tarqoq yo'nalishlardagi o'qlarda tashkillashtirilganligi, binoning kattaligi, maydonning o'lchamlari va tuzilish shakliga, binoning shaharda tutgan o'rniga va uning qurilish jarayonidagi roliga bog'liq.

Asosiy muammo balandligi 10 qavat va undan ortiq bo'lgan binolarning yong'in xavfsizligidir. Bu muammo tutun kira olmaydigan zinapoya bo'limlari va lift shaxtalari, tutunni kamaytiruvchi maxsus tizimlar, xabar berish, yong'inni o'chirish, yong'in avtomatikasi kabi moslamalar bilan ta'minlanishi orqali yechiladi.

Boshqaruv idoralari binolaridagi ishxonalarning arxitekturaviy interyeri tavsifi maydonni mebellar, ish jihozlari, ko'kalamzorlar, ish o'rinlarini guruhlash, bo'lish spesifikasi bilan aniqlanadi: u bir xilda hal etilgan pol, shift tekisligi va funksional xususiyatlari, plastik boy ish jihozlari, devorlari hamda turli-tuman materiallarni bir-biriga taqqoslash yordamida quriladi.

Mehmonxona binolari odamlarning qisqa vaqt davomida yashashlari va madaniy- maishiy talab asosida xizmat ko'rsatish maqsadlarida quriladi. Bunday inshootlar barcha turdagi zaruriyat kommunal qulayliklar (suv, kanalizatsiya, istish qurilmalari va hokozo) bilan jihozlangan va zamonaviy QMQ ga asoslangan xizmat ko'rsatish kompleksi bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

Komfortiligi, sig'imi va texnik jihozlanganligi, shuningdek, taklif etiladigan xizmat ko'rsatish hajmiga qarab O'zbekistonla va xalqaro maydonla mehmonxonalar 5 qurilish razryadiga bo'linadi.

Xonalarda bittadan to'rttagacha o'rin bo'lishi mumkin. Zamonaviy mehmonxona murakkab tuzilishga ega bo'lib, bir nechta turli funksional xonalar guruhlaridan tashkil topadi hamda uning alohida qismlari o'zaro o'ziga xos texnologik bog'lanishlarga ega bo'ladi.

Taraqqiy etgan mehmonxona binosida asosiy funksional xonalar guruhiga qibul qilish va xizmat ko'rsatish xonalari kiradi, ularni vestibyul guruhi deb atash mumkin; yashash xonalari guruhi, umumiy ovqatlanish xonalari guruhi, ma'muriy xonalar guruhi, shuningdek, muhandislik jihozlari xonalari guruhi shular jumlasidandir.



Mehmonxona, dam olish muassasalari va turizm inshootlaridagi umumiy hajmining 50% idan ortig'ini yashash xonalari tashkil etadi. Dam olish xonasining me'yoriy maydoni bir kishi uchun 9 m^2 , ikki kishi uchun 12 m^2 belgilangan.

Dam olish xonalaridag sanitariya uzellarining old-dahlizli (tambur) bo'lishi e'tiborda tutiladi. Sanitariya uzeli va uning old qismidagi maydon odatda $5-6 \text{ m}^2$ tashkil etadi. Old dahliz devoriga shkaf quriladi. Asosiy koridorlarning eni $1,8 \text{ m}^2$ dan kam bo'lmasligi zarur. Dam olish xonalari uchun eng yaxshi yo'nalish janubiy va janubiy-sharqiy yo'nalishdir. Dam olish xonalarining yo'nalishini aniqlashda landshaftning jozibali tomoniga qaratish lozimligini e'tiborda tutish kerak. Oshxona yoki restoran asosiy korpusda joylashgan bo'lsa, ular aksariyat hollarda birinchi qavatda loyihalanadi. Dam oluvchilarga yashash sharoitlari bilan birga tegishli maishiy xizmat ko'rsatadigan mehmonxonalarda madaniy-ommaviy xizmat ko'rsatish xonalari nazarda tutiladi. Madaniy-ommaviy xizmat ko'rsatadigan xonalar: tomosha zali, raqs tushish zali, foye, kutubxonalar, to'garak xonalar, bilyard va mehmonxonalardan tashkil topadi.

Kurort mehmonxonalarini loyihalashga qo'yilgan vazifalar asosida ochiq va yopiq suzish basseynlari, hammom (sauna)lar, qishki sport zallari nazarda tutiladi.

Ma'muriy xonalar guruhi aksariyat hollarda binoning birinchi yoki ikkinchi qavatiga joylashtiriladi. Xizmatchi-yordamchi, xo'jalik va muhandislik jihozlari xonalari, navbatchi xodimlar xonalari guruhiga kiradi.

Shuningdek, kir va toza choyshablar xonasi, ta'mirlovchi usta, duradgor xonalari; mebel va jihozlar zahiralari; shamollatish kameralari, istish punktlari, nasos xonasi, elektromit, chiqindilarni olib chiqish kameralari ham shular jumlasidandir. Mehmonxonaning konstruktiv sxemasi asosida yashash xonasining o'lchamlari yotadi. Zamonaviy mehmonxona binolari qurilishida karkas va panel, shuningdek, monolit, temir-beton sistemalari keng tarqalgan.

Mehmonxonalar qurilishida quyidagi konstruktiv qadamlar qo'llaniladi: 480, 540, 600, 640 va 720 sm. Bir kishilik xonaning o'qlar oralig'i (kengligi) 240, 270, 300, 330, 360 sm o'lchamida bo'lishi mumkin.



Blis-so'rov savollari

1. Ma'muriy va kommunal xizmat ko'rsatish binolariga qanday talablar qo'yiladi?
2. Boshqarma muassasalar turlarini ko'rsating?
3. Mehmonxona interyeri qanday loyihalanadi
4. Ma'muriy va kommunal xizmat ko'rsatish binolari , mehmonxona binolarida oshxona interyerida qanday talablar bajariladi?

TURAR JOY BINOLARI TURLARI VA INTERYERI. TURAR JOY BINOLARINI SHAKLLANTIRISH UCHUN ZARUR TALABLAR VA SHAROITLAR

Turar joy binolarini loyihalovchi me'morning oldiga qo'yiladigan vazifa bu – hamma shart-sharoitlarni to'la o'rganib chiqib, keyin eng qulay va chiroyli turar joylarni loyihalashdan iborat bo'lib, ayniqsa, yerning shart-sharoiti jiddiy e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muhim omildir.

Turar joy va xonadonlarni tanlashda, albatta hisobga olinishi kerak bo'lgan talablar quyidagilardan iborat:

- Aholining demografik tarkibi;
- Oila a'zolarining urf-odatları va hunari, ya'ni qanaqa ish bilan mashg'ul bo'lishlari;
- Qurilish joyi;
- Qurilish joyining tabiiy iqlim sharoiti;
- Texnika-qurilish bazasining ahvoli va sharoiti;

Shimol va janubda quriladigan uylar bir-biridan o'ta farq qiladi, undan tashqari nam va quruq iqlim, tog' yoki pastliklar, sahro va nam yerlarning ta'siri ham turar joy me'morchiligiga katta ta'sir o'tkazadi.

O'zbekiston tog'lardan, sahrolardan, tekislik va pasttekisliklardan, ko'klamzor yerlardan tashkil topgan. Shuning uchun O'zbekiston sharoitida hamma yerga bir xil turar joylarni loyihalashtirish va qurish katta xatoliklarga olib kelishi mumkin. Qavatları bo'yicha turar joy binolari quyidagilarga bo'linadi:

1. Kam qavatli uylar (1-2 qavatli). Bu uylar asosan qishloq joylarda tarqalgan bo'ladi. Lekin shaharlarda ham hozirgi paytda o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.
2. O'rta qavatli uylar (3-5 qavatli) umumiy zinapoyadan hamma foydalanadigan liftsiz turar joydan iborat bo'lib, shaharlarda juda ko'p tarqalgan, ular iqtisodiy jihatdan foydali deb topilgan.

3. Ko'p qavatli uylar (6-9 qavatli) umumiy foydalaniladigan zinapoyadan tashqari tik vertikal bog'lanishlari uchun lift bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.
4. Baland qavatli uylar (10 va undan ortiq) binolarning kiraverishida, pod'ezdida umumiy zinapoyadan tashqari 2 xil lift bo'lishi kerak, ya'ni aholini va yukni tashiydigan liftlar.

O'rta, ko'p va baland qavatli uylar 3 ta eng asosiy tarxiy tuzilmalarga bo'linadi: bo'linmali (seksiyali), yo'lakli va galereyali.

O'zbekiston sharoitida turar uy-joylarni loyihalash uchun quyiladigan asosiy talablar:

1. O'zbekistonning iqlim sharoitida xonadonni yer sathi va ochiq havo bilan bog'lash an'anaga aylanib qolgan. Shaharlarning tez o'sishi va yer sathini ehtiyot qilish o'rta va ko'p qavatli uylarning qurilishiga olib keladi.
2. Xonadonlarni yer bilan bog'lash an'ansi yo'qoldi. Buning o'rnini almashtirish uchun xonadon tarkibiga har xil yozgi xonalarni loyihalash va uylarda kam qavatli uylarga nisbatan har xil qulayliklar, ya'ni markazlashgan issiq suv, isitish elektr jihozlari va chiqindini olib ketish uchun qulayliklar yaratildi.
3. Yoz paytlaridagi issiq havo va nisbatan yumshoq, qisqa davrli qish xonadonlarni issiq havodan saqlashni taqozo etadi. Bu esa uylarni quyoshga nisbatan to'g'ri qaratish (orientatsiya) qilish, yaxshi shamollatish, konstruksiyalar xususiyatlaridan to'g'ri foydalanish, quyoshga qarshi qurilmalardan foydalanish orqali erishiladi.

Insolyatsiya, ya'ni quyoshni to'g'ridan-to'g'ri tushishi faqat turar uy joylardagi xonalarga zarur, lekin u yordamchi xonalarga: oshxona, dahliz, xojatxonalarga kerak emas, aksincha ular bu xonalarda noqulayliklar tug'dirishi mumkin. Demak, xonadonlarni ikki tarafga qaratish kerak: asosiy xonalar janub tomonga joylashtirilsa, yordamchi xonalar shimol tomonga joylashtirilishi kerak. Janubiy-sharqiy taraf va shimoli-g'arbiy tarafga qaratish, ya'ni xonalarni ikki tarafga qaratishga va loyihalashga ruxsat etiladi.

Eng yomon orintatsiya, bu g'arb va sharq taraflari bo'lib, bunday uyning bir tomoni peshindan keyin qiziydi. Xonada salqin havo hosil qilish uchun uyni shamollatish, yelvizak katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonning tabiiy iqlim sharoitini, yer qimirlashini hisobga olib turar uy-joy va jamoat binolarni loyihalash hamda qurish me'morlar oldiga ancha qiyinchiliklar tug'diradi, lekin me'morchilikda o'ziga xos an'alarini mujassamlashtirishga imkoniyat yaratadi.

Shahar, turar joy hududida yoki alohida turar joy uyiga yer maydonini tanlash o'ta ma'suliyatli ishdir, chunki bu yerda aholining yashashi uchun hamma shart-sharoit mavjud bo'lishi va hisobga olish zarur. Shaharsozlikda turar joy uchun yer maydoni sathi balandroq, suv to'planmaydigan, yerga suv shaxobchalari o'tkazish va ko'kalamzorlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan undan tashqari sanoat va ishlab chiqarish korxonalaridan sanitariya-gigienik jihatdan uzoqroq masofada bo'lishi kerak.

Shuningdek, bino boshqa turar joy va jamoat binolaridan, ma'lum bir joyda joylashgan quyoshga nisbatan yaxshi qaratilgan bo'lishi va yaxshi shamollashtirilishi, ko'chaning qizil chizig'idan ko'kalamzor va shovqindan saqlanadigan to'siqlar orqali ajratilishi kerak. Uyga avtomobil kirishi uchun yo'lakcha ajratilishi, bundan tashqari uy atrofi ko'kalamzorlashtirilgan va sport maydonchalari, soyabonlar, kattalar dam oladigan joylar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Bu O'zbekiston tabiiy iqlim sharoitida muhim omillardan biridir. Yer sathi qo'shni uylar bilan, tuman markazi bilan bog'cha, maktab, savdo, madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish joylari bilan quyilay bog'langan bo'lishi kerak.

Uy-joy qurilishida eng zarur talablardan biri bu tejamkorlikdir. Temjamkorlik va undan foydalanish masalalari bir-biriga qarama-qarshidir. Shuning uchun me'morning asosiy vazifasi ushbu qarama-qarshiliklarni bir-biriga ta'sirsiz hal qilmog'i lozim.

Yuqorida aytib o'tkanimizdek, O'zbekiston iqlimi sharoitida uylarni yaxshi shamollatish uchun derazalarni ikki tarafga o'rnatish, bo'linma (seksiya)da to'rt xonadon o'rniga ikki xonadonni joylashtirishni taqozo qiladi, bu esa zina

katakalarining soninin oshib ketishi, katta-katta yozgi xonalardan foydalanish va quyoshga qarshi qurilmalarning o'rnatilishi, uy tannarxining oshib ketishiga sabab bo'ladi. O'zbekistonda tez-tez yer qimirlab turishi ham uylarni mustahkam qurilmalar bilan qurishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida ortiqcha mablag' sarflanishiga olib keladi. Shuning uchun bu sabablar bizning me'morlarimiz oldiga qurilishda tejamkor va unumli me'moriy loyihalarni tanlashni taqozo etadi. Turar joy o'zining vazifasiga ko'ra o'z ko'rinishiga ega bo'lishi kerak. Qurilishda turar uy-joyning bo'laklari (detali) inson o'lchoviga hamohang bo'lishi kerak. Bu vazifa past qavatli uy-joylarda osonroq hal qilinadi. Ko'p qavatli turar joy uylarining tashqi ko'rinishini tanlashda me'morlarni ancha qiyinroq vazifalarni yechishiga to'g'ri keladi. Uylarning tarzlarini yechishda (kolonnalar, ustunlar, antablement va b.) uy joylarini monumental (mahobatli) va boy bo'lishi, ularning oldiga badiiy talablariga javob berishi kerak.

Turar uylar, ayniqsa janubda joylashgan uylar tabiat bilan mujassamlashib ketishi kerak. Bu funksional xususiyat o'zining badiiy ko'rinishda, ya'ni yozgi xonalar (ayvon, supa va b.) tarzida o'z aksini topadi. Quyoshga qarshi qurilmalarning uyni issiqdan saqlash aksini topadi. Quyoshga qarshi qurilmalarning uyni issiqdan saqlash uchun ishlatilishi, janub uyining o'ziga xos badiiy ko'rinishini yaratishga yordam beradi. Bunga yana ko'kalamzorlashtirish ham yordam beradi. Uylarga rang tanlashning o'ziga xosligi mavjud, ya'ni har xil qoramtir ranglarni ishlatishdan saqlanish kerak, chunki ular binoga xunuk ko'rinish berishi bilan birga bu ranglar quyosh nurini yaxshi qaytara olmaydilar va xonalarning isib ketishiga sabab bo'ladilar. Bu yerda tabiatdagi ochiq ranglarni ishlatish zarur.


Xalq me'morchiligi usllari, xalq an'analari, urf-odatlarini inobatga olgan holda turar joy binolarining me'morchiligini jonlantirish mumkin.

Tipik turar joylar bilan o'ziga xos orginal va har xil ko'rinishdagi turar joylarni yaratish me'morlardan mohirlikni va ijodiy yangi usullarni talab etadi.

Turar uy-joyni jamoat binolarini muvaffaqit bilan aralashtirib kichik mikrorayon hududi va turar joy hududlari qurilishi kompozitsion har xil siluetlar

hosil qilish rang va fakturalardan to'la foydalanish, yer maydoni bilan to'la uyg'unlashib ketishi, ko'kalamzorlashtirish va suv bilan to'g'ri ta'minlash qurilishdagi loqayd ko'rinishlarni yo'qotishga olib keladi.

Uylarning tipik loyihalarga har xil yangi usullarni kiritish yo'li bilan boyitish lozim. Shuningdek, har xil usullarni ishlab chiqish kerak. Me'morlar bu usullardan to'g'ri kompozitsion tizimga ega bo'lgan turar joy, bekatlar va uylar loyihasini tuzadilar. Shunday qilib, me'morlar muvaffaqiyatli loyihalar uchun har xil usullarni qo'llab turar joy bekatlarini boytish, tajriba va iqtisodiy yondoshish orqali har xil kompozitsion vazifalarni hal etishlari mumkin.



1-расм. Турар жой биноларининг таснифи:


- | | |
|-----------------------------------|--------------------------------|
| 1 — қишлоқ типдаги ҳов依или уйлар; | 10 — қариялар уйи; |
| 2 — шаҳар типдаги ҳов依или уйлар; | 11 — коммунал меҳмонхоналар; |
| 3 — кам қаватли уйлар; | 12 — туристлар меҳмонхонаси; |
| 4 — ўрта қаватли уйлар; | 13 — транзит меҳмонхоналар; |
| 5 — кўп қаватли уйлар; | 14 — йил бўйи дам олиш уйлари; |
| 6 — баланд қаватли уйлар; | 15 — мавсумий дам олиш уйлари; |
| 7 — болалар интернати; | 16 — кундалик дам олиш уйлари; |
| 8 — ёшлар ётоқхонаси; | 17 — пансионатлар. |
| 9 — оилали ёшлар ётоқхонаси | |



Blis-so‘rov savollari

1. Turar joy binolarining interyer va jihozlarini loyihalashning o‘ziga xos taraflari qanday?
2. Turar joy binolarining interyer va jihozlarini loyihalashda asosiy konstruksiyalarning ta’siri ?
3. Turar joy binolarining interyer va jihozlarini loyihalashda eshik va derazalar o‘rni?
4. Turar joy binolarining interyerida yorug‘lik va rang masalalari qanday hal qilinadi?

**XONADON XONALARINING INTERYER VA JIHOZLARINI
SHAKLLANTIRISH. XONALARNING INTERYERLARINI
SHAKLLANTIRISH. OVQATLANISH ZONASI. UXLASH ZONASI.
BOLALAR XONALARI. OSHXONA. DAHLIZ**



A-Yotoqxonalar:

2, 3-bolalar uchun. B- Umumiy xona:
oshxona. 5-Mexmonxona.

V- Ishchi xona.


G- Yozgi turar xona.

D- Yozgi ro‘zg‘or xona

1-ota-onalar uchun.

6-daxliz, 7-oshxona, 8-xojatxona, 9-xammom,
10-koridor, 11- xujra, 12-omborxona

Xonadon yuqorida ta’kidlanganidek, tabiiy-iqlim sharoitlari, aholining madaniy-maishiy jihatlari, oila a’zolarining kasbiy faoliyatlarining turi, iqtisodiy sharoitlar ta’siri ostida shakllanadigan elementlar yashash yacheykasini o‘zida namoyon etadi.



Odatdagi uch xonali kvartiraning sxematik tasviri:

1-oshxona, 2 – oshxona,
3 – yotoqxona, 4-bolalar
xonasi, 5 –dahliz sanuzeli
hilan.

Kvartiralarining o'lchamlari va uning xonalarining tarkibi keng chegarada o'zgaradi. Odatda bu bir-, ikki-, uch- va ko'p xonali kvartiralar bo'lib, ular oddiy va murakkab rejaviy yechimlarga ega bo'ladi. hozirgi vaqtda qurilish me'yorlari orqali bir kishiga 12 m² maydon va yashash xonalari soni 1 dan 5 tagacha bo'lgan kvartiralarining 10 ta turi mavjud. O'zbekistonda ko'p bolali oilalarning ko'pligi bilan tavsiflanadigan ko'p xonali kvartiralar qurilishi keng tarqalgan.


Ko'p xonali kvartiralarga ega bo'lgan yashash uylarining turlari-loyihalash qurilish amaliyotida eng muammoli hisoblanadi: bu bu kvartiralarining qo'llanilishi kengaytirilishini yoki yashash uylari korpuslarining uzaytirilishini talab qiladi. Loyihalovchilarning bu boradagi izlanishlari xonalarining ikki sathda joylashishini ko'zda tutadigan yetuk original rejaviy yechimlarni berdi.

Ko'p xonali kvartiralarda hamma xonalar beshta asosiy funksional zonalarga ajratiladi: tantanovor, xo'jalik-kommunikatsion, jinsiy, rekreatsion va sanitar-gigienik zonalari. Tantanozor zona umumiy xona (ovqatlanish xonasi) va kabinetni o'z ichiga oladi.

Umumiy xona (ovqatlanish xonasi) o'zida ko'p funktsionalli xonalarni namoyon etadi. Unda ovqatlaniladi, oilaviy tantanalar o'tkaziladi, mehmonlar qabul qilinadi. Shu sababli kvartiraning rejaviy tuzilmasida unga markaziy joy ajratiladi, oila a'zolarining soniga bog'liq ravishda uning maydoni 20 m² va undan ortiq bo'lishi mumkin. Loyihaviy yechimlarida uni bevosita ovqat tayyorlash xonasi va dahliz yaqiniga joylashtiriladi (76-rasm).

Alohida vaziyatlarda maydonni kengaytirish va umumiy xona va ovqat tayyorlash xonasi orasida yagona kenglikni yaratish maqsadida harakatlanadigan pardevorlardan foydalaniladi. Bunda ovqat tayyorlash xonasidan umumiy xonaga hidlarning utishini bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar oldindan

belgilanadi. Umumiy xona (ovqatlanish xonasi) o'tish joyi ham bo'lishi mumkin va kabinet hamda uxlash xonasi bilan bog'langan bo'ladi. Bunday holda qulayliklikni pasaytiradigan ekspluatatsion sifatlardan holi bo'lishda loyihalash me'yorlari bo'yicha unga faqat bitta xonadan kirilishni tashkil etishga yo'l qo'yiladi.



Umumiy xonaning misol tariqasida keltirilgan tarxiy yechimi.

Issiq iqlimli rayonlarda, xususan O'zbekistonda yilning katta qismi mobaynida madaniy-maishiy jarayonlar ochiq havoda o'tkaziladigan hududlarda ovqat tayyorlash xonasi va umumiy xona qo'shilgan tarzda joylashtiriladi va bir-biri bilan lodjiya va balkon vositasida birlashtiriladi.

Umumiy xonaning gabaritlari (xona bo'yining uning eniga nisbati) ko'pincha yoritish tizimiga (yon tomondan yoki ikki tomonlama) bog'liq bo'ladi va 1:1, 1:2, 2:3 gacha bo'lgan nisbatlarni tashkil etishi mumkin. Bunday


gabaritlarda mebellar va jihozlarni maqbul joylashtirish imkoniyatlari namoyon etiladi: ovqatlanish uchun (tushlik, nonushta) stoli va stullari, kitoblar uchun shkaf, jurnallar stolchasi, televizor va radio qabul qilgich stoli, yumshoq kursilar (kreslo) va divan, servant va h.k. Biroq shuni aytish joizki, xonalarning mebellar bilan tig'iz to'ldirilishi qulaylik va shinamlikni ta'minlamaydi. Mebellar tarkibi funksional vazifalarga va xonada o'tkaziladigan madaniy-maishiy jarayonlarga javob bermog'i lozim. Bu borada qo'shib qurilgan mebel kabi elastik jihozlardan foydalanish (odatda bu bir-ikki xonali kvartiralarda bo'ladi) eng ratsional yondashuv deb hisoblanadi. Bu jihozning ustunlik tomoni shundaki, birinchidan undan qo'shilgan xonalarning orasida pardevorlar sifatida foydalanish mumkin, ikkinchidan esa uning konstruksiyasini xonalarning har qanday konfiguratsiyasiga elastik moslashtirish mumkin.

Umumiy xonada oila a'zolari to'planib hamjihatlikda o'zaro munosabatda bo'ladilar: - yoqtirgan yumush (ish) bilan mashg'ul bo'lishlari, tinch-osuda dam olishlari va televizion ko'rsatuvlarni ko'rishlari, raqsga tushishlari, nonushta qilishlari va oilaning individual moyilligiga bog'liq holda ko'plab mashg'ulotlarni o'tkazishlari mumkin. Shu sababli, boshqa xonalarnikidan farqli o'laroq, umumiy xonaning bajaradigan vazifalari turli-tumandir.

Umumiy xonaning vazifalari guruhlariga bo'linadi va har bir guruh o'ziga bo'lgan fazoviy zonaga ega bo'ladi: dam olish zonasi, ovqatlanish zonasi, ishchi zona, uxlash zonasi, bolalar zonasi. Bu hamma zonalar birgalikda umumiy xonani tashkil etishning asosini yaratadi.

Umumiy xonaning har bir zonasi o'ziga tegishli bo'lgan yuzani va funksional vazifalarning bemaol bajarilishi uchun zarur bo'lgan ma'lum sharoitlarni talab etadi. Zonalarning yuzasi va fazoviy maqbulligi umumiy xonaning o'lchamlariga va eshik oraliqlarining joylashishi o'rniga bog'liq bo'ladi. Xonalarning mutanosibliksi katta ahamiyatga ega.

Dam olish zonasi ish vaqtidan keyin dam olishga sharoitlar yaratish uchun muljallanadi., bu zonadan asosan kechki soatlarda foydalaniladi, shuning uchun bu xona kunduzgi yorug'lik manbaiga nisbatan ixtiyoriy ravishda joylashtirilishi mumkin. Agar bu zona deraza atrofida joylashtirilsa, u holda ayniqsa yoz faslida dam olish uchun yaxshi sharoit yaratilgan bo'ladi. Dam olish zonasining asosiy jihozlari: divanlar, kursilar (kreslolar), jurnallar uchun past stolchalar, kitoblar va turli buyumlarni taxlash uchun taxtalar, qimmatbaho idishlar uchun va ichimliklar uchun servantlar, musiqa




Har xil gabaritli mebellarni umumiy xona va oshxonaga joylashtirish.

asboblari (fortepiano), radiotelevizion apparatlar. Bu zonani turlicha tashkil etish mumkin, lekin har doim kursilar, divan va stollar uning markaziy bo'g'insi bo'lib qolaveradi. Zonaning o'lchamlari mebellar va maxsus jihozni joylashtirishning turli kombinatsiyalaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Umumiy xonada dam olishning eng keng tarqalgan turi bu oilaviy hamjihatlikda teleko'rsatuvlarni ko'rish yoki musiqa tinglashdir. Shuning uchun kursilar, divan va stollar televizor yoki radioning egallangan joyiga bog'liq holda guruhlashtiriladi, ya'ni televizor ko'rish va radio eshitishga qulay holatda guruhlab joylashtiriladi.

Dam olish zonasini tashkil etishda erkin fazoviy kenglikning hosil qilinishi juda muhimdir, chunki uning mavjudligi toza texnologik ehtiyojlar bilan belgilanadi. Dam olish zonasidan uxlash joyi sifatida foydalanilganda divan yoniga choyshablar uchun mo'ljallangan maxsus tushmaning qo'yilishini ko'zda tutish taqozo etiladi, bu tumba bir vaqtning o'zida kechasi foydalaniladigan stol vazifasini ham bajaradi.

Ovqatlanish zonasi. Umumiy xonada bu zonaning joylashtirilishi ovqat tayyorlash xonasining joylashish o'rni bilan bog'liq.

Ovqatlanish stolining bevosita oshxona yaqiniga joylashtirilishi ma'qulroq bo'ladi, bunda stol atrofida bemalol harakatlanishni hisobga olish talab etiladi. Stolning xona o'rtasida an'anaviy joylashtirilishi ovqatlanish uchun maxsus xona ajratilgan holdagina o'zini oqlashi mumkin, chunki bu yerda zona faqat ovqatlanish uchungina mo'ljallangan bo'ladi.



Umumiy xonani funksional zonalarga to'siq (maskur holda suriluvchi) bilan ajratish namunasi.



Umumiy xonani shaffof material yordamida funksional zonalarga ajratish namunasi .

Umumiy xonada nonushta qilish zonasini tashkil etish qulay, bunda yuzadan yutish nuqtai-nazaridan va estetik talqin etishdan kelib chiqiladi. Bir nechta funksional zonalarga ega bo'lgan umumiy xonaning zamonaviy yechimlarida ovqatlanish zonasi kompozitsiyada yetakchi bo'lsada, xonaning markaziy qismini kam hollardagina egallaydi, asosan u devor yaqiniga joylashtiriladi. Ovqatlanish zonasida ovqat qabul qilishga mo'ljallangan stol va stullardan tashqari idish-tovoqlar uchun shkaf yoki taxmon servant stol ham o'z o'rnini topmog'i lozim. Yaxshi jihozlangan oshxonaga ega bo'lingan hollarda idish-tovoqlar va boshqa shunga o'xshash anjomlar (buyumlar) oshxonada saqlaniladi.

Umumiy xonada faqat dekorativ ko'rinishga ega bo'lgan idishlar saqlanadi. Umumiy xonaning mutanosibliksi juda xilma-xil bo'lishi mumkin: - ensiz tomoniga deraza joylashgan uzun xona, kvadrat va kvadratga yaqin bo'lgan xonalar, uzun tomoniga derazalar joylashtirilgan va bo'yi eniga nisbatan uzun bo'lgan xonalar.

Turli mutanosiblik va eshiklar oraliqlarining joylashish holatiga bog'liq ravishda umumiy xonani rejalashning mumkin bo'lgan variantlari, uning fazoviy kengligini funksional zonalarga ajratish (83-rasm, 170 b.). Uzun xonalar ko'rib belgilanadigan fazoviy kengliklarga bo'linishi mumkin. Xonaning derazalardan uzoqda joylashgan qorong'iroq qismini yorug'roq qilish maqsadida qismlarga

ajratish elementlari panjaralar ko‘rinishida yaltiroq bo‘lishi kerak. Xonani zonalarga ajratishda mebellar past buyumlari (divanlar, komodlar, tuvaklarga o‘tqazilgan gullar va h.k).

Bo‘yi bo‘yicha cho‘zilgan xonalarni zonalarga ajratishda ajratuvchi elementlar sifatida to‘liq yassi to‘siqlardan ham foydalanish mumkin. Shipgacha yetib bormaydigan harakatlanuvchi (suriluvchan) pardevorlar, bunda har bir zona yaxshi izolyatsiyaga va tabiiy yorug‘likka ega bo‘ladi. Xonalarning funksional zonalarga past balandlikka ega bo‘lgan mebellar buyumlar yordamida zonalarga ajratilishi uzun xonalarga nisbatan ancha qulay bo‘lgan kartinani namoyon etadi. Tabiiy yorug‘lik bilan bir tekis yoritiladigan xonalar ancha to‘liqroq qabul qilinadi. Yashaydigan soniga va maydoniga bog‘liq bo‘lmagan holda umumiy xonalarning eni 3 metrdan kam bo‘lmasligi zarur bo‘lgan jihozlarni joylashtirishning qoidasi bilan aniqlanadi. Kvadrat shaklidagi xonalar va unga yaqin bo‘lgan xonalar mebellarni guruhlash orqali ularda asoslangan xonalarni ajratish va tashkil etish uchun bir xil qulayliklarga ega yoki qismlarga ajratishning qo‘shimcha elementlaridan foydalanib, ularga qandaydir izolyatsiyani berish mumkin. Bunda har bir zona yaxshi tabiiy yoritilishga ega bo‘ladi. Shu sababli kvadrat shaklidagi xonalar va ulchamlarining nisbati 1:1,5 bo‘lgan xonalar ancha ma’qulroq bo‘ladi.

Joylashishi ikkita sathda yechilgan kvartiralarda xonalarni bog‘lovchi ichki zinapoyalar umumiy xonada joylashadi. Zinapoyalarning mavjudligi umumiy xona interyerini boyitadi. Unga qo‘shimcha sifatlar bog‘laydi (86-rasm, 175 b).




80 rasm. Ikki sathli kvartirada zipoyani o‘rnatishga misol.



Zinapoyalarga ega bo'lgan xona boshqa xonalardan ko'rkamligi bilan ajralib turadi. Zinapoyalar yopiq va unga boshqa xonadan kiriladigan hollarda uni umumiy xonaga chiqarish mumkin va bu yerda qulay taxmonni yuzaga keltirib, zonalardan birini tashkil etish mumkin. Umumiy xona interyerida sun'iy yorug'lik tashkil etish katta ahamiyatga ega.



Turar-joy xonalarida
qo'llaniladigan turli xil
lampalar
mo'ljallangan turli
modifikatsiyaga ega
bo'lgan chiroqlar



Umumiy xonada qo'llanadigan
yoritish jihozlarga namunalar: A-
markaziy lustra; B-pol ustiga
o'rnatiladigan torsher; V – devorga
o'rnatiladigan bra.



Bir tomondan funksional zaruriyatdan kelib chiqqan holda yorug'lik manbalarining o'rni va sonini aniqlash muhimdir, ikkinchidan chiroqlarning dekorativ xossalari va ularning umumiy xonadagi joylashish holati interyer kompozitsiyasida katta rol o'ynaydi. Butun xonaning yaxshi va bir tekisda yoritilishi xonaning yanada kengroq his qilinishini ta'minlaydi, aksincha xonaning kontrastli yoritilishi tufayli uning bir qismi yorqin yoritilsa, boshqa qismi soyada qoladi, bu esa xonani tor his qilib, qabul qilinishiga sababchi bo'ladi. Shu sababli har doim umumiy yoritilish talab etiladi. U har xil yechilishi mumkin. Bu umumiy xonaning butun fazoviy kengligini neytral ifodalangan yorug'lik manbai bilan birlashtiradigan, mayin tarqaladigan yorug'lik bo'lishi mumkin.

Bunday hollarda plafon ko‘rinishidagi ship markaziga o‘rnatiladigan chiroqlar ship perimetri funktsionalli potensial – ko‘p ahamiyatli tushunchalarning tarmoqlangan ierarxiyasini o‘zida mujassam etgan umumlashtiruvchi termin . Uning asosiy tashkil etuvchilari orasidan “dolzarb vazifalar” guruhini, ya’ni iste’molchi tushunchasida ob’jekt shaklining qimmatli (eng muhim) tavsifistkalari bilan bog‘langan (aloqador) vazifalarni ajratib olish mumkin. Dolzarb vazifalar o‘ziga “hosil qiluvchi funksiyalar” guruhini kiritadi, ular ob’jektning birlamchi vazifasini aniqlab beradi. “Hosil qiluvchi vazifalar” “tug‘iladigan” yoki “ishchi vazifalar”ning vujudga kelishiga shart-sharoit hozirlaydi, ya’ni bu shunday vazifalarki, ularda arxitekturaviy ob’jekt qurilgandan keyin unda oldindan ko‘zda tutilgan xossalarining ma’lum bir qismi reallashadi. Ishchi vazifalar yetakchi va yo‘ldosh vazifalarga bo‘linadi (ular ob’jektning butun ekspuatatsion davrining har bir paytida yuzaga kelishi mumkin).

Arxitekturaviy ob’yektlarning funksional jihatlarini ko‘rib chiqishda quydagilarni hisobga olish taqazo etiladi- yaratiladigan inshootdagi jarayon yoki ishchi vazifalardan kelib chiqqan holda qayta moslashtirilgan inshootda jarayon har doim ham qabul qilingan gipotezaga muvofiq o‘tkazilavermaydi. Ikkita; ideal va real vazifalarni farqlash taqazo etiladi. Ideal vazifalarning talablari bo‘yicha ob’jekt shakillantiriladi, ikkinchi ya’ni real vazifalar bo‘yicha esa, ob’jekt real ravishda vazifasini bajaradi.

Har bir loyihalovchi bu farqni minimumga olib kelishga intiladi, lekin real holatni oldindan bashorat qilish (real foydalunuvchining qanday o‘zini tutishini oldindan bashorat qilish) juda murakkab, hattoki ideal vazifa ham o‘rtacha-statistik iste’molchilarga tayanadi.

Arxitekturaviy interpretatsiya asosida shakl va vazifaning o‘zaro ta’sirlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan nyuanslar (tushunmovchiliklar)ning yuzaga kelishining keng spektri yotadi. N.A.Ladovskiy 1919-1921 yillarda o‘zining ijodiy kredosini shunday ifodalagan edi: “Konstruksiya arxitekturaga shuncha kiradiki, u kenglik tushunchasini o‘shancha aniqlab beradi” [21], “ texnik konstruksiya-bezatilgan moddiy elementlarning ma’lum reja-sxema bo‘yicha kuch effektini egallash uchun birikishidir”.

M.L.Ginzburg konstruksiya haqida “estetik tizim” sifatida shunday deb yozgan edi: “ Konstruktsion tizim bizning qabul qilish tajribamiz va insonning psixofiziologik jihatlari evaziga boshqa bir o‘zini “kiyintiradigan” va bir vaqtning o‘zida yuzaga keluvchi hamda shaklning tinch holatdagi konstruksiyaga bog‘liq bo‘lgan boshqa bir tizimni yoki, to‘g‘ri qilib aytganda, estetik tizimni vujudga keltiradi”.

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib, xulosa qilish mumkinki, bino butun bir holatda turli dominantlar bilan turli sifatli tizimlardan tashkil topmog‘i lozim. Bu turli sifatli dominantlar deganda biz vazifa, konstruksiya va shaklni tushunamiz. Bo‘yicha bo‘shliq yoki qisman bir chiziq yo‘nalishida o‘rnatiladigan lyuminessentli qiruvchi shakldagi chiroqlardan foydalaniladi. Chiroqlarning bunday o‘rnatilishi natijasida bir tekis tarqaladigan yorug‘lik yoritiladi. Xona shipning markaziga osilgan chiroyli qandil interyer kompozitsiyasining muhim bir elementiga aylanadi. Alohida zonalarini yanada intensiv yoritish uchun zarur yorug‘likning ma’lum joyga o‘rnatilgan manbalari ko‘zda tutiladi. Dam olish zonasiga tarsher ko‘rinishidagi chiroqlar yoki junallar stolchasi ustiga past qilib tushirilgan chiroqlar shinamlilik bag‘ishlaydi. Ovqatlanish zonasidagi nonushta stolining yaxshi yoritilishi uchun uning ustida shipga osma chiroq o‘rnatiladi. Chiroqlar tizimi umumiy xona interyeri kompozitsiyasida faol rol o‘ynashi mumkin, ayniqsa xonalarning katta yuzaga ega bo‘lgan shipda chiroqlar qatorining tashkil etilishi interyer kompozitsiyasida muhim rolni bajaradi. Umumiy xonada bitta markaziy qandilni o‘rnatish bilan masala to‘liq o‘z yechimini topmaydi. Umumiy xona boshqa xonalar uchun ham ko‘zni qamashtirmaydigan effektlar bosh yoritish deb hisoblanadi. Bosh yoritish osma yoki qo‘shib quriladigan chiroqlardan yoki yorug‘likni qaytaradigan yorug‘lik karnizlaridan tashkil topishi mumkin. Foydalanilayotgan yorug‘lik manbalarining turiga bog‘liq ravishda yorug‘lik yorug‘likni rostlash moslamasi yordamida tartibga solinadi. Yordamchi yorug‘lik (yoritishni) devorga o‘rnatilgan chiroqlar yoki tarsherlarni ta’minlab beradi, ular tinch atmosferani ta’minlab beradi,

masalan, televizor orqali ko'rsatuvlar tomashta qilinayotgan paytda ulardan foydalanish mumkin.

Kursi (kreslo)da kitob o'qish uchun, ishchi burchakni yorug'likning lokal manbaidan foydalanib, yoritish zarur bo'ladi. Bu maqsadga erishish uchun devoriy chiroqlar asqotadi. Irsiy zona. Bu zonaga uxlash xonalari va bolalar uchun mo'ljallangan xonalar kiradi. Qoidaga ko'ra, bu xonalar bir yoki ikki kishi uchun mo'ljallanadi.

Uxlash xonasi tinch va osayishtalikni talab etadigan xonani namoyon etadi, bu yerda inson to'laqonli dam olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu xonada inson o'zini atrofdagi shovqindan ajrata olishi mumkin va faqat shunday sharoitlardagina dam olish, uyqu va ish bir maromda (xotirjam) o'tkazilishi mumkin. Shu sababli uxlash xonasini shovqin zonadan (umumiy xona, oshxona va zinapoya yacheykasi) uzoqroqda joylashtirish ma'qulroq bo'ladi, bunda albatta sanitar tuguni bilan qulay bog'lanish ta'minlamog'i yoki saqlanmog'i zarur bo'ladi. Me'yoriy talablar uxlash xonasida o'tish joylarining bo'lishga yo'l qo'ymaydi. Uxlash xonalariga qo'yiladigan asosiy talablar ularda qulay sharoitlarning, ayniqsa birinchi navbatda me'yoriy harorat-namlik rejimi, tashqi shovqindan himoya qilish, tabiiy yorug'lik bilan yoritilishning va shu kabilarning ta'minlanmog'i talab etiladi. Bunday sharoitlar ko'pincha derazalarning yorug'lik tushadigan tamonga qaratilishi va ushbu xonalardagi havoning intensiv sirkulyatsiya qilinishi bilan belgilanadi.


Yuqorida sanab o'tilgan sharoitlardan oxirgisi ayniqsa O'zbekiston uchun xos bo'lgan quruq va issiq iqlimda juda muhim ahamiyatga egadir. Amaliyotda bunday sharoitlar shamollatishning tegishli tizimining qo'llanishi bilan ta'minlanadi: to'g'ri yo'nalishda va burchakli shamollatish (85-rasm). To'g'ri yo'nalishli shamollatish asosan xonalarning qator joylashtirilishida, ya'ni yotoq xona o'zining bir tomoni bilan tashqi devorga tutashgan hollarda amalga oshiriladi. Bunday xolda xona bevosita bitta deraza orqali tabiiy yoritiladi, ya'ni yon tomondan yoritiladi, uning shamollatilishi qo'shni xonalarning qarama-qarshi tomonga qaratilgan derazalari orqali amalga oshiriladi.

Burchakli shamollatish binoning chetki tomonida joylashgan yotoqxona qo'llaniladi. Shamollatishning bunday tizimi shamollatishning birinchi tizimiga nisbatan kam samaralidir. Yotoq xonalarini loyihaviy yechishda ularning bakteriyaga qarshilik ko'rsatish xossalarini oshirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda sanitariya-gigienik me'yorlarda ularning derazalarini janub va janubiy sharqqa qaratish tavsiya etiladi. Uxlash xonalarining bunday mo'ljallanishida ularga kunduzi uch soat davomida quyosh nurlari tushadi, bu esa xavoni kasallik tarqatuvchi bakteriyalardan tozalash uchun yetarlidir.

Uxlash xonalarining soni va yuzasi (maydoni) oila a'zolarining sonidan kelib chiqqan holda o'rnatiladi va qabul qilinadi: bir kishi uchun 8 m² dan kam bo'lmagan, ikki kishi uchun esa 12-14 m² dan kam bo'lmagan yuza qabul qilinadi.

Bunday yuza katta yoshdagi oila a'zosi uchun ham, kichik yoshli bolalar uchun ham zarur bo'lgan qulaylikni hosil qiladi. Jihozning joylashish o'rnini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lish har qanday xona rejalashining asosiy sifatlaridan biri hisoblanadi. Bunday talqin etishdan kelib chiqadiki, bir kishi uchun mo'ljallangan uxlash xonasining eni 2,2 metrdan kam bo'lmashligi lozim. Erkak va ayol (er-xotin) juftligi uchun mo'ljallangan uxlash xonalariga ikki kishilik krovat joylashtirilishi ko'zda tutiladi, bu krovatning eni (ikki kishilik krovatning eni 110 sm dan 130 sm gacha bo'ladi) alohida turuvchi ikkita bir kishilik krovatning enidan kichik bo'ladi.

Buning natijasida uxlash xonasida mavjud bo'lgan erkin fazoviy kenglik to'g'risida "yolg'on" tasavvur yuzaga keladi.



Xonalarining o'lchamlari va nisbatlariga bog'liq ravishda yotoqxonalarini tashkil etish variantlari: A- bir kishi uchun, B- otalonalar uchun, V – o'rta yoshdagi ikkita bola uchun.

Er-xotin uchun mo'ljallangan uxlash xonasining maqbul eni 3 metrni tashkil etish lozim, bunday o'lchov jihozning hamma elementlarini qulay joylashtirish va krovatlarning joylashish o'rnini o'zgartirish imkonini beradi. Bu me'yorlarda ota-ona uchun mo'ljallangan uxlash xonalarida emizikli bola uchun krovatchaning joylashtirilishi ham inobatga olinadi. Kishilarning sonini hisobga olgan holda uxlash xonalarining parametrlari qabul qilinadi. Shunday qilib ikki kishi uchun uxlash xonasining eni 2,4 m dan bo'yi esa 5 m dan kam bo'lmasligi lozim. Uxlash xonalari ularda bajariladigan vazifalarga javob beradigan mebellar bilan jihozlanadi.


Odatda uxlash xonalari krovatlardan tashqari krovatlar oldida turadigan tumbochkalar, shifoner, tryumo va pufik hamda stolchalar bilan ham jihozlanadi. Zarur bo'lgan hollarda bu yerda katta bo'lmagan yozuv stolini ham joylashtirish mumkin.



Yotoqxonani yotoq garnitura mebeli bilan bezatish namunasi.

Uxlash xonalarida krovatlar o'rnida divan yoki divan-krovatlar ham o'rnatilishi mumkin, u holda xonani jihozlashda ko'rpa-to'shak o'rnida ishlatiladigan buyumlarni saqlash uchun tumbochkalar yoki mebel tizimida ular

uchun maxsus bo'limning ajratilishi ko'zda tutilishi talab etiladi. Uxlash xonalarini divanlar va kushaykalar bilan jihozlash yoshlar uchun xosdir. Bunda divan o'tirish uchun xizmat qilib, uxlash xonasidan mehmonlarni kutish uchun foydalanish mumkin. Uxlash xonasiga ikkita krovat joylashtirilganda, har bir yashovchi uchun teng kuchli sharoit yaratilishi zarur. Har bir krovatga erkin holda yetib borish ta'minlangan bo'lishi lozim. Uxlash xonasida krovatlardan tashqari sanitariya stoli, choyshablar, kiyimlar va poyafzallar uchun shkaf, ikkita stul bilan ish stoli bo'ladi. Minimal jihozga kitoblar shkafi qo'shilishi mumkin. Uxlash xonasining vazifa, interyerning tashkil etilishi xonaning mutanosibliksi va jihozning tavsifiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Mebellarni qulay joylashtirish va interyerni tashkil etish uchun uxlash xonasi tomonlarining nisbati (mutanosibliksi) 1:1 yoki 2:3 qilib olinadi. Uxlash xonasi odatda to'plamli mebel bilan jihozlanadi. Uxlash xonalarining boshqa turlari uchun to'plamlar kam ahamiyat kasb etadi. To'plamga kiruvchi planotli shkaflar, odatda oila ehtiyojlarini to'liq ta'minlamaydi, uning ustiga ancha katta bo'ladi va foydalanish uchun noqulaydir. Uxlash xonasining jihozining eng yaxshi turi bu qo'shib qurilgan shkaflardir. Ularning tizimida ish stolining o'rnini bosuvchi sekreterlar, kitoblar uchun taxtalar va turli qutilarning bo'lishi hisobga olingan bo'ladi. Ikki kishi uchun mo'ljallangan uxlash xonasining interyerini tashkil etish uchun har bir kishiga uxlash va ishlash joyi, shaxsiy buyumlar, ko'ylak, choyshablarni saqlash shkafi uchun joy bo'lishi kerak. Ota-onalar uchun uxlash xonasini loyihalashda unda bolalar krovatini joylashtirishni ham nazarda tutish talab etiladi, bunda bu joy yaxshi yoritilgan va yetib borishga qulay bo'lmog'i taqozo etiladi.



Ota-ona yotoqxonasiga bolalar krovatchasini joylashtirishga variantlari.


Tashqaridan uxlash xonasiga tushadigan tabiiy yorug‘likdan tashqari, sof funksional ahamiyatga ega bo‘lgan sun‘iy yorug‘lik (yoritish) ko‘zda tutiladi. Sun‘iy yoritish ikki turdan tashkil topadi: umumiy va lokal. Umumiy yoritish yorug‘lik manbaining uxlash xonasining o‘rtasiga o‘rnatilishi bilan ta‘minlanadi va bunda butun xonaga yengil bir tekis yorug‘lik beriladi. Yoritishning lokal turi ish stoli atrofi, sanitariya stoli yaqini va tarsher turidagi qo‘shimcha chiroqlardan tarqaladigan yorug‘likdir.

Bolalar xonalari


Ko‘p bolali oilalar yashaydigan kvartiralarda imkon qadar bolalar uchun maxsus alohida xonalar ko‘zda tutiladi. Bu xonalarni loyihalash ma‘lum darajada murakkab masala, chunki bu xonalar egalarining bog‘cha, maktab yoshidan to kaytargunga qadar jismoniy rivojlanish dinamikasini hisobga olishga to‘g‘ri keladi, bu esa ushbu xonalar interyer muhitini tez-tez almashtirish muammosini yuzaga keltiradi. Ularning yuzasi xuddi boshqa uxlash xonalari yuzasi kabi aniqlanadi. Bolalar xonalari yengil va quvonch bag‘ishlovchi mazmunda bezatilishi va mebellar bilan jihozlanishi lozim.

Uni mebel va boshqa buyumlar bilan ortiqcha to'ldirilishi maqsadga muvofiq emas. Mebellarni tanlashda nafaqat ularning ko'rinishiga, balki sifatiga ham e'tibor bilan yondashmoq kerak va bunda rangli, mustahkam va oddiy konstruksiyali mebellarni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi.


A



B



B



Bolalar xonasiga ikki yarusli krovatni joylashtirishga namunasi: A – ikki qavatli konstruksiya; B – birinchisining ostiga joylashtirilgan chiqariladigan krovatli konstruksiya; V – uch krovatli konstruksiya.

Bolalar xonasining jihozlarini jamlashtirishda, bu jihozlar bog'cha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, u holda ularning uyinlari va yugurishlari uchun kengroq yuza hosil qilinishini hisobga olish taqozo etiladi. Shu sababli bu xonalar yig'iladigan va transformatsiyalashadigan mebellar ikki yarusni konstruksiyasiga ega bo'lgan krovotlar bilan jihozlanishi maqsadga muvofiq deb topiladi (88 - rasm). Bunday krovatlarning gabaritlari ularni xonaning istalgan joyiga o'rnatish imkonini beradi. Ba'zida yuqori krovat pastki krovat yarmisining

ustiga joylashtiriladi va bunda bitta krovatga nisbatan bir yarim barobar ko‘proq joy egallanadi.

Yuqorida joylashgan krovat tagidagi bo‘sh joyga shkafchalar o‘rnatilishi mumkin. Bunday yechimni ancha tejamkor deb hisoblash mumkin. Uchta krovatdan kombinatsiya ham mavjud. Ikki yarusli krovatlar tizimi bolalar yotoqxonasida uch va to‘rt bola uchun nisbatan chegaralangan yuzani joylashtirish imkonini beradi.

Bolalar yotoq xonalarini mebelga qo‘shib qurilgan buralib ajratiladigan krovatlar, devorlariga kiritiladigan maxsus taxmon ko‘rinishidagi suriladigan krovatlar yoki shkafli pardevorlarga surilib kiritiladigan va ulardan chiqariladigan krovatlar bilan jihozlash ham mumkin. Bundan tashqari ancha tejamkor variantlar – uchta krovatdan tashkil topgan kombinatsiya, bu kombinatsiyada g‘ildirakli pastki krovat (uchinchi) yuqoridagi birinchi krovat tagiga surilib kiritiladigan va zarur paytlarda tortib chiqariladi (uxlash paytida). Bolalar ko‘zida odatdagi stul samolyot, avtomobil va paroxod ham bo‘lish mumkin, stol esa ertakdagi kabi uy, oddiy cho‘p – sevimli toychoq ham bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun bolalarning xonalarida ko‘p hollarda oddiy shakldagi mebellar ko‘proq qo‘llaniladi, ulardan bolalar taassurotidagi boy buyumtaziya asosida har xil kombinatsiyalar tuzish mumkin. Mebeldan jarohat olmaslikning oldini olish uchun ularda o‘tkir burchaklar va chiqib turgan qismlar bo‘lmasligi kerak. Maktab yoshiga yetgach bolalar xonasini qayta jihozlash va mebelini yangilash bilan bog‘liq bo‘lgan tashvishlar yuzaga keladi. Ular deraza yaqiniga joylashgan, kunduzi yaxshi yoritiladigan va kechqurun ishlash uchun mos keladigan chiroq bilan ta‘minlanishi zarur. Bu burchakni eni yetarli kattalikda bo‘lgan taxtani ikkita tumbochka ustiga quyish bilan tashkil etish mumkin, tumbochkalar ichiga esa darsliklar va daftarlarni taxlash mumkin.

Atrofdagi tashqi olamning bolalar tomonidan qabul qilinishida rang alohida muhim rol o‘ynaydi. Olib borilgan qator psixologik izlanishlar shundan guvohlik beradiki, ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda yorug‘lik spektrining eng iliq tomonlariga, masalan, qizil, sariq, olov ranglarga moyillik bo‘ladi. Keyinchalik

esa yashil va ko'k ranglarga va ulardan hosil qilinadigan hosilaviy ranglarga moyillik seziladi. Rangli tasvirlarni haddan tashqari to'q ranglarda bajarmaslik kerak, aks holda salbiy effekt yuzaga kelishi mumkin. Bolalar yotoqxonalarini tabiiy yoritish uchun tarsher va devorga o'rnatiladigan chiroqlarning o'rnatilishi judayam maqsadga muvofiq kelmaydi, odatda chiroqlar shipka osma ravishda o'rnatiladi, chunki bunda bolalar qo'llarini chiroqqa uzata olishmaydi. Agar bu chiroqni xona o'rtasidan xonaning istalgan joyiga masalan, stol ustiga, deraza yoniga yoki krovat ustiga siljitish mumkin bo'sa, u holda yanada yaxshiroq qulaylik yaratiladi.

Bolalar xonasining polini tushakchalar bilan qoplashga alohida e'tibor qaratish lozim. Pol to'shalmasi gigienik talablarga qat'iy javob bermog'i lozim, to'shalma yuqori sifatga va issiq saqlovchanlikka (issiqbardoshlikka) ega bo'lishi kerak. Kovrolanlarning har bir turlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki ular mahkam, unda chiqib turgan o'simtalar bo'lmaydi, u changni o'ziga yutmaydi, bukilganda unda tirish joylar hosil bo'lmaydi. Binolar xonasi uchun linoleumdan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir, chunki u juda gigienikdir va yengil tozalanadi. Faqat krovat yoniga (oldiga) yorqin tokdagi kichik gilam tushashsa yanada yaxshiroq bo'ladi. Linoleumni ko'rpa-to'shak bilan uyg'unlashtirib, xonaning ma'lum hayotiylikiga erishish mumkin.

Kichik yoshdagi o'g'il bola va qiz bolalar vaqt o'tishi bilan ulg'ayadilar va ularning o'spirinlik davrida mustaqillik hissi va did shakllana boshlaydi hamda ular shaxsiy hayotga qadam tashlaydilar. Ular rivojlanishining bunday davrida o'zining xususiy "boshpanaga" ega bo'lishi haqiqiy reallikka aylanadi. Natijada kvartirani qaytadan moslashtirish, mebellarni almashtirish, qayta o'rnatish, yangisini xarid qilish va oilada sodir bo'layotgan o'zgarishlarni qoniqtiradigan yechimlarini izlab topish zaruriyati yuzaga keladi. Bu zaruriyat oilada bir qator muammolarni keltirib chiqaradi, bu muammolar haqida albatta oldindan o'ylash kerak bo'ladi. Agar bolalar xonasini kelajakni hisobga olgan holda jihozlab borilsa, u holda bunday holat ko'p jihatdan o'smirlar va yoshlarning ehtiyojlariga mos kelishi mumkin.


Agar oilada o'g'il va qiz ulg'ayotgan bo'lsa muammo yanada murakkabroq tus oladi. Bunday vaziyatlarda agar xona yetarli darajada katta bo'lsa va qarama-qarshi joylashgan ikkita derazaga ega bo'lsa, u holda bu xonani pardevor bilan ikkiga bo'lish mumkin. Bunday pardevor sifatida yengil shkaf-devordan foydalanish ko'p qulayliklarga ega bo'lgan muhitni hosil qiladi, shkafga ikkita krovatni o'rnatish mumkin, uning har ikkala tomonidagi qolgan qismidan jovonlar va kutubxona sifatida foydalanish mumkin. O'smir va yoshlar xonasini mebellashtirish odatda quyidagilardan iborat: krovat yoki divan, katta bo'magan shkaf, ish stoli (dars tayyorlash uchun), kitoblar uchun bir nechta jovonli moslamas. Mebellarni o'spirin yoshlar o'zlarining dididan kelib chiqqan holda tanlaydilar.

Agar xonada bo'sh joy bo'lsa, u holda u joyga yengil konstruksiyaga ega bo'lgan kresloni qo'yish, xonani yoritishda tarsher yoki osma chiroqlardan foydalanish mumkin, polga katta bo'magan oddiy naqshli gilam va original sinovka to'shaladi.



Xo'jalik-kommunikatsiya zonasi oshxona, dahliz, kvartira ichi koridorlari, shyuz va kladovkadan tashkil topadi. Odatda uning xizmat ko'rsatish uchun uni qulay bo'lishi uchun tantanavor zona yaqiniga joylashtirish qabul qilingan. Bu zonani tantanovar va irsiy zona orasiga joylashtirish klassik sxema deyiladi. Interyerni tashkil etishda ulardan oshxona va dahliz muhim rol o'ynaydi.

Oshxona. Zamonaviy kvartiralarda oshxona uning loyihalanishida muhim element hisoblanadi. Kvartira rejasida oshxonaning egallagan o'rni (holati) kvartira interyerining butun fazoviy bog'lanish tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Yaqingacha odatdagi oshxonaning fazoviy kengligining yuzasi 8-11 m² tashkil etadi. Bunday fazoviy kenglikka oshxona jihozining odatiy to'plamini, televizorni ham, gullar, kitoblarni ham sig'dirishga to'g'ri kelgan. Texnik ta'minlangan, shinam oshxona nafaqat uning egasi uy bekasiga, balki boshqa oila a'zolariga ham xushkayfiyat bag'ishlaydi, uy bekasi esa o'z oilasi bilan doimiy muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. shunday qilib, oshxonaning ahamiyati yashash xonasining mavqeigacha ko'tarilyapti, uning ahamiyati butun kvartira interyeri


uchun ham estetik jihatdan o'sib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra ishlaydigan ayol o'z vaqtini bir kunda 2 soatdan 4 soatgacha oshxonada o'tkazar ekan, uydagi xo'jalik ishlarini olib borishga sarflanadigan vaqtni tejashga va oshxonadagi ishlarni yengillashtirishga qaratilgan turli tadbirlar katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli oshxonalarni loyihalashda asosiy maqsad uning fazoviy kengligi va jihozlanishi mehnatni yengillatishga va vaqt sarfini qisqartirishga xizmat qila olishini ta'minlashga qaratiladi.



Oshxona jiho-zini bir qator qilib joylashtirishga doir misol.



Oshxona jihozini burchakli joylashtirishga doir misol.



Bu maqsadga erishish uchun oshxonani oqilona rejalash, uning turini kvartiraga mos tarzda ratsional tanlash asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday holatda kelib chiqqan holda oshxonada ro'y beradigan hamma funksional jarayonlarni biriktiradigan yagona tizim o'rnatiladi, bu tizim asosida jihozlarning hamma

elementlari o'rnatiladi va oshxona ikkita zona-ovqat tayyorlash zonasi va ovqatlanish zonasiga bo'linadi. Ovqatlanish zonasidan oshxonada o'tkaziladigan boshqa jarayonlar uchun ham foydalanish mumkin. Oshxona jihozlari ishchi yuzasining balandligi 85 sm (ayollarning o'rtacha bo'yiga va tik turib ishlash sharoitlariga mos keladi) qilib qabul qilinadi, ularning maksimal eni 60 sm ni minimal eni esa 30 sm ni tashkil etadi. Turar-joylarni loyihalashtirishda oshxonalarni jihozlashning uchta asosiy usuli qo'llaniladi:

- jihozlarning alohida buyumlari (plita, yuvish idishi, sovutkich, ish stoli, osma shkaflar) to'plami bilan jihozlar;


- pastki va yuqori qator elementlariga ega bo'lgan baland shkafni namoyon etuvchi seksiyali (bo'limli) mebel bilan jihozlash;

- uyni qurish jarayonida montaj qilib o'rnatiladigan jihozlar bilan jihozlash.

Oshxona mebellarini bir qator (bir chiziq bo'yicha) qilib joylashtirish texnologik talablar natijasi hisoblanadi va estetik talablarga javob beradi. Alohida elementlarning kompozitsion birlashtirilishi bilan interyerda yaxlitlik va ko'rkamlikka erishiladi, oshxonadagi fazoviy kenglik jihozlarning alohida hajmda o'rnatiladigan oshxonadagiga qaraganda ancha keng his qilinadi. Jihozlar bir qator qilib, devorga taqab joylashtirilishi sun'iy yoritishning yangi yechimini talab etadi. Oshxonani sun'iy ravishda markaziy chiroqlar yordamida yoritishda ish stolining yuzasiga ishlayotgan odamning soyasi tushishi ovqat tayyorlash jarayoniga salbiy ta'sirini ko'rsatadi, buni bartaraf etish maqsadida ish stoli yuzasini yoritish kuzda tutilmog'i lozim. Ish stoli yuzasini yoritish past tekisliklarda osma elementlarni tashkil etish va devorga lyuminessentli trubkalar (chiroqlar)ni montaj qilish orqali amalga oshiriladi.

Oshxona o'lchamlarining nisbati, xona konfiguratsiyasi, deraza va eshik oraliqlarining joylashish o'rniga bog'liq ravishda jihozlarni joylashtirishning 4 ta sxemasidan biri qo'llanilishi mumkin. Ensiz tomonida bitta derazaga ega bo'lgan chuzinchoq shakldagi oshxonalarda jihozlarni devorning uzun tomonlaridan biri bo'ylab joylashtirish keng tarqalgan.

Bu tizimning afzalligi ishchi operatsiyalarni funksional ketma-ketlikda yengil bajarilishiga erish, injenerlik uzatmalarning tejalishi va jihozlarning oddiy tayyorlanishi (burchakli elementlarning bo'lmasligi) bilan izohlanadi. Tizimning kamchiliklariga ish frontining uzunligi va xonaning ensizligi tufayli nonushta stolini joylashtirishda qiyinchilikning yuzaga kelishi kiradi. Jihozlar qisqartirilgan tarkibda qo'llanilishi mumkin. Deraza oralig'i poldan 85 sm balandlikda joylashishi lozim.




Oshxona- taxmonning tarxii yechimiga doir misol.

Bunday tizim foydalanish uchun juda qulay. Bu tizim ham chiziqli tizimdagi kabi qator ustunliklarga ega. Unda ham jihozlarning uzluksizligi ketma-ketligi ta'minlanadi. Agar bir qator chiziqli tizimda ish frontining uzunligi kamchiligi bo'lsa, "G" simon tizim bunday kamchilikdan holi bo'lib, unda xizmat qilish yo'li (masofasi) qisqaradi, uy bekasi jihozlarning hamma tugunlarini ko'rgan holda o'tirib ishlashi mumkin. Deraza orqali tushayotgan yorug'lik ishchi yuzani yaxshi yoritadi. Hamma tizimning ixchamligi barcha hollarda nonushta stolini qulay joylashtirish imkonini beradi. Bunda oshxonaning fazoviy kengligi ishchi zonasi va ovqatlanish zonasiga puxta bo'linadi. Jihozlarning burchakli joylashtirilishi deraza orqalaridagi devor yoniga ham o'rnatilishi mumkin.

Bunday jihozning bir tomoni tabiiy yoritilishga nisbatan noqulay holatda joylashadi. Jihozlarning burchakli joylashtirilishi katta va kichik yuzaga ega bo'lgan oshxonalarning shakli kvadrat yoki bo'yi uzunroq to'rtburchak, jihozlar tarkibining to'liq yoki qisqartirilishidan qat'i nazar har qaysisi uchun ham

qulaydir. Kuxnlarni loyihalashda ish joylarini tabiiy yorug‘lik bilan yoritishga katta e‘tibor qaratiladi. To‘g‘ri va yon tomonlardan yoritilganda oshxonada ishlash uchun yaxshi sharoit yaratiladi. Ya‘ni jihozlarning ish tekisligi deraza yoniga yoki derazaga tutashib ketgan devor oldiga joylashtirilganda ish yuzasi tabiiy yorug‘lik yordamida yaxshi yoritiladi. Oshxonalarni loyihalashning yomon varianti bu jihozlarning deraza oralig‘iga qarama-qarshi turgan devor yoniga joylashtirilishidir.



Oshxona-oshxonaning tarxiy yechimiga doir misol.

Bunday yechim faqat oshxonaning o‘lchamlaridan biri ancha uzun bo‘lgan holda va tabiiy yoritish ushbu oshxona uchun asosiy deb hisoblanmagan hollarda o‘zini oqlashi mumkin.

Jihozlarni deraza atrofiga joylashtirish, shubhasiz, yaxshi usul hisoblanadi, lekin bunda osma shkaflarni o‘rnatishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Deraza oynalarining ishchi tekislik balandligida joylashishi oshxonani yaxshi yoritadi va osma shkaflar ustidagi tasmaimon oynali derazalar oshxonaning bir tekis yoritilishini ta‘minlaydi. Interier hamda uy fasadining ko‘rinishi nuqtai-nazaridan bunday usul ancha qiziqarlidir.

Zamonaviy loyihalash-qurilish amaliyotida oshxonalarning uchta asosiy turi qabul qilingan: oshxona-taxmon (nish); oshxona-oshxona, ishchi oshxona kvartirani loyihalashda oshxonalarning u yoki bu turining tanlanishi oila tarkibi, uyda xo‘jalik yuritish xususiyati, turar-joyning shinamlik darajasi ijtimoiy xizmat ko‘rsatishining mavqei bilan belgilanadi.


Oshxona-taxmon katta bo‘magan kvartiralarda hamda mehmonxona turidagi uylarda qo‘llanadi. O‘zining kichik gabaritlari tufayli u odatda yashash xonasining taxmoni (nishasi) ga joylashtiriladi va idishlarni yuvish uchun rakovina, katta bo‘lmagan ish stoli va elektr yoki gaz plitasi bilan jihozlanadi.

Oshxona-taxmon, odatda, umumiy xonaga yoki dahlizga joylashtiriladi va tabiiy yoritilishga ega bo‘lmaydi. Oshxona taxmonning umumiy xonaga joylashtirilishida albatta elektr plita qo‘llanishi taqozo etiladi. Bunday oshxonaning maydoni jihozlarni faqat ishchi zonaga joylashtirish imkonini beradi. Taxmonning eni 70 sm dan kam bo‘lmasligi, uzunligi esa elementlar to‘plamiga bog‘liq bo‘lib, 1,4 m va undan katta bo‘lishi mumkin. Taxmon suriluvchan (ko‘chiriladigan) pardevor yoki to‘siqlar bilan to‘silishi mumkin, bunday holda oshxona jihozlariga ega bo‘lgan shkaf hosil qilinadi.

Ayniqsa bunday holat qishloq joylarida o‘zining yaqqol tavsifini namoyon etadi. Oshxonalarning bunday qo‘shimcha funksional juda qulay bo‘lib, bu yerda hamma narsa “qo‘l ostida” bo‘ladi idish-tovoq ham, plita ham, stol ham, suv ham va h.k. Bularning hammasi faqat uy bekasi uchun qulaydir, chunki kun davomida ko‘p harakatlanishining oldi olinadi, oshxonadan oshxonaga va aksincha bo‘lgan harakatlar ancha qisqaradi. Loyihaviy nuqtai-nazardan oshxona bilan qo‘shma tarzda joylashtiriladi va ular ochiq fazoviy kenglik orqali o‘zaro birikadi yoki suriladigan pardevorlar bilan ajratiladi.

Bunday oshxona odatda ish stoli, rakovina va gaz plitasi (yoki elektr plita) bilan qo‘chmas holatda jihozlanadi. Oshxona-oshxonaning minimal yuzasi (eng kam maydoni) – 8 m² ni tashkil etadi. Kvartirada xonalarning ko‘payishiga bog‘liq ravishda uning maydoni 10 m² gacha kengayishi mumkin Unday oshxonaning eni jihozlarning joylashishiga bog‘liq bo‘ladi: jihozlarning bir qator joylashishida oshxonaning eni 2,4 m dan kam bo‘lmasligi, burchakli yoki ikki tomonlama joylashishida esa uning eni 2,5 m dan kam bo‘lmasligi lozim.

Maydoni 6 m² dan yuqori bo'lgan oshxonada ovqatlanish uchun doimiy zonani tashkil etish mumkin, odatda bu zonadan boshqa oila a'zolari ham turli yumushlarni bajarishda foydalanishadi.




Oshxona-oshxona uning funksional yuklanganligiga muvofiq ravishda keng tarkibdagi jihozlarga ega bo'ladi. Eni kattaroq (2,1 m dan kam bo'lmagan) bo'lgan oshxonalar va shakli kvadratga yaqin bo'lgan oshxonalarning ikkita qarama-qarshi tomonlari bo'yicha har bir tomonga bir qatordan jihozlarni joylashtirish ancha qulaydir. bunday jihozlar shunday taqsimlanadiki, unda bir devordan qarama-qarshi tomonga ish jarayonida ortiqcha yurishning oldi olingan bo'lishi kerak. Oshxonalarda mehnatni tashkil etishning umumiy sxemasidan kelib chiqqan holda jihozlarni ikki qatorli tizim asosida joylashtirishda ular quyidagicha taqsimlanadi:

birinchi qatorda - ish stoli, yuvish moslamasi (moyka) plita;

ikkinchi qatorda – mahsulotlar va idish-tovoqlarni saqlash uchun shkaf, sovutkich, ikkinchi yuvish moslamasi (moyka)ni joylashtirish mumkin. Bu ikki qatorli tizim ajablanarli darajada ustunliklarga ega. Bu yerda ishlash zonasi qisqa bo'lgani tufayli bir vaqtning o'zida jihozlarning ikkala polosasidan ham foydalanish mumkin. Bunday oshxonani ish zonasi va oshxona zonasiga yengil bo'lish mumkin. Derazaga bemalol (erkin tarzda) yetib borish imkoniyati mavjud. Lekin nonushta stolining deraza yoniga joylashtirilishi oshxona zonasiga ishchi

zona orqali o'tishga xalaqit qiladi. Jihozlar joylashtirilishining ikki qatorli tizimi qo'llanilgan hollarda elementlarni P harfi shaklida joylashtirish orqali bir-biriga tutashtirish mumkin.

Bu tizimlardan har biri ijobiy va salbiy sifatlarga ega. Bu usul ish joyining kompaktiligini kamaytiradi, oshxonadagi fazoviy kenglikni ish zonasi va ovqatlanish zonasi kabi funksional zonalarga puxta qilib ajratib beradi. Sharoitdan kelib chiqqan holda jihozlarning uch qatorli tizimi har xil holatlarni egallashi mumkin: uchala qator ham devorga P shaklida taqalishi mumkin yoki bir qator alohida G shaklida bo'lishi mumkin.



94 rasm. Oshxona jihozini uch qator qilib joylashtirishga doir misol.

Bunday yarim alohidalik nonushta stoli, shkafli seksiyalar yoki unisi ham bunisi ham bir vaqtning o'zida qo'llanilishi mumkin. Ba'zida jihozlarning elementlari shipkacha yetib bormaydigan shkafli pardevorlarning o'rnatilishi ularning ikki tomonidan ham foydalanish imkonini beradi. Bunday pardevorga nonushta stolini ham o'rnatish mumkin.

Ishchi oshxona – bu joy faqat ovqat tayyorlash uchun mo'ljallanadi, shuning uchun u boshqa xonalardan izolyatsiya qilingan holda joylashtiriladi . Oshxona bilan bevosita yagona aloqada bo'ladigan joy bu oshxonadir. Oshxonaning yuzasi 7 m² dan kam bo'lmasligi tavsif etiladi, uning o'lchamlarining nisbati 2,0 x 2,2 m bo'lishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida oshxona universal turdagi yozgi joy (ayvon) bilan bevosita bog'lanishga (aloqaga) ega bo'lishi lozim yoki milliy taomlarni tayyorlashga mo'ljallangan maxsus ochiq joy bilan uzviy bog'langan bo'lishi taqozo etiladi. Shu sababli oshxona yashash xonalari orqali shamollatilishga ega bo'masligi kerak, chunki oshxona bilan bog'lanish lodjiya yoki balkonlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Ishchi oshxona kvartiralaridagi tabiiy yorug'lik bilan ta'minlangan mustaqil izolyatsiyalangan xonalarga joylashtiriladi.

Bunday oshxona asosan ovqat tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan vazifalar va ovqat qabul qilingandan keyin yig'ishtirish-tozalash ishlarining bajarilishiga mo'ljallanadi. Unda turli buyum va narsalar saqlanadigan xo'jalik shkafi, dazmollash uchun moslama, yig'iladigan yoki ko'chmas stol uchun ham joy topiladi. Bunday oshxona 4,5 dan 6 m² gacha bo'lgan maydonga ega bo'ladi, uning minimal eni 1,8 m ni tashkil etadi.

Dahliz

Bu rejaviy element taqsimlovchi kular vazifasini bajaradi, undan yashovchilar kvartiraning hamma xonalariga kiradilar (97-rasm). Shuning uchun uning yashash uyining tuzilmasida egallagan o'rni muhim ahamiyatga ega. Yashash uyida (kvartirada) oshxona, oshxona va kabinet bilan qulay bog'lanishni hisobga olgan holda dahliz joylashtiriladi. Uning 1,4 m bo'lgan minimal eni me'yorlar orqali o'rnatilgan. Dahlizga odatda ustki kiyimlar uchun mo'ljallangan poyafzallar taxlab qo'yiladigan taxtalar o'rnatilgan qo'shma tarzda qurilgan shkaf, tosh oynali tumbochka, telefon stoli stuli bilan o'rin egallaydi. Dahliz kvartiraning qorong'iroq qismiga joylashtirilganda, oynali eshiklar yoki qo'shimcha xonalarning devorning tepa qismiga joylashtirilgan yorug'lik oraliqlari orqali yoritiladi. Bu qo'shimcha yorug'lik oraliqlari ko'rish orqali qabul qilishda fazoviy kenglik kattalashgandek his qilinishi bilan interyerni yanada boyitadi. dahliz kvartirani zonalarga ajratadigan joy sifatida xizmat qiladi, alohida xonalarning mustaqilligini ta'minlaydi va bir vaqtning o'zida bu xonalarni bir-biri bilan bog'laydi. Dahliz ustki kiyimlarni va poyafzallarni, xo'jalik va sport buyumlarini saqlash uchun ham xizmat qiladi.

Bu yerda kvartiradan chiqishdan oldin kiyiniladi, kvartiraga kirgandan keyin esa ustki kiyimlar yechiladi hamda mehmonlar kutib olinadi. Kvartiralarning interyerida u muhim rol o'ynaydi. Interyerning kompozitsiyasi xuddi shu yerdan boshlanadi va uning yechimi estetik baholanadi. Bu asosiy vazifalarga muvofiq ravishda dahlizning jihozlanishi ham taqozo etiladi.

Turar-joy binolari rejaviy elementlarining me'yoriy xujjatlarida dahliz uchun mo'ljallangan jihozlarning ro'yxati berilgan. Bu ro'yxatga kiyimlarni osish moslamasi (kiyim ilgich, veshalka), poyafzallar qutisi, banketka, jurnallar stolchasi, xo'jalik buyumlari va ustki kiyimlar uchun shkaf, turli stellajlar kiradi (98,99-rasm). Kundalik foydalaniladigan kiyim ilgich uchun devorning erkin yuzali tekisligi zarur bo'ladi. Kiyim ilgich uchun maxsus taxmonning ko'zda tutilishi ancha qulaydir. Uning yuqori qismidagi taxta bosh kiyimlar, zontlar va trosteylar uchun mo'ljallangan bo'ladi, pastki qismiga esa poyafzallar taxlanadigan taxtalar o'rnatiladi. Bunday taxmonni parda yoki yig'iluvchi moslama bilan to'sish (yopish) mumkin. Tosh oyna dahliz uchun zarur bo'lgan jihoz bo'lib, u harakatlanish chizig'idan chetroqda joylashgan devor tekisligiga o'rnatiladi, uning oldida eni 30 sm dan kam bo'lmagan bo'lak qoldiriladi. Tosh oynani kiyim ilgichning yaqiniga osish yoki o'rnatish ma'qulroq bo'ladi. Agar tosh oyna burchakka o'rnatilsa, u holda tegishli devor bilan tosh oyna orasidagi masofa 30 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Tosh oyna bilan birgalikda gigienik narsalar uchun mo'ljallangan taxtali moslama o'rnatilishi yoki stolchani joylashtirilishi ko'zda tutiladi. Dahlizga telefon va jurnallar uchun alohida stolcha joylashtiriladi; stul yoki banketka poyafzallarni o'tirgan holatda kiyish uchun va telefonda gaplashish va kutish uchun xizmat qiladi.

Kvartiraning boshqa xonalari singari dahlizda ham asoslangan zonalarining bo'lishi hisobga olingan holda loyihalalanadi. Bundan kelib chiqqan holda uning har bir zonasida qulaylik sharoitni ta'minlovchi dahliz enining minimal o'lchamlari o'rnatilgan. Dahlizning eni hech bo'lmaganda 130sm dan kam bo'lmasligi, mumkin qadar 150 sm dan kam bo'lmasligi talab etiladi.

Dahlizning rejaviy sifatleri eshik oraliqlarining joylashishiga va soniga bog'liq bo'ladi. Dahlizning 1,3 minimal enida kvartiraning dahlizga tashqaridan kiriladigan eshigi bir tabaqali bo'ladi va kvartira ichiga qaratilib ochiladi.

Dahlizning vazifa bajarishi va boshqa imkoniyatlari avvalom bor uning yuzasining o'lchamlariga bog'liqdir, undan keyin dahlizga qarata ochiladigan eshiklar soniga bog'liq bo'ladi. Agar dahliz yetarli bo'lmagan o'lchamlarga ega bo'lsa, u holda uning vazifalarining ma'lum bir qismi boshqa xonalar zimmasiga o'tkaziladi, bu esa yashash xonalaridan to'g'ri foydalanish tartibi (rejimi) ga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Dahlizning funksional jihatdan ortiqcha yuklanganligi unda ko'plab har xil buyumlarning to'planishiga olib keladi, oqibatda pala-partishlik, buyumlar uyumining hosil bo'lishi kvartira interyerini ham buzadi. Bunday holda dahlizga qo'shib qurilgan shkaf uning jihozlanishining eng yaxshi ko'rinishi namoyon qiladi (100-rasm). Kiyimlar va poyafzallar uchun o'rnatilgan shkaf qatorida turli xo'jalik-ro'zg'or buyumlari, anjomlari saqlashga mo'ljallangan shkaf, kitoblar uchun taxtalar ham bo'lishi mumkin.

Bunda dahliz jihozlarning ko'plab elementlardan ozod etiladi, uning sig'imi esa kengayadi. Qo'shib qurilgan shkafl dahliz, alohida turuvchi elementlarga ega bo'lgan dahlizga qaraganda ancha erkinroq, kengroq qabul qilinadi, uning interyeri esa tugallanganlik va bus-butunlikni namoyon qiladi. Bunday ko'rinishda u haqiqatdan ham kvartiraning vestibyuliga aylanishi mumkin va uning kvartiradagi kompozitsion-estitek ahamiyati yanada ortadi.

Kvartiraning fazoviy bog'lanishlari tizimida dahliz ko'pincha umumiy xona bilan birgalikda yechiladi, bunda u umumiy xona bilan yagona butunlikni tashkil etadi. Ikkata fazoviy kenglikning yagonaligiga dahlizni umumiy xonaga keng oynali eshiklar yoki yig'iladigan pardevorlar orqali maksimal ochish bilan erishiladi (101-rasm).bunda odatda tabiiy yorug'likdan mahrum bo'lgan dahlizning katta bo'lmagan fazoviy kengligi lekin uning umumiy xona fazoviy kengligiga qaratilganligi tufayli unga yorug'likning "quyulishi" kvartiraga kirishda kenglik va erkinlik his qilinishini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari bunday kerak bo'lgan paytda (momentda) umumiy xonaga dahlizni birlashtirish (qo'shish) evaziga uning fazoviy kengligini oshirish imkonini beradi. Ba'zida dahliz umumiy xonadan mutlaqo shartli ravishda shipkacha yetib bormaydigan stellajlar yoki bir tomoni shkafl bo'lgan seksiyalar bilan ajratiladi. Bundan vaziyatlar (hollar)da dahlizning badiiy yechimi umumiy xonaning

yechimlari bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi – ular birgalikda kvartiraning bosh kompozitsion markazini tashkil etadi (109-rasm, 208 b.). dahlizni yoritishga sun‘iy va tabiiy yorug‘likning turli tizimlari qo‘llanadi. Dahlizlar bitta yoki ikkita oq plafon bilan yoritiladi, bu plafonlar obilnoe yorug‘lik beradi (tarqatadi). Dahliz ko‘p jihozlari tiqib joylashtiriladigan joy emas, uning bezatilishi mebellar va jihozlari bilan tig‘iz to‘ldirilmagan holda jiddiy va sokin bo‘lmog‘i taqozo etiladi. Biroq bu degani yuqoridan yoritishga mo‘ljallangan chiroyli plafon yoki qandildan interyerining kompozitsion aksenti sifatida foydalanish imkonini inkor etmaydi.

Sanitar gigienik zona

Bu zona vannaxona, yuvinish va tualet xonalaridan tashkil topgan xonalar guruhini o‘z tarkibiga kiritadi. Kvartiraning turiga bog‘liq ravishda sanitariya tugunlari qo‘shma bo‘lishi ya‘ni hamma jihozlari (vanna yoki dushli paddan, yuvinish moslamasi va unitaz) bitta xonada joylashishi va ajratilgan holatda ya‘ni vanna yuvinish moslamasi bilan alohida xonada, unitaz esa xonada joylashgan bo‘ladi. Sanitar tugunning birinchi turi asosan yolg‘iz insonlar, kam tarkibli oilalar uchun mo‘ljallangan bir xonali kvartiralar, mehmonxona nomerlari, hamda katta oilalar uchun mo‘ljallangan kvartiralarda qo‘llaniladi. Qo‘shma sanitar tugunlar ancha kam qulayliklarga ega bo‘ladi, shu tufayli ularning qo‘llanishiga iqtisodiy mulohaza yuritishdan kelib chiqqan holda va faqat kichik gabaritli kvartiralarda yo‘l qo‘yiladi. Kichik gabaritli kvartiralarda bunday noqulaylik aytarli darajada kuchli ta‘sir o‘tkazmaydi. Asosiy jihozlardan tashqari sanitar tugun xonalariga yordamchi jihozlari qatori: kir yuvish mashinasi, kir choyshablar qutisi, kursi, tosh oyna hamda sochiqlar va kiyimlar uchun ilgich (вешалка).

Vanna xonaning o‘lchamlari bu hamma jihozlarning gabaritlari hamda unga bemalol kirish va harakatlanishni ta‘minlaydigan erkin fazoviy kenglik bilan aniqlanadi. Uning eni 1,4 m dan kam bo‘lmasligi lozim. Sanitar-texnik me‘yorlarda vanna xonaga kirish bevosita dahlizdan yoki koridordan kirish tavsiya etiladi, lekin kirish eshigini oshxona-oshxona yoki yashash xonalariga o‘rnatishga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik lozim. Vanna xonaga qo‘yiladigan majburiy talab bu uning so‘rib oluvchi qurilma yoki faol shamollatish uchun yorug‘lik o‘tadigan oraliq bilan

ta'minlanganligi bilan bajariladi. Mumkin qadar uni tabiiy yorug'lik bilan yoritish tavsiya etiladi.

Mablag'ni iqtisod qilish, tejash maqsadida sanitar tugunlarni oshxona yoniga joylashtirish tavsiya qilinadi. Bunday yo'l tutilganda suv uzatish quvurlari, tirsaklar va vertikal kanalizatsiya quvurlarining ancha kam sarflanishi evaziga iqtisod qilishga, tejamkorlikka erishiladi. Biroq, bunday rejaviy sxemaga faqat shunday vaziyatlarda yo'l qo'yiladiki, qachonki oshxona bevosita oshxona bilan bog'lanmagan bo'lsa.

Xojatxonalar. Xojatxonalarni rejalashga va joylashtirishga o'ta qat'iy talablar qo'yiladi. Ularning gabaritlari asosan ularga qo'llanadigan jihozlarga bog'liq bo'ladi. Har qanday holatda ham xojatxonaning bo'yi 1,2 m bo'lganda eni 0,85 m dan kam bo'lmasligi lozim (agar eshik tashqariga ochilganda) va uning bo'yi 1,4 m dan kam bo'lmasligi taqozo etiladi, agar uning eshigi ichkariga ochilsa. Agar xojatxonaning asosiy jihozlari tarkibiga qo'l yuvgich va bide kiritilsa, u holda uning gabaritlari kattalashtirilishi mumkin (104-rasm). Xuddi vanna xonadagi singari, unga kirish dahliz yoki koridor orqali amalga oshiriladi, lekin unga kirish eshiklarini bevosita oshxonaga yoki yashash xonalariga o'rnatish mutlaqo man etiladi. Ko'p xonali kvartiralarda (besh va undan ortiq) sanitar-gigienik me'yorlarda ularga ikkita xojatxona joylashtirish tavsiya etiladi: bittasini dahliz yoniga, ikkinchisini yotoqxona yaqiniga joylashtirish ancha maqsadga muvofiq keladi. Xuddi sanitar tugunlar kabi xojatxonalar ham sun'iy (so'rish ventilatorlari) va tabiiy (yorug'lik oraliqlari) tizimi yordamida yaxshi shamollatilishi talab etiladi. Bu me'yoriy talabning bajarilishi O'zbekiston sharoitlari uchun alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Blis-so'rov savollari

1. Xonadon xonalarining interyer va jihozlari qanday shakllantiriladi?
2. Xonalarning interyerlarida qanday pardozlash materiallari ishlatiladi?
3. Sanitar-gigienik zonasi, oshxona va dahliz interyerida qanday pol qoplamalari samarali ishlatiladi?
4. Uxlash zonasi va bolalar xonalarida qanday ranglar ishlatish tavsiya etiladi?

XONADON INTERYERIDA DEKORATIV AMALIY SAN'AT VA TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI QO'LLASH. KICHIK ARXITEKTURAVIY SHAKLLAR

Badiiy vositalar ichida san'atning dekorativ-amaliy turlari eng kuchli ta'sir ko'rsatishga qodirdir. Fazoviy bo'shliqning emotsional to'ldirilganligiga erishish uchun tasviriylar vositalarning qo'llanilishi zarur bo'ladi. Monumental rang tasvirdan panno, tasvirlar sifatida foydalanishda takt, me'yorni ushlab qolishga rioya qilish, alohida asarlarning eng yaxshi joylashish variantlarini tanlash talab etiladi.

Interyerning bezatilishida arxitektura, rang tasvir, haykaltaroshlik grafikaning o'zaro aloqadorligi uyg'unlashuvning qonuniyatlariga asoslanadi, interyerning bezatilishi esa uning nimaga mo'ljallanganligiga bog'liq bo'ladi.

Masalan, muzeylar, ko'rgazmalar, ekspozitsiyalar uchun mo'ljallangan xonalar, joylar uchun eksponatlarni namoyish etish, ko'rsatish uchun eng yaxshi sharoitlarning ta'minlanishi talab etiladi. Bunga nafaqat obzor uchun yetarli bo'lgan sharoitlar bilan, balki plastikli va rangli yechimlar bilan ham erishish talab etiladi.

O'ylangan mavzuni ochish, yoritish uchun fazoviylikni aks ettiradigan san'at turlari keng jalb qilinadi. Fazoviy muhitga dekorativ-amaliy san'at turlarini kiritishda uning yuqori badiiy mutanosibligining inobatga olinishi taqazo etiladi, bunda u xonaning bajaradigan vazifasiga, interyerning rangli yechimiga, uning jihozlariga, mebeliga, yoritilganligiga muvofiq tarzda tanlab olinadi.

Ichki fazoviy kengliklarni tashkil etishda monumental asarlardan keng foydalaniladi. Ular kompleksga panno, haykallar, fazoviy kompozitsiyalar sifatida kiritiladi.

Panno uchun mazoika, qirgama, relief bajarilishining samarador usullari tanlanadi. Yanada yangi materiallarning, bir vaqtning o'zida eski materiallarning qo'llanilishi, qayta ishlash usullarining kengaytirilishi interyerlarni loyihalashning uslublarini takomillashtirish uchun cheksiz imkoniyatlarni ifoda etadi. Metallni qayta ishlash variatsiyalari – kovsharlash, quyish, egish, payvandlash, toblash, kesish, yopishtirish silliqlash, donador shakllantirish,

qoraytirish, kuydirish, laklash, bo'yash – materialning hamma bunday qayta ishlanishi turli kompozitsiyalar, panno, pardevorlar, bezaklar, chiroqlar, deraza panjaralarini, eshiklar yaratish maqsadida amalga oshiriladi.

Baribir qadimgi kulolchilik eng ommabop bo'lib qolaveradi. Bu – dekorativ taqsimchalar, panno, hajmli haykallar va releflarning hamda vazalar, idish-tovoqlar, gul tuvaklar, kashno, unsurlarning dekorativ bezak sifatida interyer fazoviy kengligiga qo'yilishidir. Zamonaviy interyerlarda yog'ochdan ishlangan buyumlar keng qo'llanilmoqda – bunday buyumlarga pardevorlar, devorlar, panno, mebel, plafonlar kiradi. Yog'ochning qayta ishlanish imkoniyatlari turlichadir: kuydirish, o'yish, silliqlash, turlash, loklash, turli lak-bo'yoqli tarkiblar bilan bo'yash. Interyerdagi alohida shinamlikni mato yaratadi. Uni gobelenlar, pardalar, to'siqlar, gilamli yo'lakchalar, mebel qoplamalari ko'rinishida interyerga kiritish mumkin. Kanopli mato nafaqat dekorativ funksiyani bajaradi, balki u derazalarga yengil taramli holatda osilganligi bilan jazirama quyosh nurlaridan ham himoya qiladi, ancha zichroq holatda bo'lsa



Devorga osiladigan gobelen.

sezilarli darajada shovqinni ham yutadi, juda ham zich holatda to'qilgan kanop xonaga sovuq havoning oqib kirishiga to'sqinlik qiladi. Silliq matolar ancha keng tarqalgan bo'lsada, lekin ular kamroq ko'rkamlik bag'ishlaydi, ular o'ziga xos strukturaga ega – faktura va rangi bo'yicha chiroylidir. Junli, ipakli, paxtadan tayyorlangan tarkibidagi matolar ma'muriy komplekslarda

almashtirib bo'lmaydigan darajada o'z o'rniga ega. To'qilgan tasviriy matolar bilan bolalar muassasalarini, mehmonxonalar, xollarni bezatishda foydalaniladi.

Keng oynali oraliqlarni yopish uchun va umuman butunlay bir tomonni qoplaydigan pardalar keng qo'llanilmoqda. Tomosha zolini bezaydigan sahnadagi parda markaziy rolni bajaradi. Alohida tasviriy asarlar interyerli muhitda yanada keng qo'llanilmoqda. Ularning tabaqalarini tanlashda fazoviy muhit bilan mos o'lchamlarini e'tiborga olish juda zarurdir. Yashash muhitida – mehmonxonalar, kvartiralar, yotoqxonalar, dam olish uylarida – estamplar, litografiyalar, ofortlar hamda orinal akvarelli rasmlarning qo'llanilishi juda o'rinnidir. Yashash burchagiga terak shoxidan, ildizlardan, guldastalardan yasalgan ishlanmalar betakror husn bag'ishlaydi.

Interyerni dekorativ bezatishda tabiatdagi jonli shakllardan ham foydalaniladi. O'simliklar estetik roldan tashqari havoni kislorod bilan to'ldirish orqali sog'lomlashtirish maqsadida katta ahamiyat kasb etadi. Arxitekturaviy interyerda ular landshaftli reja fragmenti, akvariumlar, jonli burchaklar, gullar bilan to'ldirilgan yuzalar sifatida namoyon bo'ladi. Arxitekturaviy interyerni bezatishda o'simliklar va jonli mavjudotlarning nafaqat tashqi ko'rinishiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi, balki ularning haroratga, namlikka va yorug'likka bo'lgan ehtiyojlarini ham hisobga olish ham juda zarurdir.

Yashil muhitni shakllantirishning eng keng tarqalgan usuli bu alohida o'simliklarni vazalarga, tuvaklarga, kashnolarga, stol ustiga, pol yuzasiga, devorlar bo'ylab, maxsus idishlarga joylashtirish bilan amalga oshiriladi. Alohida "orolchalar"ni tashkil etishda kompozitsiyaga daraxtlar, butalar, toshlar, favvorali suv havzalari, akvariumlar, terrariumlar, sayroqi va dekorativ qushlar joylashtirilgan qafaslar kiritiladi. Zamonaviy arxitekturaning tabiat bilan sintez qilinishi qishki bog'larning bino ichiga rostlanuvchan mikroiklim bilan kiritilishi bilan yorqin ifodalanadi. Shu bilan bir qatorda ulkan yashil bog'larning bir necha qavatlar bo'ylab qo'llanishi ham ko'p uchraydi. Ular atriumli fazoviy bo'shliqlar nomi bilan asta-sekin keng tarqalmoqda.

Ko'prik, daraxtlarga ega bo'lgan suv havzasi bilan badiiy bezatilgan ochiq hovli haykal, gazonlar va gulzorlar bilan uyg'unlashib, insonni tashqi olam bilan bog'lanishini samarali ta'minlaydi.

Ochiq hovlida zarxal satxda joylashgan tosh yotqizilgan yo‘lakchalar, favvoralar, qum yoki mayda toshchalar sepilgan maydonchalar, murakkab konfiguratsiyaga ega bo‘lgan suv havzalari ochiq hovlini bezatish elementlari bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘z bilan ko‘rish orqali qabul qilishga tarnovlar orqali oqayotgan suv shovqini, gullarning bir-birlariga tegib ovoz chiqarishi quloqqa mayin eshitiladi. Qishki bog‘ni yaltiroq pardevorlar bilan to‘silishi kontrastlikni hosil qiladi.

Interyerni tashkil etishda qo‘llaniladigan qator elementlar qat’iy funksional mo‘ljallanganlikka egadir. Ularni tanlashda loyihachi ulardagi o‘ziga xos talablarni hisobga olmog‘i lozim, o‘ziga xos talablar ichida elementlarning qulay qaratilganligi kam bo‘lmagan muhit bilan organik bog‘liqlikda o‘ziga xos yagonalikni hosil qiladi Interyerni kichik arxitekturaviy shakllar bilan bezatishda hamma narsalar uchun eng ma’qul bo‘lgan konstruktorlik varianti va pardoqlash materiali aniqlanadi. O‘rindiqlar, sufachalar, gul tuvaklar va boshqa idishlar shakli bo‘yicha go‘zal va ko‘rkam qilib tayyorlanadi, lekin bunda ansamblga mos tushishiga katta e’tibor qaratiladi.

Arxitekturaviy muhitda dizaynning mavjud bo‘lishi interyerning loyihalashning ajralmas qismi deb hisobga olinadi. Arxitektura va dizayn orasidagi o‘zaro bog‘lanish interyerda yagona yo‘lli ansamblni yaratish bilan unda jihozlarni joylashtirish yorqin ifoda etiladi.

Interyerni tashkil etishda jihozlarning tashqi bezatish bezagini tanlash lozim bo‘ladi. Bunda berilgan muhit uchun qanday shakllar, rang, faktura, gabaritlar mos tushishi xaqida o‘ylashni taqazo etiladi.

Mebel har qanday interyer uchun muhim va zarur bo‘lgan komponent hisoblanadi. Mebel inson tomonidan turli harakatlarning bajarilishi uchun maksimum qulaylikni yaratgan holda fazoviy kenglikni tashkil etishda faol ishtirok etadi. Mebelning shakllari va konstruksiyalari odamning o‘lchamlari va uning qismlarinining proporsiyalari bilan bog‘langandir.

Foydalanish nuqtai-nazardan mebellar turar-joy, ma’muriy, ishlab chiqarish va transport soxasiga tegishli bo‘lgan binolar uchun mo‘ljallangan

bo'ladi. Mebell o'tirish, yotish uchun mo'ljallanadi hamda mebel, qo'ygich- stol, mebel saqlagich va kombinatsiyalashgan mebellar-divan-krovat, sekreter va h.k. ham bo'ladi. Mebellarni joylashtirishda uning ratsionalliligiga erishish zarur bo'ladi, hamda badiiy-estetik ko'rinishga ham e'tibor ajratishni taqazo etildi. Oshxona va mebellarini noto'g'ri joylashtirish oshxonada odamning kun mobaynida bir necha kilometr ortiqcha harakat qilishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda har bir interyerda predmetli muhitning rangli va dizaynli yechimining bir-biriga mos tushishiga ham erishish ancha muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu yagonalik yoki mos tushuvchanlik xonaning estetik sifatlarini uning nimaga mo'ljallanganligina hisobga olgan holda aniqlab beradi.

Narsa va buyumlarni saqlashga mo'ljallangan sig'implarning gabaritlari inson tomonidan kundalik yoki davriy ravishda foydalaniladigan predmetlarning o'lchamlariga bo'ysinadi.yetib borishga eng qulay bo'lgan o'rta zona doimo e'tiborni ostida bo'ladigan kitoblar, asboblarni uchun ajratiladi, pastki qism kamdan-kam talab qilinadigan kattaroq va og'ir bo'lgan jismlar va predmetlar uchun mo'ljallanadi. Yuqori yarus ma'lum bir mavsumda ishlatiladigan predmetlar uchun mo'ljallanadi, lekin ularning o'lchamlari katta bo'ladi. Chang'ilar, chanalar, turistik epikirovka, dachaga xos bo'lgan anjomlar va buyumlar uchun.

Mebelning interyerga organik tarzda kirib borishi va fazoviy muhitda badiiy mutanosibligi bilan ajralib turmog'i lozim bo'ladi, lekin mebellarning qo'yilishi bilan hech qachon interyerni narsa-buyumlar to'plamiga aylantirmaslikka yo'l qo'ymaslik kerak. Vertikal o'rnatilgan mebel yashash fazoviy muhitni maksimal erkinlashtiradi.


Mebelni rangiga ko'ra, devor chizig'i bo'yicha ma'lum bir kompozitsiya hosil qiladigan va xona hajmiga mos tushadigan mebelni tanlash muhim rol o'ynaydi. Hozirda transformatsiyalanadigan, yig'iladigan, puflab shishiradigan mebel turlari keng tarqalmoqda.

“Tashqi” interyerning tashkil etilishi ko'rish kommunikatsiyalari bilan bog'langan. Bunga yorug'lik-grafik vositalari, ko'rsatkichlar, shartli belgilar va

belgilashlar va shu kabilar kiradi. Elektron ko'rsatgich yordamida vaqtni o'lchash asboblari, atmosfera, mikroiklim ko'rsatkichlari, "yuguruvchi misra" va katta formatli teleekranlar o'rnatiladi. Bunda ranglar yorug'lik umuman tirik organizmlarning qurshoviga muhim estetik ta'sir o'tkazish omili sifatida namoyon bo'ladi.

Arxitektura jumladan interyerda san'atlarning sintez qilinishi asarlarning shunchaki "bitta tom ostiga" jamlanishini bildirmaydi, bu shunday yagonalikni yaratish demakki, unda bu san'atlar bir-birining ichiga kirib ketadi, ya'ni arxitektura haykaltaroshlik va tasviriy san'atga, haykaltaroshlik va tasviriy san'at arxitekturaga aylangandek bo'ladi. Bu yagonalikda arxitektura yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi; haykaltaroshlik va rangtasvir o'zining xususiyatni yo'qotmagan holda arxitekturaviy-kompozitsion elementlar sifatida namoyon bo'ladi. Sintez qilinayotgan ijodiy faoliyat xususiyatlik jihatlar va qonuniyatlarga ega bo'ladi, ularning qo'llanishi haqqoniy san'at ansamblining yaratilishiga shart-sharoit hozirlaydi. Interyerda san'at turlarining sintez qilinishi arxitektura, haykaltaroshlik va rangtasvir ma'lum arxitekturaviy muhitda

Bunday organik uyg'unlikning yaratilishi har bir tasviriy san'at turiga alohida mansub bo'lgan xususiy sifatlarning saqlanishi va qator umumiy xossalarning qo'shiluvchanligiga asoslanadi.





Toshkentdagi Bilimlar o'ylidagi mozaikali panno (rassomlar: L.Polishuk, S.Sherbinina): A- foyedagi panno, B- vestibyuldagi panno.

Umumiy xossa ta'sir o'tkazishning yagona muhitini xarakterlaydi. Uchala san'at turining fazoviyligi ular uchun umumiy bo'lgan sifatlardan biri deb hisoblanadi. Arxitektura tasviriy san'at asarlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan birlamchi konkret fazoviy muhitni tashkil etadigan va yaratadigan san'at sifatida o'zaro ta'sirlashuv prinsipini o'rnatishda aniqlovchi bo'lib namoyon bo'ladi. Tasviriy san'at fazoviy muhit shakllarining va to'suvchi konstruksiyalar- ning arxitekturaviy komponentlarini go'zalligini kuchaytirish uchun jalb qilinadi, ular orqali esa arxitekturaviy fazoviy muhitga kirib boradi.

Arxitektura, haykaltaroshlik va tasviriy san'atning umumiy xususiyati san'atlarning sintezini qillinishiga imkoniyat yaratib beradi. Arxitekturaviy shaklda bu hajm va tekislik, haykaltaroshlik shaklda esa tekislikdagi hajm relefli tasviridir. Rangtasvir tekislikda bajariladi va tasvirlash vositasi orqali fazoviy bo'shliq, hajmni va tekislikni ifoda etishi mumkin. Tasviriy san'at turlarining arxitekturaviy shakl bilan ta'sirlashuvi arxitekturaga bo'ysinadi.

Xususi asarlarning kompozitsiyasida ularning ishtirok etilishida avvalom bor arxitekturaviy fazoviy muhitning fizik kattaliklarini, hajmi va tekisligining,

ulardagi materiallarning fakturasi va rangining hamda tektonikasining hisobga olinishi juda zarurdir.

Badiiy shaklning plastik va rang sifatida “texnik vositalar sifatida ishlatilishi uchala san’at turiga ham barobar yaqindir.”

Sintezning umumiy maqsadi arxitekturaviy ob’jekt g’oyasining tugallangan emotsional-obrazli tasvirini yagona fikr bilan ifodalashdan iboratdir. Jahonga shuhrat qozongan noyob bilgan Parfenon releflari, Mikelandjelo, Rafael, Tintoretto va boshqa ko’plab monumental sanoat asarlari tashkil etadi.

Arxitekturaviy shakl bilan bo’lgan bog’lanish skulpturaga yoki jivopisga “monumental” va “dekorativ” san’at sifatidagi sifatlarni beradi. “Dekorativlik” atamasi estetik ma’noda badiiy shaklning sifatini aniqlab beradi va insonning go’zallikka bo’lgan ehtiyojini ifoda etadi.

Zamirida san’atlarning bir-butun qatori yotgan dekorativ san’at buyumlarini ishlab chiqarish va ularni turlicha bezatish bilan xalq ijodiga kirib boradi. Dekorativ san’at estetik jihatdan moddiy madaniyatga mansub bo’lib, undan interyerni bezatishda – dekorativ rangtasvir va plastika, badiiy shisha, keramika, quyma, o’ymakorlik, mosgarlik, matolardan foydalaniladi.

Sintezda monumental va dekorativ san’atning bosh masalasi bu arxitekturaviy shaklning ta’sir o’tkazishini kuchaytirishdan iboratdir.

Bu ko’plab elementlar – geometrik, o’simliklar yoki jonli organizmlarning tartiblangan predmetli tasvirlangan turli ko’rinishdagi ornamental kompozitsiyalaridir.

Monumental asar tasvirning mazmunan va syujetli aniqlanganligi bilan badiiy obrazning konkretligida g’oyalarning konsentratsiyalashuvi orqali o’zining ko’rkamligi va go’zalligini ifoda etgan xolda namoyon bo’ladi. Qoidaga ko’ra, shakliga ko’ra va mazmuni bo’yicha maqsadga muvofiq bo’lgan bu asar – o’zining turli-tuman ko’rinishlarida qo’llaniladigan kartina yoki haykaltaroshlik asarlaridir. O’zining to’g’ridan-to’g’ri yoki allegorik vositalari bilan ular g’oya mazmunini ochib berishda faol ishtirok etadi.

San’at turlarining sintezidan foydalangan holda bus-butun arxitekturaviy – badiiy obrazni yaratishda bu san’at turlarining g’oyaviy-mazmunan yaqinligi

ularning bir qancha usullari yordamida arxitekturaviy-kompozitsion tarkibga organik tarzda qo‘shilib ketishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shakllarning fazoviy o‘qlarini o‘rnatish usuli. Bu o‘qlar yo‘nalishida monumental asarlarni joylashtirish mumkin. Xaykaltaroshlik asarlari yoki kartinalar kulminatsiyali ahamiyat kasb etib, ularning mazmuni tasvirning obrazli mohiyati orqali ochib beriladi. Arxitekturaviy shakl ushbu vaziyatda qabul qilinish effektini tayyorlab beradi.

Ichki fazoviy kenglikda mazmuniy orientatsiyani belgilash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ***hajm yoki tekislikni ajratish usuli.*** Syujetli yoki dekorativ-ornamentli monumental kompozitsiyaning tarkibiy mazmuni aksentli shaklning ahamiyatini tushuntirishga shart-sharoit yaratib beradi.

Fazoviy shakl yoki bevosita to‘siq konstruksiyalar massasining tektonik tarkibidan foydalanish usullari san‘at asarlarining qo‘yilish joyini, uning parametrlari va materialini aniqlab beradi. Bu usullardan biri –ochiq fazoviy kenglikda oynali to‘siqlar ortida xaykaltaroshlik asarlarining joylashishini aniqlashdan iboratdir. Bunda ichki fazoviy muhitning tashqi tomon bilan, kadrning kartinaviyligining yorug‘lik effektlari va chegaralovchi to‘siqlarning yengilligi bilan rivojlantiriladi va h.k.

Interyer fazoviy muhitini yon tomonlarga va yuqoriga illyuzorli kengaytirish usuli. Bunga shift og‘irligini olib tashlash yengillatish effektini ham kiritish mumkin. Fazoviy muhitni illyuzorli kengaytirishning usulining uchta varianti mavjud bo‘lib, ular “ramadagi kartina” (klassitsizm usuli), “kartinali tekislik” (renessans) va “devordagi ochiq oraliq” deb shartli ravishda nomlanadi. ***Ichki fazoviy bo‘shliqni qismlarga ajratish usuli.*** Bu vaziyatda faoliyat yoki harakatlanishning ma’lum zonalarini ajratish uchun hajmiy- haykaltaroshlik asarlardan foydalaniladi.

Blis-so‘rov savollari

1. Xonadon interyerida dekorativ amaliy san‘at asarlari qanday qo‘llaniladi?
2. Interyerda monumental dekorativ san‘atning elementlari qanday rolni bajaradi?
3. Interyerda tekstil va keramikadan yasalgan amaliy san‘at asarlarini loyihalash qanday amalga oshiriladi?
4. Kichik arxitekturaviy shakllarga nimalar kiradi?

INTERYER VA JIHOZLASHNING LOYIHAVIY ASOSLARI. LOYIHALASHDAGI NORMATIV TALAB VA TUSHUNCHALAR

Binolar ichki shakli va vazifasini loyihalash ustida olib boriladigan amaliy ish ularni shakllantirish qonuniyatlarini chuqur bilishni va qo'yilgan masalalarni yechishga tizimli yondashishni talab etadi. Bunda asosiy omillar va binolarning interyer va jihozlarni vazifasiga va shakllantirishga ko'rsatadigan ta'sirlarining uyg'un tavsifi hamda ularni loyihalashda kompleksli yondashish uslublari katta ahamiyatga ega.

Interyer va jihozlashning vazifasi va kompozitsiyasi. Vazifa va kompozitsiya interyer va jihozlashni shakllantirishda aniqlovchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Interyerning yaratilishi ichki fazoviy kenglikni shakllantirishdan, uning o'lchamlarini, shaklini aniqlashdan boshlanadi. Unga bajariladigan jarayon va keraklik bo'lgan jihozlar, kommunikatsiyalar va texnologik talablar loyihalanayotgan xonalar joylarning mo'ljallanishi ichki muhitni, uning interyerini tashkil etishning aniqlovchi ustivor omillari deb hisoblanadi.

Ichki fazoviy kenglik o'zining vazifalariga muvofiq ravishda funksional zonalarga bo'linadi, ular ham keyinchalik maqsadga muvofiq tarzda ketma-ket guruhlantiriladi va shu asosda interyer tashkil etilishining asosiy maqsadi tanlanadi. Bunda yechimlarning variantlari bo'lishi mumkin. Bu variantlarni tahlil etish orqali ular ichidan jarayon va vaqtni iqtisod qiladigan eng ratsional variantlar ajratib olinadi.

Funksional belgilar bo'yicha tanlanadigan vazifalar variantlari faqat xonalar, joylar interyerlarini shakllantirish jarayonida boshlang'ich bosqich deb hisoblanadi, ammo ichki fazoviy kenglik nafaqat vazifalarning ratsional talablariga javob bermog'i lozim, balki interyerning kompozitsion qurilishi bilan uyg'unlikda ham javob bermog'i taqozo etiladi, chunki kompozitsiya ichki kenglikni qurishning tamoyili sifatida interyerda shakl hosil qilishning aniqlovchi psixofiziologik omili deb hisoblanadi.

Kompozitsiya vazifasi, interyer va jihozlarni shakllantiruvchi binoning strukturasi, konstruksiyasi va badiiy g'oyasi bilan uzviy bog'langandir. Interьер va jihozlashlar sifatidagi shakl hosil qilinishning qonuniyatlari kompozitsiyaning nazariy mazmunini tashkil etadi. Uning masalasi uyg'un, badiiy go'zallikka ega bo'lgan muhitni shu bilan birgalikda inson xayoti kechadigan interyerlarni yaratish bilan shart-sharoitlanadi. Shuning uchun ichki fazoviy kenglikni shakllantirishda nafaqat funksional va konstruktiv talablarni hisobga olish balki interyerni insonga jo'shqin estetik ta'sir ko'rsatishini ham e'tiborga olmoq ham talab etiladi. Ichki fazoviy kenglik insonda erkinlik yoki tig'izlik, yengillik yoki og'irlik, xotirjamlik yoki kuchlanganlik, quvonch yoki qayg'ulikning hosil qilishi lozim, ya'ni bajariladigan jarayonga optimal estetik holat yaratish kerak.

Interьер va jihozlash obrazi kompozitsiya tarkibiga kiruvchi badiiy vositalar yordamida yaratiladi. Bunday vositalarga: tektonika va proporsiya, simmetriya va assimmetriya, nyuanslik va kontrastlik, ritmlik va qismlar hamda butunlik orasidagi aloqadorliklar va uygunlik kiradi. Interyerni jihozlarni loyihalashdagi badiiy vositalar ularning shakil va tekisliklar yuzasini qayta ishlash usullarini, materiallari, rangi, fakturasi orqali to'ldiriladi. Badiiy vositalardan hech biri mustaqil bahoga ega bo'lmaydi va o'z-o'zidan mavjud bo'la olmaydi. Badiiy vosita faqat kompozitsiya uyg'unlik tizimidagina ahamiyat kasb etishi mumkin.

Interьерning fazoviy yechimini yaxlitligini aniqlaydigan omillarning murakkabligi va har xil jihatligi muallifning shularni ketma-ket uyg'unpikga intilib to'g'irlab borish orqali olib borishi talab etadi. Funksional va estetik muvofiqlikga yetishish uchun bir necha bosqichli kurs loyihalarini bajarish jarayoni tavsiya etiladi.

KURS LOYIHALARINI BAJARISH BO‘YICHA AMALIY TAVSIYALAR

Loyihalash bosqichlarining ahamiyati, mohiyati binolarni interyer va jihozlarini ishlab chiqishda qo‘llaniladigan uslublar va foydalaniladigan amaliy tavsiyalar to‘g‘ri yechimni aniqlash va bosqichma-bosqich bajarishni o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich holatlar. Bino xonalarining ichki fazoviy kengliklarini tashkil etishning bosh masalasi – bu binolarning vazifasiga muvofiq ravishda amalga oshiriladigan funksional-texnologik jarayonlar uchun maksimal qulaylik, optimal va yaxshi sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Bunga xonalar rejasining tuzilmasini to‘g‘ri tuzish, o‘lchamlarini aniqlash, jihozlar uchun ajratilgan funksional zonalar va harakatlanish yo‘nalishlarni hisobga olgan holda jihozlarni joylashtirish hamda guruhlashtirish orqali erishiladi. Bino va uning alohida xonalari interyerining badiiy jihatlarini binoning qanday vazifa bajarishga mo‘ljallanganligiga, funksional-texnologik jarayonlar, binoda istiqomat qiluvchilar va faoliyat yurituvchilarning antropometrik imkoniyatlari (1-rasm), ijtimoiy-madaniy mavqei, jihozlarning qabul qilinadigan parametrlariga bog‘liq bo‘ladi. Binolarining interyeri uchun rivojlanishning umumiy tendensiyasi tavsifli bo‘lib, bu an‘ana nafaqat qulay muhit yaratishga bo‘lgan intilish sifatida, balki keng, yorug‘ va erkin, odamlar harakatlanishini cheklab qo‘ymaydigan, interyerni tashqi muhitdan chegaralamaydigan, ekstererdagi atrofdagi tabiiy yorug‘lik, fazoga, quyoshga, havoga va yashil kenglikka ochiq holatda qaratilishi bilan ham aniqlanadi.

Aynan shundan katta yoki kichik bo‘lishidan qat‘iy nazar xonalarining fazoviy tuzilmasi va ichki xonalarining fazoviy-hajmiy nisbatlariga qo‘yiladigan bir nechta umumiy talablar kelib chiqadi. Xonalar interyeri va jihozlari ularning qismlari va elementlarining vazifasi va o‘lchamlariga muvofiq tarzda to‘g‘ri taxsim qilinishi interyer kompozitsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi, xonalar quyidagi to‘rta asosiy guruhga bo‘linadi:

1. Bosh xonalar – binoning asosiy vazifalarini bajarishga mo‘ljallangan xonalar. Misol: turar-joy uylaridagi bosh xonalar – bu mexmonxona, yotoqxonalari; tomosha inshootlarida esa tomosha zallari hisoblanadi;

2. Yordamchi xonalar – binoning turli yordamchi vazifalarini bajarishga mo‘ljallangan. Misol: turar-joy binolarida bu dahliz, oshxona, sanitar tugun; jamoat binolarida bu vestibul (tashrif buyurish zali), garderoblar, bufetlar va sh.o‘.

3. Kommunikatsiya xonalari - odamlarning harakatlanishi, vaqtincha buyumlar, yuklar va h.k. larni saqlashga mo‘ljallangan bog‘lanish xonalari va joylarini o‘z ichiga oladi. Bog‘lanish xonalari va vositalariga dahliz, koridorlar, gallereyalar, foyelar, tamburlar, har qanday o‘tish yo‘lakchalari, zinapoyalar, liftlar, eskalatorlar panduslar kiradi.

4. Texnik xonalar – ventilyatsion kamera, elektroshit xonasi, boyler (suv isitish) xonasi, suv taxsimlash (vodommer) xonasi va b.

Ko‘p xollarda xonalar interyer va jihozlarning kompozitsion usullari o‘ziga xos tavsifga ega bo‘ladi va yuqorida ta’kidlanganidek xonalarning bajaradigan vazifalariga bog‘liq bo‘ladi. U yoki bu turdagi binolarning qanday jarayon o‘tashga mo‘ljallanganligi ulardagi bosh xonalar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Binoni loyihalashda interyerlar va jihozlashni ishlab chiqishda aynan shu xonalar tanlanadi, chunki ularda binoning qanday jarayon o‘tashga mo‘ljallanganligini tavsiflaydigan asosiy vazifa va kompozitsion yechim yaqqol namoyon bo‘ladi.

Interyer tashqi muhitdan chegaralovchi - devorlar, shiftlar, pol xamda tashqi muhit bilan bog‘lovchi – deraza, eshik va boshqalar, shu jumladan zarur bo‘lgan ichki fazoviy va funksional yechimni yaratuvchi jihozlar va kommunikatsiyalar ham interyerning tashkil etilishida faol ishtirok etadi. Binolar interyerida jihozlar (mebel, elektr yoritish, sanitar-texnik, akustik, maxsus, bezovchi dekorativ buyum, matolar va shu kabi vositalar) orqali kerak bo‘lgan suniy muhit yaratiladi. Ularda texnologik jarayonlarni to‘g‘ri rejalash, taxsimlash va kompozitsion yechimlarini oraliqlarining shakllari va ularning bezaklari, pardozi orqali odamlar va bajariladigan jarayon uchun optimal sharoit yaratiladi.

Interyer va jihozlashni loyihalash. Zamonaviy tendensiyalar va milliy an'analarni, funksional qulaylik va estetik shinamlilikni hisobga olgan holda xonalarni fazoviy tashkil etishning real tuzilmasini haqqoniy aks ettiradigan loyihaviy hujjatlarni tuzish interyer va jihozlashni loyihalashda bosh masala deb hisoblanadi.

Loyihada tarkibi devorlar ichki sirtining rangli koloristikasi, ularning dekorativ tashkil etilganligi, ichki fazoviy kengliklarda funksional jarayonlarning kechishini va ularda asosiy o'tish yo'laklarini hisobga olgan holda jihozlarni joylashtirish tuzilmasini belgilangan tarx, tarz va fazoviy ko'rinishdagi qirqimlarida to'liq aks ettirmog'i lozim.

Tarxlar. Binoning belgilangan satxdagi gorizontal qirqimlari. Loyihalashning "interyer" birinchi kurs ishi qismiga quyidagilar kiradi: binoning holatiy (situatsion) tarxi, binoning bosh tarxi (yoki fragmenti), jihozlarni joylashishi ko'rsatilgan xonaning tarxi (157, 158-rasmlar), shift tarxi ham ko'rsatiladi. Shu bilan birgalikda loyihaaning "jihozlash" ikkinchi kurs ishi qismiga quyidagilar kiradi: xonaning jihozlanishning asosiy ishchi zonalarini tarxiy ko'rinishi, ishchi zonadagi jihozlarni funksional bog'likligini tarxlari, fragmenti, detali va b.

Qirqimlar. Binoning belgilangan yo'nalishdagi vertikal qirqimlari. Bular interyer va jihozlash loyihasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Arxitekturaviy ob'yektdagi xonalarning ichki fazoviy joylashishi, ularning o'zaro bog'lanishi va o'lchamlarini hamda ichki arxitekturasini tasvirlab ko'rsatish uchun funksional va konstruktiv tomonlarning vertikal qirqimlari bajariladi. Rejalar bilan birgalikda bunday qirqimlar xonalarning ichki fazoviy kengligi, ularning balandligi, devor konstruksiyasi va qavatlararo yopilmalar, zinapoya kletkalarining vertikal joylashishi, tavsifli bo'lgan deraza va eshiklar, ustma-ust tushadigan xonalarning joylashuvi, qavatlarining bir-biri bilan o'zaro bog'lanishi, xonalarning gorizontal bo'yicha joylashishi to'g'risidagi tasavvurlarni beradi.

Qirqimlarni bajarishda ularning tarxiy qirqim rejasida joylashgan o'rni va qirqim chiziqlarining joylashishini strelka va harflar bilan belgilab, tarz qirqimi

qaysi tomonga yo‘naltirilganligini ko‘rsatish taqozo etiladi; qirqimlarning harflar orqali belgilanishi ham qirqimlar chizmasiga kiritiladi. Kurs ishi loyihalarida qirqimlarning ahamiyati ichki xonalar kompozitsion tomonlarining aks ettirilishi bilan namoyon qilinadi.

Tarz qirqimlari devorlarni yoyish asosan ikkta uslubida bajariladi:

1) chizmaning o‘rtasida pol yoki shift tarx qirqimi rejasi joylashtiriladi, pol yoki shiftning tegishli tomonlaridagi devorlarning yoyma proeksiyasi orqali tasvirlab ko‘rsatiladi (rasm);

2) xonalardagi barcha devorlar ko‘rsatilgan tarz qirqimlarining proeksiyalari gorizontal bo‘yicha yoyilgan ketma-ketlikda ko‘rsatiladi (rasm).

Devorlar ko‘rsatilgan tarz qirqimlarining yoyilmasida derazalar, eshiklar xamda oraliqdagi devor tekisliklari yuzasining rangli bezatilishi, hamda devorlarga o‘rnatilgan yoki taqalib turgan jihozlar, buyumlar va dekorativ bezaklar (kartinalar, portretlar, osma chiroqlar, estamlar, taxmonlar va h.k.) ko‘rsatiladi.

Qirqimlar barchasi birgalikda qo‘rsatish bitta masshtabda hamda bir xil arxitekturaviy grafikada bajarish tavsiya qilinadi.

Perspektiva. Ob‘yektning fazoviy holatdagi vizual ko‘rinishili chizmalar yochimi. Bino xonalarining interyerlarini hajmiy qabul qilish uchun uning perspektivali proeksiya chizmasi (yoki chizmalari) bajariladi. Bunday proeksiyalar yordamida interyerni chizmada bevosita haqiqiy ko‘rinishiga yaqin tasvirlash mumkin. Perspektiva xona shakllarining uch o‘lchamligi, xonalarning o‘zaro joylashuvi va ular ichki kengligining “chuqurligi”ni (ichkariga kirish o‘lchami –xonalarning xajmiy yechimini) aniqlab beradi.

Perspektivada xonalarning interyerlarini tasvirlashda yuzaga keladigan asosiy vazifalar:

1. Perspektivada interyerning qurilishi ichki fazoviy kenglikni chegaralaydigan (devorlar, pol, shift) yuzalarni ko‘rsatish talab etadi, bu yuzalar kuzatuvchining (tomoshabinning) yon devorlarga nisbatan joylashish o‘rni va vizual gorizontning balandligiga bog‘liqdir.

2. Xonalarning yon devorlar nisbatan va gorizontga nisbatan balandlik nuqtai nazaridan simmetrik joylashganligi interyerning tasvirlanishida kompozitsion farqsizlikni yaratadi. Boshqa tomondan xonalarning eni bo'yicha ichkariga kirib boruvchi yon tomonlaridan birini ortiqcha yaqinlashish nuqtia nazaridan yaqinlashish qulaylik yaratmaydi, chunki bitta yon tomon yoyiladi boshqasi esa ancha qisqaradi, bu esa perspektiv tasvirning muvozanatlashgan holatini yaratmaydi va ichki gorizonttal chuqurlikni aniq va yaqqol tasvirlab yuzaga chiqarishni qiyinlashtiradi. Berilgan fazoviy kenglik enining o'rtacha uchidan bir qismining o'ngidan yoki chap tomonidan qarash nuqtasini belgilash maqsadga muvofiqdir. (rasm.)

3. Vizual gorizont balanlikning pol va ship orasidagi mutanosib o'rtacha joylashtirish talab etilmaydi. Odatda, gorizont chizig'i polda turgan odamning ko'rish sathi bo'yicha, yoki o'tirgan odamning ko'rish sathi bo'ylab o'tkaziladi. Gorizontning bunday joylashishda fazoviy kenglikning chuqurligi (eni) va masshtabligini ifodalay oladigan shift faol namoyon bo'ladi.


Fragmentlar, detallar. Kurs ishi loyihasiga interyer va jihozlashdagi asosiy

1 - rasm.

Devorlar yoyilmasi tasvirlarining variantlari:

A – devorlar yoyilmasiga nisbatan polning markaziy joylashuvi;

B – devorlarning gorizonttal ketma-ket yoyilmasi.



detallar yoki fragmentlarning chizmalari “interyer” va “jihozlash” chizmasining pastki qismiga kiradi.


LOYIHALARNI BAJARISH USLUBLARI TARZ DEVORIY QIRQIMLARI (YOYMALAR)

Ikkita uslubda tasvirlanib ko'rsatiladi:


A - chizmaning o'rtasida xonaning pol yoki shift tarxi joylashtiriladi, va tegishli tomonlarida devorlarning tarzi ko'rsatiladi (1,A-rasm);

B - xonalardagi barcha devorlarning tarzi gorizontaal bo'yicha yoyilgan ketma-ketlikda ko'rsatiladi (1,B -rasm).

INTERYERLARNI PERSPEKTIVA CHIZMALARINI USLUBLARI



2 rasm. Interer perspektivasini qurish sxemasi: a – markaziy chiqish nuqtali frontal perspektiva; b – aralash chiqish nuqtasiga ega bo'lgan frontal perspektiva; v-burchakli ikkita chiqish nuqtali perspektiva.



3 rasm. Frontal perspektivada intererining birinchi tarxiga nisbatan ko'rish nuqtasining masofasini tanlash sxemasi.

Blis-so‘rov savollari

1. Interyerda kompozitsiya qanday ishlab chiqiladi ?
2. Interyer va jihozlash obrazi kompozitsiya tarkibiga kiruvchi qanday badiiy vositalar yordamida yaratiladi?
3. Interyer va jihozlashni loyihalash uslublarini aytib bering?
4. Interyerda perspektiva chizmalarini chizish usullarini ko‘rsating.

“Interyer va jihozlash” fani bo‘yicha test savollari

1.variant.

1. **Kirish joyi (dahliz)ning asosiy yoritilishi qanday amalga oshiriladi?** A) torsher orqali; B) stol lampasi orqali; V) qandil yordamida; G) shift plafoni yordamida.
2. **Kuxnyani pardoqlashda qanday pardoqlash materiallaridan foydalaniladi?** A) tovush o‘tkazuvchi; B) yengil alangalanuvchi; V) yirik donali; G) suvga chidamli.
3. **Qanday jamoat binolarining interyerlarida doska, parta, stol kabi jihozlardan foydalaniladi?** A) bozor, magazin; B) choyxona, oshxona; V) litsey, maktab, kollej; G) turbaza, bog‘cha.
4. **Sovet arxitekturasining interyeri qanday uslubga tegishli?** A) minimalizm+funksionalizm; B) gotika; V) xay-tek; G) barokko.
5. **Bra qanday yorug‘lik manbalari tipiga tegishli?** A) osma; B) to‘ldirilgan; V) qo‘shma qurilgan; G) devorga o‘rnatilgan.
6. **“Interyer “so‘zi qanday ma’noni anglatadi?** A) jamoat binolarini loyihalash; B) tashqi kenglikni loyihalash; V) ichki kenglikni loyihalash; G) turar joy binolarini loyihalash.
7. **Iliq ranglar inson psixologiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?** A) Quvonch, iliqlik; B) kuch bag‘ishlaydi; V) ruhlantiradi; G) yengillik bag‘ishlaydi.

8.Maktablarda o‘quvchilarning dam olishi uchun mo‘ljallangan joy qanday ataladi?A)rekreatsiya; B)foye; V)vestibyul; G)oshxona.

9.Geometrik figuralardan qaysi biri statiklik(turg‘unlik) tasavvurni hosil qiladi? A)kvadrat; B)aylana; V)uchburchak; G)ellips.

10.Interyerda qanday suniy materiallar qo‘llaniladi?

A)gipsli karton,keramika; B)beton,g‘isht,tosh; V)yog‘och,granit;
G)marmar,granit.

11.Materiallarning qanday badiiy xossalari ularning interyerda

ishlatilishida hisobga olinadi?A)qattqlik,yumshoqlik; B)faktura,rang;
V)vazni,mustahkamligi; G)issiqlik o‘tkazuvchanlik,sovuq o‘tkazuvchanlik.

12.Qanday ranglar “neytral” deb ataladi?

A)sariq,yashil; B)qora,kulrang;
V)qizil,havorang; G)oq,kulrang.

13.Issiq iqlim sharoitida interyerga qo‘yiladigan talablarni aniqlang.

A)tabiat burchaklarini tashkil etish; B)dam olish joylariga yashil ekinlar ekish;
V)yoritish priborlarini o‘rnatish; G)tabiiy shamollatish va xonalarni
insolyatsiya qilish.

14.Interyerda nima ko‘chuvchan deb hisoblaniladi?

A)mebel,kartinalar,jihozlar; B)kiyim,poyafzal;
V)oraliq devorlar,chiqish joylari; G)ustunlar.

15.Vestibyul nima?

A)dam olish zonasini yaratuvchi muhit; B)o‘quvchilarning o‘ynaydigan joyi;
V)tashqi muhitni ichkisi bilan bog‘lovchi; G)vertikal kommunikatsion muhit.

16.Funksiya nima?

A)Interyerning ijtimoiy asosi; B)bino ichida bajariladigan vazifa;
V)binoning konstruktiv yechimi; G)bino elementlarining yechimi.

17.Kvartira ichidagi zinapoyalarning optimal enini ko‘rsating.

A)0,9; B)1,00; V)0,85; G)1,2.

18.Geometrik ornamentdan foydalangan holda ko‘rish orqali qanday qilib xonaning balandligini oshirish mumkin?

A)gorizontal qismlarga ajratish orqali; B)vertikal qismlarga ajratish orqali;
V)rombsimon ornament yordamida; G)shaxmatli tartibda bo‘yash orqali.

19.Maktab o‘quvchisi shug‘ullanadigan xonani qanday rang bilan bo‘yash tavsiya etiladi?

A)qora; B)siyoh rang; V)havo rang; G)qizil.

20.Arkali konstruksiya birinchi bo‘lib qaerda ixtiro qilingan?

A)Qadimgi Misrda; B)Qadimgi Yunonistonda;
V)Qadimgi Rimda; G)Qadimgi Xitoyda.

“ Interyer va jihozlash” fani bo‘yicha test savollari.

2-variant.

1.Yotoq xonalarining qo‘shimcha yoritilishi qanday amalga

oshiriladi?A)bra yordamida; b)stol lampasi orqali;V)qandil yordamida;
g)shift plafoni yordamida;

2.Garderob uchun mo‘ljallangan shkaflarning ichki eni qanday o‘lchamda bo‘ladi?

A)50 sm; b)45 sm; v)60 sm; g)55 sm;

3.Apartamentlar nima?A)teatrdagi xizmat ko‘rsatish xonasi; b)mehmonxona nomeri ;V)turar joy kvartirasi; g)garaj ma‘muriyati uchun xona.

4.Elementlardan qaysi biri interyerning asosiy xarakteristikasiga kirmaydi?

A)forma(shakl); b)materiallar va faktura; V)drapirovka; g)sun‘iy va tabiiy yorug‘lik.

5.Quyida ko‘rsatilgan maktab rekreatsiyalari tipining qaysi biri

noto‘g‘ri?A)bitta sinf uchun rekreatsiya; b)sinflar guruhi uchun rekreatsiya;V)maktab uchun rekreatsiya; g)o‘qituvchilar uchun rekreatsiya.

6.Qanday binolarda sharqona uslubdan foydalanilgan?

A)muzeylarda,kutubxonalarda; b)savdo zallarida,choyxonalarda va h.; V)sanoat binolarida; g)turar joy binolarida.

7.Xonadagi past shift inson psixologiyasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

A)og'irlik sezdiradi, xavotirlantiradi; b)yuqoriga intiltiradi; V)katta fazoviy kenglikni his qildiradi; g)yengillik,erkinlik.

8.Interyerdagi" toza" rang so'zini qanday tushunamiz?A)Qizil,ko'k,qora,oq;

b)olovrang,oxra(qo'ng'ir);V)spektrning yoritilgan ranglari; g)aralash ranglar.

9.Universal sport zallarida qanday asosiy jihozlar

qo'llaniladi?A)parta,doska; b)halqa,arqon,sakrash
o'rnatmalari,g'o'la(brevno);V)stol,stul; g)seyf,shkaf.

10.Tomosha uchun mo'ljallangan binolarning interyerida dam olish zonalari qaerda joylashtiriladi?

A)rekreatsiya; b)vestibyl; v)bufet; g)foye, xoll.

11.Interyerdagi qanday ranglar "uzoqlashgandek" tuyuladi?

A) qora,qizil; b)hamma issiq ranglar; v)havo rang,yashil; g)sariq,siehrang.

12.Interyerda shlyuz qanday funksiyani bajaradi?

A)o'tish joyi; b)koridor; v)garderob; g)sanitar uzellari.

13.Geometrik ornamentdan foydalangan holda ko'rish orqali qanday qilib xonaning balandligini kamaytirish mumkin?

A)vertikal qismlarga ajratish orqali;b)rombsimon ornament orqali;
V)gorizontal qismlarga ajratish orqali; g)shaxmatli tartibda bo'yash o-li.

14.Ichki xona dekori birinchi marta qaerda qo'llanilgan?

A)Qadimgi Rim qurilishida; b)Qadimgi Misr qurilishida;
V)Qadimgi Yunonistonda; g)Qadimgi Dunyo qurilishida.

15.Aylana kolonna birinchi bo'lib qaerda o'zlashtirildi?

A)Qadimgi podsholik; b)O'rta podsholik; v)Yangi podsholik; g)Q.Gresiya.

16.Qaysi davr qurilishida "barokko"uslubi vujudga keldi?

A)XI asrda; b)XV asrda; v)XVII asrda;G)XIII asrda.

17.Ishlab chiqarish xonalarida qanday jihoz qizil rang bilan ajratilib ko'rsatiladi?

A)stanoklar; b)quvur o'tkazgichlar; v)konditsionerlar;
G)yong'inga qarshi vositalar.

18.Rahbar kabinetini zonalashtirish tarkibiga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

A)ishchi zonasi; b)majlis o'tkazish zonasi; v)ovqatlanish zonasi;
G)ekspozitsiya va dam olish zonasi.

19.Kinoteatrni hisoblashda kuzatishning optimal vertikal burchagini ko'rsating.

A)45 gradus; b)40 gradus; v)30 gradus; g)35 gradus.

20.Interyerning qaysi uslublaridan birida insonning to'la qonli hayotiy faoliyati uchun zarur psixologik sharoitlar yaratishga e'tibor qaratila boshlandi?

A)"modern" uslubi davri; b)"barokko" uslubi davri;
V)"gotika" davri; g)"klassitsizm "uslubi davri.

“ Interyer va jihozlash” fani bo'yicha test savollari.

3-variant.

1.Umumiy yashash xonalarining qo'shimcha yoritilishi qanday amalga oshiriladi?

A)shift plafoni yordamida; b)torsher yordamida;V)stol chirog'i orqali; g)qandil yordamida.

2.Kuxnya-nishaning qaerda qo'llanilishi tavsiya etiladi?

A)yotoqxonalarda; b)shifoxonalarda;V)mehmonxonalarda; g)bolalar lagerlarida.

3.3yoshdan 7yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bolalar yashash xonalariga qanday rang tavsiya etiladi?A)yashil; b)kul rang; v)ko'k; g)olov rang.

4.Kitoblar shkafi polkasining optimal o'lchamini aytib bering.

A)20- 25 sm; b)30 -35 sm; v)45- 50 sm; g)40- 45 sm.

- 5.Yashash uchun mo'ljallangan xonalarga quyidagi funksiyalardan qaysinisi tegishli emas?**A)uxlash funksiyasi;b)dam olish funksiyasi;V)jismoniy rivojlantirish funksiyasi;g)sanitariya gigiena funksiyasi.
- 6.Yashash uyining qanday xonalarini pardoqlashda suv emulsiyasidan foydalanmaslik tavsiya etiladi?**A)oshxona; b)sanuzel; v)vanna xonasi; g)yotoqxona.
- 7.Qanday rang kattalashgan kenglik taassurotini qoldiradi?**A)qizil; b)siyoh rang; v)oq; g)ko'k
- 8.Fazoviy-konusli,silindrik,parallelepiped va h.k. forma(shakl)lardan birinchi bo'lib qaerda foydalanilgan?**A)Qadimgi Misrda; b)Qadimgi Dunyoda;V)Qadimgi Rimda; g)Qadimgi Yunonistonda.
- 9.Qaysi davrning yashash uylarida birinchi bo'lib "atrium "paydo bo'ldi?**A)Qadimgi Yunoniston davrida; b)Qadimgi Rim davrida;V)Qadimgi Misr davrida; g)Qadimgi Xitoy davrida.
- 10.Laboratoriya xonalarining pollarini bo'yashda qanday materiallar qo'llaniladi?**A)yirik donali materiallar; b)yorug'likbardosh materiallar;V)yengil alanganadigan;g)kimyoviy ta'sirga chidamli.
- 11.Quyida ko'rsatilganlardan qaysi biri loyihaluvchi-mutaxassisning ishlab chiqarish mebeliga kirmaydi?**A)gorka;b)ishchi stol;v)kreslo; g)chizish doskasi.
- 12.Yoqimli ishchi muhit sharoitlaridan qaysi biri muhimroq?**
A)tovush va shovqindan himoya qilingan;b)nam o'tkazmaydigan;V)yorug'lik o'tkazmaydigan; g)germetiklangan.
- 13.Kinoteatrni hisoblashda kuzatishning optimal gorizontal burchagini ko'rsating.**A)45 grad.b)40 grad. V)50 grad. G)35 grad.
- 14.Maktablarni gigienik me'yorlar bo'yicha loyihalashga o'quv sinfining qanday tipi to'g'ri kelmaydi?**A)kvadrat shaklidagi; b)bo'ylama tipdagi;v)ko'ndalang tipdagi; G)olti qirrali.

15.Atriumni xonalarning qanday tipiga kiritish mumkin?A)rekreatsiya xonalari; b)ishlab chiqarish xonalari;V)o‘qitish xonalari; g)yordamchi xo‘jalik xonalari.

16.Qanday mebel ikki xonali mehmonxona nomer-klass komplektiga kirmaydi?A)krovat; b)divan; v)kreslo; g)royal.

17.Xromatik ranglar qatorining qaysi rangi insonning” faol” hissiy qabul qilishiga tegishli?A)ko‘k; b)qizil; v)sariq; g)yashil.

18.Yashash binolarida qulaylikni yaxshilash maqsadida koridorli sistemadan birinchi bo‘lib qachon foydalanilgan?

A)XIX asrda; b)XVII asrda; v)XVI asrda; g)XVIII asrda.

19.Qanday jamoat binolarida marmar,tabiiy tosh va granitdan ko‘proq foydalaniladi?

A)turbazalarda va dam olish uylarida; b)ofislarda,kafelarda;

V)maktab,litseylarda; g)vokzal,savdo sotiqlik binolarida va h.

20.Maktab interyeri qanday asosiy zonalardan tashkil topadi?

A)bufet,foye; b)o‘quv va rekreatsiya joylar;

V)sportzal; g)koridor,bufet.

“Interyer va jihozlash” fani bo‘yicha test savollari

4-variant.

1.Yashash kvartiralarida garderob xonasini qanday joylashtirish tavsiya etiladi?A)umumiy xonaga joylashtirish; b)oshxonaga joylashtirish;V)yotoqxonaga joylashtirish;g)balkon yoki lodjiyaga joylashtirish.

2.Oshxonani qanday qulayroq joylashtirish mumkin(uning boshqa xonalar bilan bog‘lanishi mumkin)?A)kirish joyining yoniga;b)yotoqxona yoniga;V)kabinet yoniga; g)mehmonxona yoniga.

3.Apartamentlar nima?A)garaj ma‘muriyati uchun xona; b)mehmonxona nomeri;V)turar joy kvartirasi; g)teatrda xizmat ko‘rsatish xonasi.

4.Sobiq Ittifoq arxitekturasida interyerining qanday uslubiga tegishli?A)gotika;b)xay- tek v)barokko g)minimalizm- funksionalizm.

- 5.O‘quv yurtidagi universal rekreatsiya deganda nimani tushunasiz?**A)galereya; b)foye;v)ko‘p funksionalli zal;G)maktabga kirish joyidagi hovli.
- 6.Xromatik ranglar qatoriga tegishli bo‘lgan ranglardan qaysi biri insonning “og‘irlik “ bilan his qilishiga taalluqli?** A)sariq; b)yashil; v)siyohrang; g)olovrang.
- 7.Xonalarning fazoviy tashkil etilishi qaerda vujudga kelgan?**A)Qadimgi Misrda; b)Qadimgi Rimda;V)qadimgi Dunyoda; g)Qadimgi Yunonistonda.
- 8.Qaysi davr qurilishida polixromli tasvir qo‘llanila boshlandi?**A)Qadimgi Rim qurilishida; b)Qadimgi Misr qurilishida;V)Qadimgi Dunyo qurilishida;g)Qadimgi Yunonistonda.
- 9.Qaysi davr qurilishida barokko uslubi vujudga kelgan?**A)XI asrda;b)XV asrda; v)XVII asrda;g)XIII asrda.
- 10.Laboratoriyaning nechanchi qavatiga og‘ir yoki juda aniq jihozlarni joylashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi?**A)birinchi qavatga;b)uchinchi qavatga;v)ikkinchi qavatga;G)sokol sathidagi qavatga.
- 11”.Modern” uslubini qanday xarakterlash mumkin?**A)ko‘p tashvishlilik ,yuklanganlik holati;b)dekorativlik,tantanavorlik;V)funksiya,forma va materialning organik bog‘liqligi;G)madaniy turmushning bayramonaligi va gurkuraganligi.
- 12.Rekreatsiya zonasi nima uchun mo‘ljallangan?**A)tanaffus paytida dam olish uchun; b)o‘qish uchun; v)uxlash uchun;G)ovqatlanish uchun.
- 13.Interyerda sun’iy landshaft qanday yaratiladi?**A)dam olish zonasini yaratish; b)o‘yinlar uchun burchaklar yaratish;V)jonli tabiatning yashil burchagini yaratish;g)ovqatlanish burchaklarini tashkil qilish.
- 14.Baland shift inson psixologiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?**A)torlik,bexovotirlik; b)og‘irlik; v)balandlikka va kenglikka intiltiradi; g)katta fazoviy kenglikni his qilish.
- 15.Oshxonalarga qanday ranglarni qo‘llash qulayroq?**
A)sovuq ranglar;b)iliq ranglar;v)neytral ranglar;g)nyuansli ranglar.

16.Interyerda formani qanday asosiy elementlar aniqlab beradi?

A)derazalar,eshiklar;b)konstruksiya va uning detallari;V)mebel,kartinalar;
g)kiyim,poyafzal.

17.Interyerda janubga qaragan xonalarga qanday ranglardan foydalaniladi?

A)sariq,qizil; b)oq,ko‘k; v)havorang,yashil,ko‘k;g)qora,kulrang.

18.Interyerda nechta o‘lcham bor?A)3ta; b)5 ta;v)4 ta; g)2ta.

19.Arxiteturaviy muhitdagi taqqoslash deganda nimani tushunasiz?

A)odam bilan birgalikda binoning ichki kengligini taqqoslash;B)arxitektura elementlarini bog‘lovchi;v)uy masshtabida obrazni aniqlash; g)badiiy obrazni yaratish.

20.San‘at saroyida asosiy xonalar qaysi biri?A)rekreatsiya,foye; b)o‘quv kabinetlari; v)tomosha zali,ko‘rgazma zali;G)vestibyul,xoll.

GLOSSARIY

Akveduk – uzoq suv manbalaridan suv keltirishga mo'ljallangan inshoot, osma quvur, ravoqli suv ko'prigi. Akveduklar ustidan ayrim hollarda odamlar uchun yo'l ham ishlangan. Akveduklardan shaharlar, bog'-saroylar hududini sug'orishda, shuningdek yirik hammomlarga suv keltirishda ham keng foydalanilgan.

Akvadizayn –suv inshootlari dizayni, ularni chiroyli, foydali va mustaxkam, ayni paytda, shinam va tejamli qilib ishlash va loyihalash.

Allegoriya –voqelik yoki hodisani qo'shma ma'noda aks ettiruvchi, ularning ma'nosini asliga o'xshash yoki ularga yaqin muayyan obrazlar, predmet va holatlar orqali majoziy ifodalash.

Amfiteatr – Yunoniston va Qadimgi Rimda ochiq tamoshagoh, inshoot. Tarhda ellips yoki yarim doira shaklida balandlab boruvchi o'rinlarga ega. XVII-XVIII asrlarga kelib amfiteatrlar istirohat bog'larida tomosha tadbirlarini o'tkazish maqsadida qurila boshlagan.

Anfilada – bir-biriga ketma-ket tutashgan zallar qatori. Eshiklar o'zaro uzviy bog'langan xonalar, zallar, saroylar, praklarda esa alohida yopiq yashil muhitlar qatori.

Antablement – orderning umumiy to'sin qismi.

Arabeska - handasaviy shakllar, barg, gul, shoda va shu kabilarning tasviridan tarkib topgan murakkab me'moriy naqsh, gulzor, parter yoki to'shama. Dastlab arab arxitekturasiga xos bezak bo'lganligidag shunday nom olgan.

Arxitektura – yuksak saviyadagi qurilish san'ati. Qurilishda qurilish qurilmalari, bino va inshootlar shakllarining kompozitsiyasi, funksiyasi hamda hajmlar uyg'unligining badiiy yaxlitligiga erishishi. Jamiyatning mafkuraviy g'oyalari, moddiy madaniyati, badiiy estetik qarashlari va bunyodkorlik san'atini o'zida yaxlit tarzda mujassamlashtira olgan inson ijodining mahsuli – me'moriy asar.

Arxitektonika – qurilish formalari tizimi va materiallari bilan bino va inshootlar kompozitsiyasi va funksiyasi orasidagi munosabatda yuksak badiiy me'moriy uyg'unlikka erishish san'ati.

Arxitekturaviy ansambl – muayyan g'oyaviy – badiiy reja, geometrik va fazoviy uyg'un yaxlit kompozitsiyada yaratilgan me'moriy majmua. Kompozitsion va funksional holatlarda o'zaro mutanosib bog'langan bino va inshootlar, o'simliklar va boshqa landshaft elementlarining yaxlit bir uyg'unlashtirilgan me'moriy omuxyasi. Samarqandagi Registon maydoni ansambli, Buxorodagi Poyi Kalon ansambli, Moskvadagi Kreml ansamblari bunga misol bo'la oladi.

Arxitekturaviy kompozitsiya – bino, inshoot va me'moriy ansamblarning vazifasiga, g'oyaviy-badiiy mazmuni va qurilmaviy xususiyatlariga ko'ra yaratilishi, ulardagi alohida me'moriy qism va elementlarning mutanosibligi; bino inshootlar va ansamblarni ijodiy yaratish jarayonida qo'llaniladigan maxsus me'moriy usullar va badiiy vositalarni o'rnatish bilan shug'ullanadigan va badiiy qonuniyatlarni (yaxlitlik, monandlik, mutanosiblik, tektonik, marom, masshtablilik, rang va boshqalarni) bayon qiluvchi va o'rgatuvchi fan.

Arxitekturaviy masshtab – bino va inshootlar hajmining atrof – muhitda va inson parametrlariga mutanosiblik darajasi, me'moriy kompozitsiya yoki hajmning qismlarga bo'linganlik yoki bo'linmaganlik darajasi, holati.

Arxitekturaviy ritm - me'moriy ob'yektlardagi takrorlanuvchi qismlar, elementlar va shakllarning bir-birga mos kelishligi, takrorlanish tartibi va takti, ularning nazokati va maromi.

Arxitekturada grafika - bu dinamikaning teskarisi, ya'ni o'lchamlari doirasida massa va ichki fazoviy muhitning o'zgarmaslik va hajmning barcha yo'nalishlari bo'yicha rivojlanmaslik, ya'ni turg'unlik, muvozanat holati.

Arxitekturaviy obraz - binolarning funksiyasi va mazmuniga mos ravishda arxitektonikasining badiiy – g'oyaviy va plastik ifodalanishi. Har bir bino turi o'ziga xos arxitekturaviy obrazga ega. Masalan, restoran va umumiy ovqatlanish binolarning obrazi, ularning funksiyaviy mohiyatidan kelib chiqqan

holda , sport yoki savdo inshootlarining obrazidan keskin farq qiladi. Qisqacha aytganda, obraz deganda bino ichki funksiyasining tashqi me'moriy ko'rinishidagi badiiy-g'oyaviy ifodalanishi tushuniladi.

Arxitekturaviy order - tarkibiy qismlari o'zaro mutanosib va mustaxkam badiiy yaxlit tizimga asoslangan ustunli-to'sinli qurilmaviy tartib, uslub. Arxitekturaviy orderlarning klassik turlari – doriy, ioniy va korinf. Qdaimgi Yunonistondagi mahalliy qabila va manzillar nomidan kelib chiqqan. Orderlar ustun va to'sin qismlardan tushili, ustun qismining o'zi ustun tanasi (kolonna), bosh qismi (kapitel) va poy ustun kursi (baza) dan iborat. To'sin qismi yaxlit holda anballement deb atalaib, u ustma-ust joylashgan arxivtrav (bosh to'sin), friz va karnizdan tuzilgan.

Arxivtrav – orderning bevosita to'sin sifatidagi qismi.

Assimmetriya - kompozitsiyada hajm fazoviy elementlarning simmetrik ko'rinishiga ega bo'lmagan xildagi joylashuvi va o'zaro tarkibi.

Astragal - (yunoncha “bo'yin umurtqasi”) order arxitekturasidagi ustun tanasining kapitel bilan yoki kirish bilan birikmasini tashkil qiluvchi murakkab profilli element.

Atriy, atrium - qadimgi yunonlar yoki rimliklar uylarining o'rtalik qismida joylashgan va uy xonalaridan chiqiladigan ichki hovli. Atrium markazida, odatda basseyn, uning ustiga esa yomg'ir suvlari oqib tushadigan tuynuk o'rnatilgan.

Baza - order ustuni yoki pilastrning pastki tayanch qismi asosi (tagi).

Balkon – bino tashqi devorlaridan konsol tarzida qisman chiqib turuvchi, ichki xonalarni tashqi muhit bilan bog'lovchi ochiq maydoncha, boloxona ayvoni.

Balustrada - balkonlar, galereyalar, zinapoyalar, terassalarning chetiga nozik naqshinkor kalta ustunchalar ko'rinishida ishlangan to'siq-qatorak.

Barokko - Italiyada arxitekturasida, keyinchalik G'arbiy Yevropada XVI asr oxiridan to XVIII asr o'rtalarigacha keng tarqalgan serhasham badiiy g'oyaviy uslub, me'moriy tamoyil. U o'zining kontrastligi, shakllarning o'ynoqiligi, harakatchanligi, hissiyotlarni kuzatuvchanligi, serhashamatligi bilan

ajralib turgan. Barokko stilida qurilgan binolar o'zlarining ana shu jihatlari bilan boshqa binolardan farq qilgan.

Galereya - usti yopiq, oldi ochiq, qator ustunli yoki ravoqli, tarxi uzunchoq tor o'tish joyi; tasviriy asarlar muzeyi.

Garmoniya – me'moriy kompozitsiyalar, shakllar yoki landshaft elementlarining o'zaro uyg'unligi, bir-biriga monandligi, muvofiqligi, badiiy jihatdan mosligi (havdasaviy shakllar, ranglar, hajmlar garmoniyasi va h.k.).

Gotika stili - G'arbiy Yevropada XIII – XIV asrlarda vujudga kelgan bu stilga bino tarzining favqulotda yengilligi, yuqoriga intiluvchanligi, jo'shqin, tik dinamik me'moriy shakllar, ravoqlar ritmi, nur va soya plastikasi, derazalardagi vitrajlar xarakterlidir. Parijdagi Nordam de Pari ibodatxonasi, Fransiyadagi Reymsk, Germaniyadagi Kelnskiy saborlari, aksariyat shahar ratushalari, Boltiq bo'yi respublikalaridagi saborlar bunga misol bo'la oladi.

Interyer-ichki muhitni loyihalash,jihozlash.

Ichkari muhitli fazoviy kompozitsiya – uch koordinata o'qi bo'yicha joylashib, tomoshabinning ichkarigi harakati orqali idrok etiladigan me'moriy-fazoviy muhit va undagi fazoviy shakllar kompozitsiyasi (sirtlar, hajmlar, ularning kompleksi). Ichkari muhitli fazoviy kompozitsiyaning ochiq va yopiq ko'rinishlari mavjud.

Kallak – ustunning tepa qismi, kapiteli (kapitel – ustunning tepa qismi); ibora ko'proq muqarnasli kapitelga nisbatan ishlatiladi.

Kapitel – ustun (kollona) yoki pilyastrning yuqori qismi (tanasi) bilan antablement orasida joylashgan kallak, bosha.

Karniz – bino yopmasining pastki qismi.

Kemping - avtoturistlar va yo'lovchilarga palatka yoki yengil tipdagi uyachalar va avtomobillar qo'yiladigan joyga ega bo'lgan qulay va shinam inshoot. Kempinglar, ko'pincha avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va yuvish estakadlari bilan jihozlanadi.

Keramika - loy qorishmalaridan pishirib olinadigan mahsulo, kulolchilik san'ati. Keramik buyumlarning sirtini bezatish va ularni tashqi ta'sirlardan

himoyalash uchun sir (glazur) va angob qoplanadi. Buyumlarga keramik bo'yoqlar yordamida bezak beriladi. Bunday hollarda keramik material mayolikaga aylanadi.

Kesson – arxitekturada bino shifti yoki to'ridagi, ko'pincha kvadrat tarhli hovuzak, badiiy bezak. Xona akustikasini yaxshilaydi, qoplamaviy element sifatida ham foydalaniladi.

Klassik stil – Yevropa arxitekturasida XVI asr oxiri – XVIII asrning birinchi yarmida vujudga kelgan badiiy yo'nalish. Klassitizim antik namunalariga taqlid qilish, shinam qulaylik yaratish, yaqqolllilik, ishning plastik tugallanishi kabi badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Afinadagi Parfeon ibodatxonasi klassik stilning ibtidosi hisoblanadi.

Kontrast – kompozitsiyada shakl, material, hajm, plastika, faktura yoki ranglar orasidagi yaqqol seziluvchi farq, holat.

Kottej – shag'ar tashqarisidagi uncha katta bo'lmagan hovlili uy.

Kuluar – yo'lak, raxrav.

Ko'shk, kiosk – to'g'ri ustunli, tomi qubballi yoki tekis yengil qurilma; pavilon; bog' ichidagi zebu-ziynatli ayvon, koshona, saroy, qasr. Kiosk savdoga mo'ljallangan yengil mo'jaz me'moriy shakl, qurilma tarzida keng tarqalgan.

Landshaft – ochiq havoda ishlash va dam olish uchun eng yaxshi sharoitlar yaratilgan, tarkibi tabiiy (o'simliklar, relef, tuproq, suv, hayvonot dunyosi) va sun'iy (me'moriy va muhandislik inshootlari) komponentlar bilan badiiy-kompozitsiyaviy va ekologik qonuniyatlar asosida jamlangan shahar yoki bog'-park hududi.

Lodjiya - erkerning teskarisi, ya'ni tashqi devorning bino hajmli ichkariga kirgan qismi, ichki ayvon. Undan kichik yozgi ochiq xona yoki yaxlit ochiq zal sifatida foydalanilad.

Masshtab – chizma, tarh, tarz yoki qirqimdagi chiziq uzunligining aslidagi tegishli chiziqqa nisbati. Masshtab son bilan (sonli masshtab) yoki grafik (chiziqli masshtab) tarzida ifodalanishi mumkin.

Metrik ritm - kattaligi bir xil shakllar (elementlar)ning bir xil oraliqda davriy takrorlanishidan hosil bo'lgan qator, ritm. Metrik ritmning sodda va murakkab xillari mavjud.

Me'moriy chizma - qog'oz tekisligida muayyan aniqlikda ifoda etilgan me'moriy ob'yektning grafik-loyihaviy chizmalar ko'rinishi. Bu chizmalar tarkibiga tarz, tarh, qirqim, perspektiva yoki aksonometriya, interyer yoki eskterer kiradi. Me'moriy chizmalarning uchta asosiy turi mavjud: ishchi chizmalar, ko'rgazmali loyiha chizmalari, o'lchov va o'quv chizmalari.

Modul – arxitektura va qurilishdagi shartli birlik, masshtab. Bino va inshootlar qismlarini bir-biriga, butunni bo'laklarga, bo'laklarni esa elementlarga uyg'unlashtirish, qismlar o'lchamlarini karrali kichraytirish yoki kattalashtirish, ularni nisbatlarini garmonik muvofiqlashtirish va ifodalash o'lchami. Modul sifatida uzunlik birligi yoki bino, inshoot elementlaridan birining o'lchami qabul qilinadi.

Mozaika - rangli mayda toshlar, shisha, sopol, marmar siniqlari va boshqa mayda donador materiallardan tuzilgan naqsh, koshin.

Muqarnas - ravoqli kosachalardan tashkil topgan murakkab hajmdagi bezak turi. Muqarnas ko'proq ustunning yuqori qismida ishlanadi.

Nollik sath - vertikal bo'yicha o'lchov olib boriladigan sath.

Nyuans – kompozitsiyada shakl, hajm, plastika, faktura yoki ranglar orasidagi zo'rg'a seziluvchi farq, holat.

Obelisk – piramida uchi kabi yuqoriga qarab qisqarib boruvchi to'g'ri burchakli yaxlit tosh ustun.

Pavilon - bog' yoki parkdagi uncha katta bo'lmagan yopiq yengil imorat; ko'shkning suhbatbop mo'jaz bir turi; ko'rgazmalar ko'shki, ko'chada ro'znomalar sotiladigan ko'shklar va h.k.

Pandus - bog'larda zinapoyalar o'rniga ishlatiladigan kam qiyalik yo'laklar.

Panorama - katta kompozitsiya, shahar yoki tabiat quchog'ini erkin tomosha qilishga mo'ljallangan keng perspektivali ko'rinish.

Pergola – chirmoviqqlarga burkangan yassi paykarasimon yengil qurilmani ko‘tarib turuvchi bir yoki ikki qator ustun, tirgaklardan iborat kichik me‘moriy shakl, bog‘-park imorati.

Plastika – hajmlilik yoki hajm sirtining ishlanganlik darajasi. Arxitekturaviy plastika bino funksiyasi va qurilmaviy tuzilishga mos ravishda bino sirtiga berilgan badiiy ishlovining hajmdagi ifodalanishi.

Simmetriya - kompozitsiyada shakl yoki predmetlarning markaziy o‘q chiziqqa yoki tekislikka nisbatan aynan o‘xshash joylashuvi. Simmetriyaning teskarisi asimmetriyadir.

Stela – ustunga o‘xshatib tik o‘rantilgan, yozuvli yoki tasvir ishlangan memorial tosh.

Stil – jamiyatning u yoki bu davriga xos badiiy-estetik va ma‘naviy qarashlarini tasviriy san‘at, arxitektura va shaharsozlik, landshaft ob‘yektlarida yaxlit bir g‘oyaviy yo‘nalish va mazmn asosida o‘ziga xos belgilarda ifodalovchi badiiy uslub, oqim. Masalan, arxitekturala renessans, barokko, gotika, klassizm, romantizm va boshqa stillar mavjud. Bu stillar turli davrda va turli mamlakatlarda o‘ziga xos me‘moriy belgilar va xususiyatlarga ega bo‘lgan. Masalan, Italiyaning barokko uslubi Rossiya barokko uslubidan farq qiladi, biroq ularni badiiy-g‘oyaviy jihatdan umumlashtiruvchi me‘moriy belgilar mavjud.

Struktura – qurilmalar yoki elementlarning tuzilishi, tarkibiy qismlarning o‘zaro bog‘liqligi, yaxlitligini belgilovchi tushuncha.

Tambur – asosiy xona va zallarga tashqaridan sovuq havo kirishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘rnatiladigan maxsus kichik xona, dahliz.

Tarz – binoning vertikal sathga tushiriladigan izi.

Tarh – binoning gorizontal sathga tushiriladigan izi.

Taxta – chizish taxtasi, planshet

Tayanch chizig‘i - o‘lchashda tayanch qilib olingan chiziq, ruscha – “prichalka”

Terrasa – oynavon, ayvon, reshayvon.

Trelyaj – timashuvchi va chirmovuq o‘simliklar uchun sinch vazifasini bajaruvchi yengil yog‘och panjara yoki boshqa materillardan ishlangan kichik me‘moriy shakl, bog‘-park qurilmasi.

Ton – bo‘yoq; soya, qora va rangli bo‘yoqlarga nisbatan ifodalovchi sifat.

Faktura-predmet, material, mahsulot sirtining ishlanganligi, tuzilish holati,sifati. Shakl yoki predmetning fakturaviylik xossasi yuzasining g‘adir-budurligiga bog‘liq bo‘ladi. Materialning fakturasi tabiiy yoki sun‘iy bo‘lishi mumkin.

Friz-binoning yuqoridagi,odatda bezakli qismi.

Erker-xonalarning tashqi devori tekisligidan qisman oldinga chiqqan,derazali devorlar bilan chegaralangan ichki qismi.Tashqaridan devordan chiqqan silindrik yoki prizma ko‘rinishdagi bino hajmi.

Eskiz-bino yoki inshoot tarhi,tarzi yoki umumiy ko‘rinishining boshlang‘ich grafik tasviri. Boshqa chizmalardan sodda grafik usulda(qo‘lda) bajarilishi bilan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xidoyatov T.A., Qodirova S.A., Abdurahmonov Y.I. "Zamonaviy interyer va jihozlash" O'quv qo'llanma. –T.: TAQI. 2012.
2. Раннев В.Р. Интерер: Ўқув қўлланма. - М.: Высшая школа, 1987
3. Гелфонд А.Л. Архитектурное проектирование общественных зданий и сооружений. М., Архитектура-С, 2006
4. Dizayner interyera: osnovy professii: O'quv qo'llanma / Tuzuvchi N.N. Lazareva, — М.: Gorizont Konsalting Ltd, 2000
5. Nozilov D.A. Markaziy Osiyo me'morchiligida interyer. –T.:/AN RUz izd. «Fan». -2005.
6. Рунге В.Ф. Эргономика и оборудование интерера: Ўқув қўлланма. - М.: Архитектура-С, 2006.
7. Змеул С.Г., Махенко Б.А. "Архитектурное типология зданий и сооружений" Москва, 2001 г.
8. Inogomov B.I "Zamonaviy bino va inshootlarni loyihalash" Toshkent, 2010 y., o'quv qo'llanma.
9. Лупева Т.П., Кодыш Э.Н. "Гаражи-стоянки для легковых автомобилей" М. 1988 г
10. Маклакова Т.Г., Наносова С.М., Шараненко В.Г. "Проектирование жилых и общественных зданий" Москва, Высшая школа 1998 г.
11. Нойферт.П., «Строительное проектирование», Справочник, М. «Архитектура-С», 2010. Г.
12. Степано В.И. «Школные здания». М. 1985 г.
13. Тосунова М.И. «Архитектурное проектирование» Москва, Высшая школа. 1983 г.
14. Ubaydullaev X.M., Inagamova M.M. «Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari», Toshkent., 2009 yil.

15. Хидоятлов Т.А., Кадирова С.А., Магомедова Ф.Х. “Архитектура общеобразовательных школ Узбекистана”. Ташкент 2005 г.

Informatsion-texnik vositalar

16. Арки в интерьере. Ремонт ФАҚ. [Электронный ресурс]. 10.20.208. 10.10.2010. URL:<http://remont-faq.ru/steny/arki.html>

17. Витраж в современной квартире. АРТСТРОЙ. [Электронный ресурс].

18. Дизайн. Строительство. Ремонт. Зонирование пространства. [Электронный ресурс]. 28.10.2010. URL: <http://rsm7.ru/index.html>

19. Отделочные материалы. Перегородки. 7.10.2010. [Электронный ресурс].

20. URL:<http://www.gips.ru/articles/peregorodki.html>

Нормативные документлар

21. ШНК 2.07.01-03 ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВО

22. ШНК 2.08.02-09 ОБЩЕСТВЕННЫЕ ЗДАНИЯ И СООРУЖЕНИЯ

23. ГОСТ 21.507-81 ИНТЕРЕРЫ рабочие чертежи

24. ШНК 4.13.05-06 “Многопрофильные болнисы”.

25. QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun’iy yoritish”

26. ShNK 2.01.02-04 “Bino va ins’hootlarni yong’in xavsizligi”

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Interyer va jihozlash haqida tushuncha. Interyerning shakllanish jarayonlari. Interyerning shakllanish tarixiy bosqichlari.....	5
Interyerda uslublar shakllanishi. Klassik uslubidagi interyerning uziga xos tomonlari. Hozirgi zamon interyer uslublari shakllanishi.....	15
Markaziy Osiyo hududida interyerli muhitni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari. Xalq turar joylarining bezaklari va funksional elementlari. Tom va shift bezaklari.....	23
Interyer muhitini tashkil etishning asosiy faktorlari. Interyerni loyihalashning nazariy asoslari. Funksional jihatdan maqsadga muvofiqlik. Interyer yaratishning ijtimoiy jihatlari. Interyer muhitida estetik talablar.....	28
Jihozlarning interyerdagi muhitni tashkil etishning asosiy faktorlari. Interyerda jihozlarni loyihalash(mebel, muhandislik kommunikatsiyalar, santexnika jihozlari va tekstil materiallari).....	38
Interyerning rang yechimi. Interyerda rangning insonga psixofiziologik va estetik ta'siri.....	45
Interyerda yorug'lik masalalari. Muhitning tabiiy va sun'iy yoritilishi.....	49
Interyerda zamonaviy pardoqlash materiallari. An'anaviy va zamonaviy pardoqlash materiallari va texnologiyalari.....	54
Jamoat binolari interyeri va jihozlari. Jamoat binolarining shaharsozlikdagi roli. Fazoviy strukturani shakllantirish prinsiplari. Jamoat binolari ichki muhitini tashkil etish. Jamoat binolari umumiy tarhiy elementlari.....	58
Jamoat binolari turlari. Jamoat binolarining umumiy tarxiy elementlari. Jamoat binolari va inshootlarini muhandislik qurilmalari bilan jihozlash.....	69

O'quv va tarbiya va muassasalari. O'quv va tarbiya muassasalariga qo'yiladigan talablar. Umumta'lim maktablaridagi interyerli muhit....	74
Tomosha ko'rsatish va transport binolari. Kinoteatr interyerini tashkil qilish. Teatr va sirk binolari. Vokzal binolarining interyeri.....	89
Savdo, maishiy xizmat ko'rsatish binolari va umumiy ovqatlanish muassasalari. Yopiq bozorlarning shakllanishi. Savdo markazlari. Umumiy ovqatlanish muassasalari.....	100
Ma'muriy va kommunal binolar. Boshqarma muassasalari va loyiha tashkilotlari binolari interyeriga qo'yiladigan talablar. Mehmonxonalar interyeriga qo'yiladigan talablar.....	107
Turar joy binolari turlari va interyeri. Turar joy binolarini shakllantirish uchun zarur talablar va sharoitlar.....	112
Xonadon xonalarining interyer va jihozlarini shakllantirish. Xonalarining interyerlarini shakllantirish. Ovqatlanish zonasi. Uxlash zonasi. Bolalar xonalari. Oshxona Dahliz.....	118
Xonadon interyerida dekorativ amaliy san'at va tasviriy san'at asarlarini qo'llash. Kichik arxitekturaviy shakllar.....	149
Interyer va jihozlashning loyihaviy asoslari. Loyihalashdagi normativ talab va tushunchalar.....	158
"Interyer va jihozlash" fani bo'yicha test savollari.....	172
Glossariy.....	175
Foydalanilgan adabiyotlar.....	183

QODIROVA SURAYYO ADILOVNA

INTERYER VA JIHOZLASH
(Darslik)

Қоғоз бичими 60x84 1/8. Ё/т.11,75. Адади 50 нусха.
Нархи: Келишилган холда. Буюртма рақами 6
"PRINT REBEL" МЧЖ матбаа корхонасида чоп этилди.
Тошкент шаҳри Олмазор тумани,
Ўразбоев кўчаси, 35-уй.